

2025

YIL

DAVLAT BUDJETI VA
DAVLAT MAQSADLI
JAMG'ARMALARI
BUDJETLARINING
2025-YIL IJROSI
HISOBOTI



Mundarija

Kirish	3
I. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.....	5
II. Davlat budjeti daromadlarining ijrosi	16
III. Davlat budjeti xarajatlarining ijrosi.....	25
Ijtimoiy soha xarajatlari.....	27
Maktabgacha ta’lim.....	29
Umumiy ta’lim	31
Kadrlar tayyorlash	35
Madaniyat va san’at sohasi	41
Sport sohasi	48
Sog‘liqni saqlash sohasi	52
Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya to‘lovlari	57
Aholini uy-joy bilan ta’minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	60
Iqtisodiyot xarajatlari.....	60
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	61
Suv xo‘jaligi sohasi	65
Qishloq xo‘jaligi sohasi.....	67
Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish.....	72
Uy-joy kommunal ishlari	74
Transport va eksport sohasi.....	76
Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar	80
Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish	85
Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari asosida tasniflash natijalari.....	90
Davlat budjeti xarajatlari ijrosini “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari.....	93
Budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari ijrosi	95
Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilariga respublika budjetidan ajratilgan mablag‘larning 2025-yil ijrosi	95
IV. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi yashash darajasini oshirish tadbirlarini moliyalashtirish	130

V. Tashabbusli budget jarayonlari	136
VI. Mahalliy budgetlar ijrosi	144
VII. Davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi.....	150
VIII. Vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari.....	189
IX. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar.....	198
X. Davlat-xususiy sheriklik, davlat xaridlari, xalqaro reyting va indekslar hamda boshqa ko'rsatkichlari	208
XI. Davlat tashqi va ichki qarzi tahlili.	214

Ilovalar

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida davlat moliyasi tizimini tubdan takomillashtirish, budget siyosatini zamonaviy talablar va xalqaro standartlar asosida shakllantirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Budget jarayonining barcha bosqichlarida — uni rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish tizimlarida samaradorlikni oshirish, davlat moliyaviy resurslaridan oqilona, manzilli va shaffof foydalanishni ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, Davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda chorak va yil yakunlari bo'yicha Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi yuzasidan hisobotlar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilmoqda.

Taqdim etilayotgan hisobotda 2025-yil yakuni bo'yicha asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ijrosi, davlat budjeti daromadlari shakllanishi tahlili, budget mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar, shuningdek kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan maqsadli dasturlar doirasida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Bundan tashqari, hisobotda davlatning tashqi va ichki qarz majburiyatlari holati va dinamikasi tahlil qilingan.

Shu bilan birga, davlat maqsadli jamg'armalarining ijrosi, davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar natijadorligi, davlat xaridlari tizimining samaradorligi hamda mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o'zni o'zgarishiga oid ko'rsatkichlar qamrab olingan.

Hisobotda asosiy e'tibor davlat budjeti daromadlari va xarajatlari ijrosining tahliliga, ularning 2024-yil ko'rsatkichlari bilan solishtirma ravishda baholanishiga, shuningdek makroiqtisodiy muhit omillarining ta'sir darajasini aniqlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, budget xarajatlari barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarga erishish darajasi, shuningdek iqlim o'zgarishi omillarini inobatga olgan holda tasniflangan.

Mazkur hisobot qabul qilingan qaror va topshiriqlar ijrosi samaradorligini baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish hamda budget tizimi budjetlarining ijrosi bo'yicha umumiy natijadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

I. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar


Jahondagi geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib, global iqtisodiyotdagi noaniqliklar chuqurlashayotgan murakkab sharoitda ham mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli va izchil islohotlar natijasida **2025-yilda yalpi ichki mahsulot (YIM) 7,7 foizga o'sib, uning hajmi 1 849,7 trln so'mga yetdi.**

Bunda, bozor xizmatlari **14,7 foizga**, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish **6,8 foizga**, qurilish ishlari **14,2 foiz** va qishloq xo'jaligi **4,4 foizga** o'sdi.

Aholi jon boshiga YIM hajmi **48,8 mln so'mni** tashkil etib (*3 881 AQSH doll*), 2024-yilga nisbatan real hisobda **5,6 foizga** oshdi.

1-rasm


Iqtisodiyot tarmoqlari o'sish sur'atlari, foizda



Qo'shilgan qiymatdagi xizmatlar sohasining ulushi **48,2 foizdan 48,6 foizga**, sanoatning ulushi **26,1 foizdan 26,7 foizga** oshgan, qurilish tarmog'ining ulushi **7,3 foizni** (*2024-yilga nisbatan o'zgarmagan*) **tashkil etgan** bo'lsa, qishloq xo'jaligining ulushi **18,5 foizdan 17,3 foizga** kamaygan.

2-rasm

Tarmoqlarning qo'shilgan qiymatdagi ulushi, foizda




Hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilgan **keng ko‘lamli** va **izchil** chora-tadbirlar hududlar iqtisodiyotida **ijobiy dinamikani** shakllantirib, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining barqaror oshishiga xizmat qildi. Xususan, hududlarning o‘rtacha o‘sish sur‘ati **8,4 foizni** (*YIMning 86,4%*) tashkil qilib, YIM o‘sish sur‘atining **7,3 foiz bandini** ta‘minladi.

YIMning shakllanishida Toshkent shahri 19,9 foiz ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, Toshkent viloyati 9,7 foiz hamda Navoiy viloyati 9,1 foiz ko‘rsatkichi bilan keyingi o‘rinlarni egallagan.

Respublika ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari **Toshkent** shahrida (11,3%), **Sirdaryo** (9,8%), **Jizzax** va **Namangan** (8,2%), **Farg‘ona** (8,1%), **Samarqand** (8%) va **Xorazm** (7,9%) viloyatlarida kuzatildi.

3-rasm

Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur‘ati, foizda




Narxlar barqarorligini ta‘minlash borasida hukumat tomonidan amalga oshirilgan zaruriy tadbirlar natijasida **yillik inflyatsiya** darajasi **7,3 foiz** (2024-yilda – 9,8%) tashkil qildi.


Oziq-ovqat mahsulotlar inflyatsiyasi **5,5 foizni** (*umumiy inflyatsiyaga ta‘siri – 2,5 foiz band*), nooziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi **5,1 foizni** (*1,64 f.b.*) va xizmatlar inflyatsiyasi **13,9 foizni** (*3,16 f.b.*) tashkil etdi.

4-rasm

Inflyatsiya darajasi, foizda



Inflyatsiya darajasining oylik dinamikasi, foizda



Shuningdek, umumiy inflyatsiyani pasaytiruvchi omillardan qovoq narxi (- 7,7%), tarvuz (-38,1%), shaftoli (-24,1%), sarimsoq (-20,5%), guruch (-16,7%), bulgʻor qalampiri (-14,9%), tovuq tuxumlari (-14,6%), anor (-8,7%), birinchi navli bugʻdoy uni (-5,7%), shakar (-5,3%), propan (-10,6%) pul oʻtkazmalari uchun haq toʻlash (-6,1%) va boshqa tovar (xizmat)lar narxlarining arzonlashishi **umumiy inflyatsiyaga -1,07 foiz band** taʼsir qildi.

Iqtisodiyot oʻsishining talab omillari

2025-yilda aholi umumiy daromadlari **18,9 foizga** (1 134,3 trln soʻm), pul oʻtkazmalari – **27,6 foiz** (18,9 mlrd doll), davlat budget xarajatlari – **23,5 foiz** (383,9 trln soʻm), iqtisodiyotga kredit qoʻyilmalari – **15,3 foiz** (653 trln soʻm), toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar – **1,6 barobar** (19,1 mlrd doll) va chakana savdo aylanmasi – **11,2 foiz** (482,4 trln soʻm) oshishi **yalpi talabni ragʻbatlantirdi**.

Aholining umumiy daromadlari 1 134,3 trln soʻmni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **real oʻsish – 9,2 foizga**, nominal oʻsish esa **18,9 foizga** oshdi.

Bunda, aholi jon boshiga umumiy daromadlar **29,9 mln soʻm** (nominal oʻsish – 16,6%) va real hisobda oʻsishi **7,2 foizni** tashkil etdi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlar natijasida, 2025 - yilda jami **591,1 trln soʻmlik asosiy kapitalga investitsiyalar** oʻzlashtirilib, 2024-yilga nisbatan **10,5 foizga** oshgan.


Markazlashgan investitsiyalar hajmi hukumat kafolati ostidagi kreditlarning **27,2 foizga** hamda budget mablagʻlarining **5,8 foizga** oshishi hisobiga **62,6 trln soʻmga** yetib, oʻsish surʼati **13,6 foizni** tashkil etdi.

Iqtisodiy faollikni ifodalovchi **markazlashmagan** investitsiyalar hajmi esa **528,5 trln soʻmni** tashkil etdi (oʻsish – 10,2%).

Bunda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar **389,6 trln** so‘m (*o‘lish* – 13,2%), aholi mablag‘lari – **37,5 trln** so‘m (6,2%), tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari **11,1 trln** so‘mni (4,6%) tashkil etdi.

6-rasm

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning ulishi, foizda




To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning **19,1 mlrd** dollarga yetib, qariyb **1,6 barobarga** oshishi jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘lishiga katta hissa qo‘shdi.

Kapital qo‘yilmalarning **52,7 foizi** sanoatga yo‘naltirilgan bo‘lsa, xizmatlarga – **23,6 foiz**, qishloq xo‘jaligiga – **8,6 foiz** va qurilishga – **15 foizi** yo‘naltirildi.

7-rasm


Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning tarkibi, foizda



Asosiy kapitalga qo‘yilmalarning hududlar kesimidagi tahliliga ko‘ra, eng yuqori o‘lish sur‘ati **Sirdaryo** va **Farg‘ona** (*o‘lish* – 45,2%), **Xorazm** (34,9%), **Samarqand** (25,6 %) va **Navoiy** (21,3 %) viloyatlarida kuzatildi.

Tashqi murakkab vaziyatga qaramasdan, hisobot davrida mamlakat **tashqi savdo aylanmasi 20,7 foizga oshib, 81,2 mlrd** dollarni tashkil etdi. Bunda tovar va xizmatlar **eksport** hajmi **33,8 mlrd doll** (*o'sish – 24%*) va **import** hajmi **47,4 mlrd** dollarga (*18,5%*) yetdi.

8-rasm



Shuningdek, oltinsiz eksport 2024-yilga nisbatan **21,4 foizga o'sib, 24 mlrd** dollarni tashkil qildi. Oltin eksporti **9,8 mlrd dollarni** (*o'sish – 30%*) tashkil etdi.

1-jadval

2025-yil yanvar-dekabr oylarida eksport va import tarkibi

T/r	Eksport va import tarkibi	Eksport			Import		
		qiymati, mln doll	o'sish, %da	ulushi, %da	qiymati, mln doll	o'sish, %da	ulushi, %da
	Jami	33 812,3	124,0	100,0	47 354,5	118,5	100,0
1	Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	2 944,7	135,4	8,7	4 563,0	123,5	9,6
2	Ichimliklar va tamaki	205,7	148,6	0,6	341,4	135,8	0,7
3	Nooziq-ovqat xom ashyosi, yoqilg'idan tashqari	294,6	93,4	0,9	1 550,4	129,7	3,3
4	Mineral yoqilg'i, moylash materiallari va shunga o'xshash materiallar	1 476,2	112,9	4,4	3 998,6	101,2	8,4
5	Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	56,6	130,2	0,2	532,0	142,6	1,1
6	Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 135,7	127,1	6,3	5 600,4	119,5	11,8
7	Sanoat mahsulotlari	3 988,4	95,5	11,8	7 258,4	119,9	15,3
8	Mashina va transport uskunalari	1 161,5	96,7	3,4	15 995,9	118,1	33,8
9	Har xil tayyor mahsulotlar	1 696,0	153,4	5,0	1 749,1	118,0	3,7

T/r	Eksport va import tarkibi	Eksport			Import		
		qiymati, mln doll	o'sish, %da	ulushi, %da	qiymati, mln doll	o'sish, %da	ulushi, %da
10	Boshqa mahsulotlar	10 092,5	133,6	29,8	494,7	110,7	1,0
	<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	9 800,0	131,0	29,0			
11	Xizmatlar	9 760,4	128,9	28,9	5 270,6	112,7	11,1

Tovarlar tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari eksportining **35,4 foizga**, har xil tayyor mahsulotlarning **53,4 foizga**, kimyo sanoati mahsulotlarining **27,1 foizga** ortishi eksportni oshiruvchi asosiy omillardan bo'ldi.

Tovarlar importi tarkibida iste'mol (33,1 foizdan 32,2 foizga) va investitsion (34,3 foizdan 34,1 foizga) tovarlar ulushi **kamayib**, oraliq iste'mol (24,7 foizdan 25,3 foizga) va xomashyo (7,9 foizdan 8,3 foizga) **tovarlar ulushi oshdi**.

Tarmoq va sohalar o'sishining tahlili

2025-yilda kuzatilgan yuqori iqtisodiy faollik natijasida respublika tovar-xomashyo birja bitimlari **21,8 foizga** (147,1 trln so'm) o'sdi. Xususan, paxta xomashyosi (o'sish – 1,6 barobar), mineral o'g'itlar (36%), sement (27%), suyultirilgan gaz (25%), dizel yoqilg'isi (21%) benzin (11%)ga **oshgan**.


Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zaruriy energiya resurslari bilan ta'minlashda **elektr energiyasi** ishlab chiqarish hajmi **4,3 foizga** o'sib, qariyb **85 mlrd kVt** soatni tashkil qildi.

Qayta tiklanuvchi elektr manbalari hisobidan elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 31 foizga yoki 17 mlrd kVt soatni tashkil qilib, uning tarmoqdagi ulushi 20 foizga yetdi (2024-yilda – 16%).

Buning natijasida, **sanoat mahsulotlari** ishlab chiqarish hajmi **1 101,1 trln** so'mni yoki o'sish **6,8 foizni** tashkil etdi (2024-yilda – 6,5%).

9-rasm


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sishi, foizda



Sanoat mahsulotlari o‘sish sur‘ati asosan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish **9,7 foizga**, kiyim ishlab chiqarish **21,7 foiz**, avtomobilsozlik sanoati **9,3 foiz**, to‘qimachilik **6,9 foiz**, metallurgiya sanoati **1,3 foiz**, rezina va plastmassa buyumlar **20,4 foiz** va metall rudalarni qazib olish **13,6 foizga** kabi tarmoqlarning yuqori o‘sishi hisobidan ta‘minlandi.

10-rasm


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi, foizda



Shuningdek, **Jizzax (14,3%)**, **Surxondaryo (9,3%)**, **Namangan (9,1%)**, **Sirdaryo (8,7%)**, **Samarqand (8,5%)**, **Xorazm (8,4%)**, **Navoiy (8,3%)**, **Farg‘ona (7,3%)**, **Andijon va Qashqadaryo (7,2%)** hamda **Buxoro (7,1%)** viloyatlari bilan birga **Toshkent shahrida (7,3%)** yuqori o‘sishga erishildi.

11-rasm

Hududlar kesimida sanoat tarmog‘ining o‘sish sur‘atlari, foizda




Bozor xizmatlari hajmi **1 050,3 trln so‘m**, o‘sish sur‘ati **14,7 foizni** tashkil qildi (2024-yilda – 13,3%).

Bunda yuqori o'sish sur'atlari **moliyaviy** xizmatlar (*o'sish – 24,6%*), **aloqa va axborotlashtirish** (*22,7%*), **savdo** (*13,8%*), **transport** (*10,8%*) hamda **yashash va ovqatlanish** xizmatlari (*10,4%*) oshishi hisobiga bozor xizmatlarining o'sishi ta'minlandi.

12-rasm


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, foizda



Hududlar kesimida esa respublika ko'rsatkichidan yuqori o'sish sur'atlari **Toshkent shahrida** (*17,7%*), **Samarqand** (*15,9%*), **Namangan** (*15,4%*), **Toshkent va Xorazm** (*15,2%*), **Andijon va Jizzax** (*14,7%*) viloyatlarida kuzatildi.

13-rasm

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, foizda



Xizmatlar sohasini rag‘batlantiruvchi omillar:

a) Xizmatlar eksporti **9,8 mlrd** dollarni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **2,2 mlrd** dollarga yoki **28,9 foizga** oshishi bozor xizmatlarini rag‘batlantiruvchi asosiy omil bo‘ldi. Bunda **turizm** xizmatlari **38,7 foizga** (4,9 mlrd doll), transport **15,2 foizga** (3,2 mlrd doll) hamda telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari **43,8 foizga** (921,5 mln doll) oshgan;

b) Chakana savdo tovar aylanmasi **482,4 trln** so‘mni (o‘*sish*–11,2%) tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **81,9 trln** so‘mni (17,9%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa **400,5 trln** so‘mni (10 %) tashkil etgan;

v) 2025-yilda respublikaga **11,7 mln** nafar **xorijiy sayyohlar** tashrif buyurib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan (1,6 mln nafar ko‘p) bilan solishtirilganda **16,1 foizga** oshgan;

g) Jami **188,3 trln** so‘mlik **transport xizmatlari** ko‘rsatilib, 2024-yilga nisbatan **10,8 foizni** tashkil etdi. Barcha transport turlari orqali jami **7,3 mlrd** **nafar yo‘lovchi** (o‘*sish* – 5,3%) hamda **1 601 mln tn** (4,5%) **yuk** tashildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **538,9 trln** so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan o‘*sish* sur‘ati **4,4 foizga** o‘*s*di.

Bunda, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish hajmi – **4,5 foizga**, o‘*rmon* xo‘jaligi – **3,2 foizga** va baliqchilik – **3,2 foizga** oshdi.

Ma‘lumot uchun: jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 94,4 foizini dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohalari, 2,8 foizini o‘*rmon* xo‘jaligi va 0,9 foizini baliqchilik mahsulotlari tashkil etadi.

14-rasm


Qishloq xo‘jaligini o‘*sish* sur‘ati, foizda



Hududlar kesimida **Sirdaryo** (*o'sish* –6,9%), **Farg'ona** (5,6%), **Andijon** va **Navoiy** (4,7%) viloyatlarida hamda **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (4,9%) respublika ko'rsatkichidan (4,4%) yuqori o'sish kuzatilgan.

15-rasm

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligining o'sish sur'ati, foizda



Qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'sishining asosiy omillari sifatida dehqonchilikda jami **243 trln** so'mlik (*o'sish* - 7,2%) va chorvachilikda **265,7 trln** so'mlik (1,6%) mahsulotlar yetishtirilishi hisobiga ta'minlangan.

Xususan,


Dehqonchilikda paxta ishlab chiqarish hajmi – **25,4 foiz**, don – **13 foiz**, poliz – **16,2 foiz**, uzum – **7,6 foiz**, meva – **6,4 foiz**, kartoshka – **0,2 foiz** va sabzavotlar – **1,2 foizga**;

Chorvachilikda tuxum yetishtirish hajmi – **7 foiz**, go'sht (*tirik vaznda*) – **1,5 foiz**, sut – **1,2 foiz**, qorako'l – **4,4 foiz**, jun – **4,1 foiz** va pilla – **0,3 foizga** oshdi.

2025-yilning yanvar–dekabr oylarida jami **313,9 trln** so'mlik **qurilish ishlari** bajarildi (*o'sish* – 14,2%).

Hududlar kesimida qurilishi ishlari **yuqori o'sish** sur'atlari **Sirdaryo** (*o'sish* – 38%), **Jizzax** (20,4%), **Farg'ona** (17,5%) va **Samarqand** (17,3%) viloyatlari hamda **Toshkent shahrida** (18,3%), kuzatildi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, foizda



Qurilish ishlarining **iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha bino va inshootlar qurilishi hajmi **218,7 trln** so'm (23,3%), fuqarolik obyektlari qurilishi **64,9 trln** so'm (35,9%) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **30,2 trln** so'mni (35%) tashkil etgan.

II. Davlat budjeti daromadlarining ijrosi

2025-yilda Davlat budjeti daromadlari **359,8 trln so‘m**ni tashkil etib, 2024 -yilga nisbatan **85,4 trln so‘m**ga (+31,1 foiz) ko‘p bo‘ldi. Jumladan:


– Soliq qo‘mitasi tomonidan **247,8 trln so‘m** (jami tushumga nisbatan 68,9 foiz);

– Bojxona qo‘mitasi tomonidan **76,2 trln so‘m** (jami tushumga nisbatan 21,2 foiz, shundan QQS bo‘yicha o‘zaro hisobga olingan summa 5,2 trln so‘m) shakllantirildi.

– Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar **35,8 trln so‘m**ni tashkil qilib, 2025-yilda qo‘shilgan qiymat solig‘idan manfiy farqni qoplash uchun soliq to‘lovchilarga **27,4 trln so‘m** miqdorida (2024-yil bilan solishtirganda **1,9 trln so‘m kam**) qo‘shilgan qiymat solig‘i va **1,9 trln so‘m** miqdorida kesh-bek summolari qaytarib berildi.

17-rasm

2023 – 2025 yillarda Davlat budjeti daromadlari dinamikasi (trln so‘m)




Mahalliy budjetlarda 2025 yilda **11,6 trln so‘m** (o‘tkazib beriladigan daromad bilan birga) qo‘shimcha daromad shakllandi.

Jumladan, Toshkent shahri 4,7 trln so‘m, Toshkent viloyati 1,1 trln so‘m, Farg‘ona viloyati 941 mlrd so‘m, Qashqadaryo viloyati 820 mlrd so‘m Samarqand viloyati 808 mlrd so‘m va Andijon viloyati 486 mlrd so‘m.

2025-yilda Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar **32,7 foiz**ni, bilvosita soliqlar **30,5 foiz**ni, resurs soliqlari **12,5 foiz**ni va boshqa daromadlar **24,3 foiz**ni tashkil qildi.

Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi



2-jadval


Soliq to'lovchilar sonining o'zgarish dinamikasi (nafar)

Ko'rsatkichlar nomi	2025 yil 1 yanvar *	2026 yil 1 yanvar	Foizda
1. Asosiy soliq turlari bo'yicha to'lovchilar soni			
Foyda solig'i	180 022	210 002	16,7
Qo'shilgan qiymat solig'i	201 023	252 418	25,6
Aksiz solig'i, jami	5 247	5 273	0,5
Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq	1 626	1 659	2,0
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	137 383	145 911	6,2
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	76 870	78 356	1,9
Yuridik shaxslar yer soligi	185 585	186 331	0,4
2. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar			
Daromad solig'i (qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovchi YTT bilan birga)	6 278 274	6 479 969	3,2
Mol-mulk solig'i	6 873 266	7 007 239	1,9
Yer solig'i	5 849 813	5 929 796	1,4

* – Soliq qo'mitasining 2026-yil 25-fevraldagi 07-26272-sonli xati bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotga asosan

Bevosita soliqlar bo'yicha 2025-yilda davlat budjetiga **117,8 trln so'm** kelib tushdi, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **27,0 trln so'mga** yoki **29,7 foizga** ko'p bo'ldi.

Bevosita soliqlar tarkibi (trln so‘m)



Foyda solig'i bo'yicha tushumlar **72,3 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **19,7 trln so'mga** yoki **37,4 foizga** oshdi. Bunda hududiy korxonalarning foyda solig'i tushumlari qariyb **11 trln so'mni** tashkil etdi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari 2025-yilda **42,4 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **7,1 trln so'mga** yoki **19,9 foizga** oshdi.


Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarning o'sishiga iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining legallashtirib borilishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bunda, 2024-yilda ish haqi fondi 257,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 -yilda 312,4 trln so'mga (o'sish 21,6 foiz) etgan.

2025-yilda **aylanmadan olinadigan soliq** bo'yicha tushumlar **3,1 trln so'mni** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **240 mlrd so'mga** yoki **8,5 foizga** oshdi.

Bilvosita soliqlar bo'yicha 2025-yilda davlat budjetiga **109,8 trln so'm** kelib tushdi, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **21,4 trln so'mga** yoki **24,2 foizga** ko'p bo'ldi.

Bilvosita soliqlar tarkibi (trln so‘m)



2025-yilda **qo‘shilgan qiymat solig‘i** tushumlari **76,0 trln so‘m**ni tashkil qildi, bu 2024-yilga nisbatan **16,7 trln so‘m**ga yoki **28,3 foizga** ko‘pdir.


Ma‘lumot uchun, hisobot davrida QQS yalpi tushumlari (o‘zaro hisobga olingan summa bilan birgalikda) 103,5 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 16,8 foizga oshgan.

Soliq organlari tomonidan **45,2 trln so‘m** (2024-yilga nisbatan 14,1 foizga ko‘p), bojxona organlari tomonidan **58,3 trln so‘m** (2024-yilga nisbatan 18,9 foizga ko‘p, shundan o‘zaro hisobga olingan 5,2 trln so‘m) QQS bo‘yicha tushumlar undirilishi ta‘minlandi.

QQS zanjiri uzluksizligini ta‘minlash, soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish hisobiga teng raqobat muhitini yaratish hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini yig‘ish ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar QQS samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Shuningdek, 2024-yilga nisbatan QQS bo‘yicha tushumlarning o‘sishi iqtisodiy faollikning oshishi, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirilishi bilan bir qatorda, soliq to‘lovchilar sonining ortib borishi bilan shartlanadi.

21-rasm



QQSdan manfiy farqni qoplash uchun 2025-yil davomida soliq to‘lovchilarga **27,4 trln so‘m** miqdorida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qaytarildi (yalpi QQS tushumlariga nisbatan 26,5 foiz). Solishtirish uchun, 2024-yil davomida ushbu maqsadlarda qariyb **29,3 trln so‘m** (yalpi QQS tushumlariga nisbatan 33,1 foiz) mablag‘lar soliq to‘lovchilarga qaytarilgan.

Hisobot davrida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar soni 252 mingtani tashkil etib, yil boshiga nisbatan 51,4 mingta yoki 25,6 foizga oshdi.

2025-yilda **aksiz solig‘i** tushumlari **21,9 trln so‘m**ni tashkil etib, 2024-yildagi tushumlarga nisbatan **2,8 trln so‘m**ga yoki **14,7 foizga** oshdi.

Soliq organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlari **20,0 trln so'm**ni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **2,3 trln so'mga** yoki **12,7 foizga** ko'p bo'ldi.

Bojxona organlari ma'murchiligida aksiz solig'i tushumlari **1,8 trln so'm**ni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **551 mlrd so'mga** yoki **42,6 foizga** oshdi.

Aksiz solig'i tushumlari 2025-yilda quyidagicha ko'rinishda bo'ldi:

- alkogol mahsulotlari (*pivo mahsulotlari bilan birga*) – 2,5 trln so'm (2024 - yilda – 2,3 trln so'm);
- tamaki mahsulotlari – 3,1 trln so'm (3,0 trln so'm);
- tabiiy gaz – 6,7 trln so'm (5,1 trln so'm);
- shakarli va energetik ichimliklar – 1,2 trln so'm (634 mlrd so'm)
- benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i – 5,5 trln so'm (4,8 trln so'm).

Davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash, sog'liqni saqlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar iste'molini cheklash hamda budjet yo'qotishlarining oldini olish maqsadida, har yili tamaki va alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'i stavkalari kamida yillik inflatsiya darajasida indeksatsiya qilinmoqda.

Jahon savdo tashkiloti talablari doirasida filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek ishlab chiqarish va importi uchun aksiz solig'i stavkasi birxillashtirildi.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-apreldan tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan, gazlangan hamda iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar uchun kiritilgan aksiz solig'i stavkasi oshirilmagan holda, 2025-yil 1-apreldan boshlab tarkibida shakar mavjud bo'lgan gazlanmagan salqin choylar, meva sharbatlari, sanoat usulida ishlab chiqarilgan kompotlarning va boshqa gazlanmagan shakarli ichimliklarning 1 litri uchun ham 500 so'm miqdorida aksiz solig'i joriy etildi.

Natijada budjetga qo'shimcha **601 mlrd so'm** tushum ta'minlandi.

Mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'ining bekor qilinishi natijasida tadbirkorlar ixtiyorida **1 030 mlrd so'm** qoldirildi.

Shuningdek, aksiz markalari va elektron nazorat tizimlari orqali noqonuniy aylanishga qarshi kurash kuchaytirildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, aksiz solig'idan tushgan tushumlar 2024 - yilga nisbatan oshdi.

Bojxona boji. 2025-yilda bojxona boji tushumi **11,9 trln so'm**ni tashkil etib, 2024-yil bilan solishtirganda **1,9 trln so'mga** yoki **18,6 foizga** oshdi.

Bojxona daromadlarining oshishi asosan ayrim bojxona imtiyozlarining amal qilish muddatining tugashi, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, rasmiylashtiruv jarayonining tezlashishi va bojxona ma'muriyatchiligining yangi usullarini joriy etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan bog'liq.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha umumiy tushumlar **44,9 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **8,6 trln so'mga** yoki **23,6 foizga** oshdi.


Tahlil qilinayotgan davrda, resurs soliqlari bo'yicha daromadlarning asosiy ulushi, ya'ni **57,5 foizi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa** to'g'ri kelib, mazkur soliq bo'yicha tushumlar **25,8 trln so'mni** tashkil etdi.

2025-yilda **mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha** tushumlar **18,1 trln so'mni** tashkil etdi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar **8,0 trln so'mni** tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan **1,2 trln so'mga** yoki **17,8 foizga** oshdi.

Yer solig'i bo'yicha tushumlar **10,0 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **1,8 trln so'mga** yoki **22,2 foizga** ko'p bo'ldi.

22-rasm



Tushumlar o'sishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatdi:

– soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv. metr uchun belgilangan mutlaq miqdorini, **2024 yilda** amalda bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalari va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari o'rtacha **7 foizga** indeksatsiya qilinishi;

– 2025-yildan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlariga noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash vakolati berilgani.

Shuningdek, mahalliy kengashlar tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasiga nisbatan oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanilishi va stavkaning indeksatsiya qilinishi hisobiga soliq stavkasi **2024 yilga** nisbatan yuridik shaxslar uchun **26 foiz** hamda jismoniy shaxslar uchun **24 foizga** oshdi.

2025-yilda **suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq** tushumlari **1,4 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **243,1 mlrd so'm** yoki **20,7 foizga** oshgan.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonalarining suv solig'i tushumlarining 40 foizi yoki **347,8 mlrd so'mi** "Suv yetkazib berish xizmati" DUK lar faoliyatini moliyalashtirish, ularning balansidagi obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo'naltirildi.

Davlat budjetining boshqa daromadlari va soliqsiz tushumlari

Hisobot davrida boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha tushumlar **87,3 trln so'mni** (2024-yilga nisbatan 28,4 trln so'm yoki 48,2 foiz ga ko'p) tashkil etdi. Tushumlarning asosiy qismi davlat ulushiga ega korxonalar tomonidan to'lanadigan dividendlar hisobiga to'g'ri keldi va **49,9 trln so'mni** tashkil etdi.

Soliq imtiyozlari bo'yicha qisqacha sharh

Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda soliq imtiyozlari summasi **119,1 trln so'mni**, Soliq kodeksiga muvofiq imtiyozlar **91,1 trln so'mni (76,5 foiz)** tashkil qildi.


3-jadval

2025-yil davomida soliq turlari kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari

mlrd so'm

T/R	Soliq turi	Soliq imtiyozlari foydalanilgan		Ulushi, foizda
		holatlar soni	summasi	
	Jami	259 012	119 079,7	100 %
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	24 451	91 667,7	77,0 %
2	Foyda solig'i	40 469	15 799,8	13,3 %
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (soliq agentlari)	53 758	2 372,4	2,0 %
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	776	112,8	0,1 %
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 166	3 531,1	3,0 %
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	19 810	2 129,6	1,8 %
7	Ijtimoiy soliq	60 588	3 232,3	2,7 %
8	Aylanmadan olinadigan soliq	43 994	234,0	0,2 %

2025-yil davomida foydalanilgan soliq imtiyozlarida soliq turlari ulushi
(foizda)



2025-yilda soliq imtiyozlari umumiy hajmining **91,7 trln so'm** yoki **77,0 foizi** QQS hisobiga to'g'ri keldi (shundan 44,0 trln so'm QQSdan nol darajali stavka hisobiga to'g'ri keladi).

Foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari **15,8 trln so'mni** (13,3 foiz) tashkil qildi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlari umumiy hajmida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i **3,5 trln so'm** (3 foiz) ni tashkil qildi.

4-jadval

2025-yil davomida sohalar kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari

T-r	Soha nomi	Jami imtiyoz	Shundan					
			QQS	Foyda solig'i	Jismoniy shaxslar daromad solig'i	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	Suv, ijtimoiy va aylanmadan olinadigan soliq
	Jami	119 079,7	91 667,7	15 799,8	2 372,4	3 531,1	2 129,6	3 579,1
1	Ishlab chiqarish faoliyati	40 663,5	34 942,4	3 346,5	365,1	904,6	525,1	579,9
2	Moliyaviy va sug'urta xizmatlari	29 508,0	27 626,5	1 759,4	85,0	2,1	11,7	23,3
3	Axborot xizmati ko'rsatish sohasi va aloqa faoliyati	9 035,4	4 524,6	2 840,0	454,5	22,0	60,0	1 134,3
4	Tashish va saqlash faoliyati	8 445,9	6 731,4	1 428,2	104,7	61,9	32,4	87,3
5	Ulgurji va chakana savdo	5 855,1	3 978,7	1 219,4	214,0	75,2	41,5	326,2


T-r	Soha nomi	Jami imtiyoz	<i>Shundan</i>					
			QQS	Foyda solig'i	Jismoniy shaxslar daromad solig'i	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	Suv, ijtimoiy va aylanmadan olinadigan soliq
6	Dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	4 283,1	645,2	1 071,2	418,9	1 596,0	161,0	390,8
7	Tog'-kon sanoati	4 109,4	3 720,1	205,1	18,9	13,1	40,4	111,7
8	Ta'lim	3 520,7	1 920,8	938,9	149,7	129,0	65,3	317,0
9	Qurilish sohasidagi faoliyat	2 831,2	1 948,1	556,1	67,2	52,4	93,3	114,2
10	Boshqa xizmatlar ko'rsatish	2 455,3	1 744,5	487,0	33,2	34,8	35,3	120,3
11	Boshqa professional, ilmiy va texnika faoliyati	1 738,3	1 155,0	397,7	62,1	8,5	68,4	46,5
12	Ma'muriy boshqaruv, xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyat	1 576,0	733,2	553,7	25,1	20,0	210,6	33,6
13	Boshqa sohalar bo'yicha	5 057,8	1 997,1	996,5	374,1	611,5	784,6	294,0

III. Davlat budjeti xarajatlarining ijrosi

2025-yilda Davlat budjetining xarajatlari (davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan transfertlar bilan birga) **383,9 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **73 trln so'mga** yoki **23,5 foizga** o'sdi.

24-rasm


2023–2025-yillarda Davlat budjeti xarajatlarining ijrosi
(mlrd so'm)



2025-yilda Davlat budjetidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda yagona ijtimoiy soliq to'lovlari uchun **179,4 trln so'm** mablag' ajratildi. Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga **149,6 trln so'm** hamda ijtimoiy soliq to'lovlariga **29,8 trln so'm** yo'naltirilgan.

25-rasm

Davlat budjetidan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda ijtimoiy soliq to'lovlari uchun ajratilgan mablag'lar, mlrd so'm



O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning 2025-yil ijrosi

mlrd so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Farq	
				Summa	Foiz
	Jami *	386 508,9	383 927,7	2 581,2	99,3
1	Ijtimoiy xarajatlar	184 404,6	180 428,3	3 976,3	97,8
	<i>shundan:</i>				
1.1	ta'lim	85 796,4	84 151,5	1 644,8	98,1
1.1.1	maktabgacha ta'lim	16 953,4	16 784,9	168,6	99,0
1.1.2	umumiy ta'lim	54 563,0	54 038,6	524,4	99,0
1.1.3	kadrlar tayyorlash	14 280,0	13 328,1	951,9	93,3
1.2	sog'liqni saqlash	43 274,5	43 275,4	-0,9	100,0
1.3	madaniyat va sport	8 877,3	8 834,6	42,7	99,5
1.4	fan	2 149,0	2 034,2	114,8	94,7
1.5	nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	15 770,5	14 490,7	1 279,8	91,9
1.6	aholi bandligi darajasini oshirish	1 351,8	1 114,2	237,5	82,4
1.7	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga transfertlar	20 246,0	20 246,0		100,0
1.8	Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	2 521,0	2 133,6	387,4	84,6
2	Iqtisodiyot xarajatlari	44 170,5	43 691,3	479,3	98,9
	<i>shundan:</i>				
2.1	suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	10 000,5	9 965,2	35,3	99,6
2.2	geologiya qidiruv ishlari	820,0	820,0		100,0
2.3	aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	6 209,1	6 740,8	-531,7	108,6
2.4	tabiatni muhofaza qilish	266,2	264,5	1,7	99,4
2.5	uy-joy kommunal ishlari	4 021,2	4 126,4	-105,2	102,6
2.6	tabiiy gaz narxlaridagi tafovut uchun subsidiyalar	7 000,0	7 000,0		100,0
3	Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari	34 684,3	35 981,0	-1 296,7	103,7
4	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	18 628,5	19 094,3	-465,9	102,5

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Farq	
				Summa	Foiz
5	Sud organlarini saqlash xarajatlari	1 991,1	1 970,7	20,5	99,0
6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg'armalari	3 124,9	3 004,8	120,1	96,2
7	Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash hamda o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	1 501,4	1 507,9	-6,5	100,4
8	Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	19 130,0	18 133,8	996,2	94,8
9	Boshqa xarajatlar	78 873,5	80 115,7	-1 242,1	101,6

* – Davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan transfertlar inobatga olingan


Ijtimoiy soha xarajatlari

Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish hamda fuqarolar uchun munosib sharoitlar yaratish davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qolmoqda.

Buni davlat budjetidan ushbu sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajmining yildan yilga oshib borishidan ham ko'rish mumkin. Xususan, 2025-yilda ijtimoiy soha xarajatlari uchun umumiy xarajatlarning **47 foizi** yoki Davlat budjetidan **180,4 trln so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan **28,1 trln so'mga** ko'paydi.


26-rasm

Davlat budjetidan ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'lar, mlrd so'm



Ijtimoiy xarajatlarning o'sishi ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va boshqa muhim sohalarda inson kapitali salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur xarajatlar fuqarolar hayoti sifatini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror rivojlanish tamoyillarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi.


27-rasm



2025-yilda ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar miqdori 2024-yilga nisbatan **12,9 trln so'mga** yoki **18,1 foizga** oshib, **84,2 trln so'mni** tashkil etdi.

Ta'lim sohasiga amalga oshirilgan xarajatlarning **64 foizi** umumiy ta'limga, **20 foizi** maktabgacha ta'limga va **16 foizi** kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi.

28-rasm




Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim jamiyat taraqqiyoti hamda inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiluvchi barqaror rivojlanishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli ta'lim bilan to'liq qamrab olish Hukumat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va ta'lim sohasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida **maktabgacha ta'lim sohasiga** 2025-yilda **16,8 trln so'm** yoki 2024-yilga nisbatan **3 trln so'm** ko'p mablag' ajratildi.

29-rasm

Maktabgacha ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lar mlrd so'm




Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 2023-yilda **30 838 tani** tashkil qilgan bo'lsa, sohada tizimli ravishda amalga oshirilgan islohotlar, xususan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, nodavlat sektorni qo'llab-quvvatlash, yangi muassasalarni tashkil etish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish chora-tadbirlari natijasida 2025-yilga kelib **8 205 taga** ortib **39 043 taga** yetdi, shundan **7 053 tasi** Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari, **31 990 tasi** nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hisoblanadi.


Bunda **7 053 ta** davlat maktabgacha ta'lim muassasalari va **31 990 ta** nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jami **2 546,8 ming nafar** maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiya olib kelmoqda.

Bu esa o'z navbatida, Respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning **78,4 foizini** maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish imkonini berdi.

Hududlar kesimida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi (foizda)




2025-yilda Davlat-xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga subsidiyalar uchun **3 950 mlrd so'm** yoki 2024-yilga nisbatan qariyb **607 mlrd so'm** ko'p mablag' yo'naltirildi.



Hisobot davrida maktabgacha ta'lim tizimiga jami **16 784,9 mlrd so'm** yoki 2024-yilga nisbatan **3 044,8 mlrd so'm** ko'p mablag' ajratildi. Shundan respublika budjetidan **8 714,5 mlrd so'm** hamda mahalliy budjetlar hisobidan **8 070,4 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

Bunda:



- Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun
- Yagona ijtimoiy soliq to'lovlari uchun
- Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga byudjet subsidiyalari uchun
- Oziq-ovqat xarajatlari uchun
- Boshqa xarajatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli Farmoni bilan maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va tarbiya jarayonida sifatni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu Farmonga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining mehnatga haq to'lash tizimi qayta ko'rib chiqilib, 2025-yil 1-sentabrdan boshlab bog'cha direktorlari ish haqi miqdori oshirildi.

Bu esa o'z navbatida, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish, ularning mas'uliyati va tashabbuskorligini kuchaytirishga xizmat qildi.

Shuningdek, Farmon doirasida bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy menejment usullarini joriy etish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari to'g'risida

ming so'mda

Lavozim nomi	Avvalgi tartibga asosan o'rtacha ish haqi miqdori		1-sentabrdan boshlab yangi tartibga asosan o'rtacha ish haqi miqdori	
	I-guruh	II-guruh	I-guruh	II-guruh
Direktor	3 500	3 263	5 943	5 552

2025-yilda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish dasturlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar:

– Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga xarid qilingan **9 303 ta planshet** uchun **35,5 mlrd so'm** mablag' ajratildi.


– Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini didaktik materiallar bilan ta'minlash uchun ajratilgan **67 mlrd so'm** mablag' hisobidan mashq daftarlari va tarbiyachilar uchun metodik qo'llanmalar xarid qilinib joylarga yetkazib berildi.

Umumiy ta'lim

Mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda bilimli, ijtimoiy faol va barkamol avlodni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish, uning sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va islohotlar natijasida, **umumta'lim sohasiga** 2025-yilda **54 trln so'm** yoki 2024-yilga nisbatan qariyb **9 trln so'm** ko'p mablag' ajratildi.

Umumta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar mlrd so'm



2025-yilda respublika bo'yicha umumta'lim maktablari soni **10 110 taga** yetib, 2024-yilga nisbatan **60 taga** ko'paydi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar va maktablar soni




O'z navbatida, umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar soni 2024-yilga nisbatan **33 246 nafarga** oshib, hisobot davri yakuniga ko'ra **6 508,7 ming nafarga** yetdi.

Umumta'lim maktablarida 2024 -yilda pedagog xodimlar soni **548,1 ming** nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yakunlariga ko'ra, pedagog xodimlar soni **550,4 mingtaga** yetdi.

Sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun **38,5 trln so'm**, ijtimoiy soliq xarajatlariga **9,2 trln so'm** mablag'lar ajratildi.

Pedagog xodimlar soni



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son Farmoniga asosan, **2025-yil 1-apreldan** boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning tizimidagi agentlik hamda markazlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari xodimlari hamda tuman/shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlariga ko'p yillik xizmati uchun rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda har oylik ustamalar to'lab borilishi belgilandi.

Shunga ko'ra, har oylik ustamalar uchun **795,6 mlrd so'm** mablag' tegishliligi bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari xodimlari hamda tuman/shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga ajratib berildi.

Bu ko'rsatkichlar nafaqat soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, balki ta'lim tizimida kadrlar barqarorligini ta'minlash, malakali pedagoglarni jalb etish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

2025-yilda ta'lim sohasini rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda o'quv jarayonini zamonaviy ta'lim vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qator dasturiy tadbirlar amalga oshirildi.

2025-yilda ta'lim sohasida rivojlantirish dasturlari bo'yicha bajarilgan ishlar:

– Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun nashr etilishi rejalashtirilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualar bilan bog'liq xarajatlari uchun **1 301,3 mlrd so'm** xarajatlar amalga oshirilgan;

– 1-sinf va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni o'quv qurollari bilan ta'minlash bilan bog'liq tadbirlarga **171,8 mlrd so'mlik** xarajatlar amalga oshirilgan;

– umumta'lim maktablarini birlamchi sport anjomlari bilan ta'minlash uchun ajratilgan **61,7 mlrd so'm** hisobidan **10 067 ta** umumta'lim maktablariga **100,1 ming donadan** futbol, voleybol, gandbol va basketbol to'plari, **20,1 ming dona** sekundomer anjomlari yetkazib berildi;

– maktablarni zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlash dasturi doirasida **191,9 mlrd so'm** mablag' ajratilgan bo'lib, 2025-yilda **1 000 ta** umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter to'plamlari bilan ta'minlandi;

– umumta'lim maktablariga **70,5 ming dona** musiqa anjomlari (*dutor, rubob, tanbur, do'mbira, doira, nay va g'ijjak*) xaridi uchun **49,4 mlrd so'm** ajratildi;

– xorijiy o‘qituvchilarni jalb qilish uchun xarajatlariga **126,7 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

Shuningdek, umumta’lim maktablarida to‘garaklarni tashkil etish va ularga “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlarini jalb qilish uchun **13,5 mlrd so‘m** mablag‘ yo‘naltirildi.


Hozirgi kunda respublikada **705 ta** nodavlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi tegishli litsenziyaga ega bo‘lib, xalq ta’limi tizimidagi Davlat maktablariga (*10 110 ta*) nisbatan ularning ulushi **6,9 foizni** tashkil etib, ularda **153 015 nafar** o‘quvchi ta’lim-tarbiya olmoqda.

Xorijiy tajribalar davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat fuqarolarning sifatli ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarda nodavlat ta’lim sektorining umumiy o‘rta ta’limdagi ulushi salmoqli bo‘lib, **Germaniyada 12 foizni, Fransiyada 17 foizni, AQSHda 18 foizni, Buyuk Britaniyada 20 foizni, Ispaniya, Irlandiya va Gollandiyada 30 foizni** tashkil etadi.

Shu o‘rinda, ta’lim sohasida yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar va o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining samarali natijasida hududlarda xalqaro, respublika va viloyat olimpiadalari sovrindorlari soni yildan yilga ortib bormoqda.

36-rasm

O‘quv yillari va hududlar kesimida xalqaro, respublika va viloyat olimpiadalari sovrindorlari (o‘quvchilar) soni



Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrlagi “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-346-sonli qaroriga asosan yurtimiz va boshqa davlatlarda o‘tkazib kelinayotgan nufuzli **xalqaro va mintaqaviy olimpiadalarda** o‘quvchilar munosib ishtirok etib, 2025-yilda jami **210 ta medalni** (*40 ta oltin, 78 ta kumush, 92 ta bronza*) qo‘lga kiritdi.

Ushbu g'olib bo'lgan o'quvchilar hamda ularning o'qituvchilari va jamoa rahbarlari Davlat budjetidan jami **12,4 mlrd so'm** pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi "Sog'liqni saqlash va ta'lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan "Toza qo'llar" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qaroriga asosan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini sanitariya-gigiyena vositalari (*suyuq sovun, hojatxona qog'ozi va antiseptik vositalari*) bilan ta'minlash uchun **235,5 mlrd so'm** ajratildi.

6-jadval

"Toza qo'llar" dasturi doirasida ajratilgan mablag'lar to'g'risida

mln so'mda

№	Hudud nomi	Jami ajratilgan mablag'	shundan	
			maktabgacha ta'lim muassasalariga	umumiy o'rta ta'lim muassasalariga
	Jami	235 528,7	175 096,7	60 432,0
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	13 738,5	10 014,0	3 724,5
2	Andijon viloyati	21 938,2	16 539,0	5 399,2
3	Buxoro viloyati	12 588,6	9 002,3	3 586,3
4	Jizzax viloyati	10 167,0	7 448,0	2 719,0
5	Qashqadaryo viloyati	22 592,3	18 186,5	4 405,8
6	Navoiy viloyati	6 981,8	5 043,1	1 938,7
7	Namangan viloyati	14 357,5	11 187,8	3 169,8
8	Samarqand viloyati	27 973,1	21 492,7	6 480,4
9	Surxondaryo viloyati	19 695,5	15 111,0	4 584,5
10	Sirdaryo viloyati	5 871,0	4 319,3	1 551,7
11	Toshkent viloyati	19 640,8	14 461,0	5 179,8
12	Farg'ona viloyati	26 689,8	18 736,0	7 953,8
13	Xorazm viloyati	13 382,3	9 942,8	3 439,5
14	Toshkent shahar	19 912,5	13 613,3	6 299,3

Shu bilan birga, mazkur qaror bilan suv ta'minoti mavjud bo'lmagan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini (*727 ta bog'cha va 1 923 ta maktab*) ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun suv baklarini o'rnatish xarajatlariga **51,9 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Kadrlar tayyorlash

Hisobot davrida Kadrlar tayyorlash sohasiga **13,3 trln so'm** yoki ta'lim sohasi xarajatlarining **15,8 foizi** yo'naltirildi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarning **30 foizi** yoki **4 000,6 mlrd so'm** qismi o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarini saqlash hamda ushbu yo'nalishlarda ta'lim oluvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlash uchun sarflandi.

7-jadval

2023–2025-yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalariga ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)

Yo'nalishlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2024 yilga nisbatan o'sish (%)
Jami	2 745,6	3 405,7	4 000,6	117,5
Akademik litseylar	395,3	467,1	501,3	107,3
Kollejlar	556,6	644,4	621,4	96,4
Texnikumlar	1 758,3	2 256,2	2 847,0	126,2
Qurilish markazlari	35,4	38,0	30,9	81,2

Izoh: Kasb-hunar maktablari 2025-yil 1-yanvardan tugatilganligi sababli 2023 – 2024-yil xarajatlari Texnikumlar xarajatlariga qo'shilgan.

Hisobot davrida o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari va ijtimoiy soliq to'lovlari uchun **2 140,0 mlrd so'm** hamda boshqa xarajatlari (IV-guruh xarajatlari) uchun **1 860,6 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

37-rasm

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari soni



2025 – 2026 o'quv yilida texnikumlarda **301 ta** kasb va mutaxassislik bo'yicha jami **437,8 ming nafar** (shundan, 77,7 ming nafari qizlar) o'quvchilar tahsil olmoqda.

Xususan,

- **Muhandislik ishi** sohasida **130,2 ming nafar**;
- **Sog'liqni saqlash** sohasida **77,8 ming nafar**;
- **Ishlab chiqarish va ishlov berish** sohasida **54,7 ming nafar**;
- **Axborot – kommunikatsion texnologiyalar** sohasida **35,7 ming nafar**;
- **Qishloq xo'jaligi** sohasida **42 ming nafar**;

- **Xizmat ko‘rsatish** sohasida **24,5 ming nafar**;
- **Ta’lim** sohasida **17 ming nafar**;
- **Boshqaruv va biznes** sohasida **9,6 ming nafar**;
- **Xavfsizlik xizmati** sohasida **0,7 ming nafar** o‘quvchilar tahsil olishmoqda.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 158-sonli Farmoniga asosan 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilindi.

Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida Kasbiy ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, kasbiy ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida davlat budjeti hisobidan **50 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

Bunda, xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilinadigan **14 ta** texnikumni saqlash xarajatlari to‘liq Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida mazkur texnikumlarning tuzilmasida mavjud shtat birliklari doirasida 7 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan Xalqaro ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur ajratilgan mablag‘lar Kasbiy ta’lim agentligini saqlash xarajatlari, texnikum va akademik litseylarni o‘quv-xonalari va ustaxona binolarini jihozlash, o‘quv binolarini mukammal va joriy ta’mirlash, Xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar xodimlarining ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovlari yo‘naltirildi.

Bundan tashqari, kadrlar tayyorlash sohasining yana bir qismi bo‘lgan **oliy ta’lim va malaka oshirish muassasalarini saqlash, “El-yurt umidi” jamg‘armasi, Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi va boshqa** xarajatlar uchun **9,3 trln so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi.



Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga ajratilgan mablag'lar **4 057,7 mlrd so'm**;

Ijtimoiy soliq uchun ajratilgan mablag'lar **479,4 mlrd so'm**;

Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasiga **1 718,0 mlrd so'm**;

Boshqa xarajatlarga ajratilgan mablag'lar **634,6 mlrd so'm**ni tashkil etdi.

8-jadval

Oliy ta'lim muassasalari talabalari soni

T/R	Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil
	Talabalar soni	1 352 819	1 516 899	1 655 640
	<i>shu jumladan</i>			
1	Davlat OTMLarida talabalar soni	983 040	967 739	961 407
2	Xorijiy OTMLarida talabalar soni	33 555	39 248	41 762
3	Nodavlat OTMLarida talabalar soni	336 224	509 912	652 471

Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi to'rt baravardan ko'proqqa oshib, ushbu ko'rsatkich 2016-yilgi **9 foizdan 43 foizga** yetkazildi. 2025-yil yakunlari bilan talabalar soni **1 mln 600 ming nafardan** ortdi.

Hurmatli Prezidentimizning tashabbuslari bilan so'nggi yillarda Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni **turar joy bilan ta'minlash** darajasini yaxshilash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-son qaroriga asosan 2022-2025 yillarda jami **109,6 ming o'rinli 241 ta** talabalar turar joylarini barpo etish rejalashtirilgan.

Natijada, Davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosida hamda mavjud binolarni moslashtirish orqali rekonstruksiya qilish hisobiga 2022-2025-yillar davomida yangi binolar qurilishi natijasida jami **78,2 ming yangi** yotoq o'rinlari yaratildi.

Shundan, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida **38,9 ming o'rinli 75 ta** hamda oliygohlarning o'z mablag'lari hisobidan **39,3 ming o'rinli 98 ta** yotoqxonalar barpo etildi.

2025-yilda davlat oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar turar joylari soni **386 taga** yetkazilib, **156,2 ming** nafardan ortiq talabani joylashtirish imkoniyati yaratilib, yotoqxonaga ehtiyoji mavjud talabalarning ta'minlanish darajasi **57 foizga** yetkazildi.

Davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish hamda Talabalar turar joyini barpo etgan xususiy sheriklarga yashagan har bir talaba uchun kompensatsiya to'lovlari uchun 2025-yilda **315,8 mlrd so'm** xarajatlar amalga oshirildi.

9-jadval

Davlat budjetidan ajratilgan subsidiya mablag'lari

mlrd so'm

№	Ko'rsatkichlar	Ajratilgan mablag'
1	Davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar	276,2
2	Talabalar turar joyini barpo etgan xususiy sheriklarga yashagan har bir talaba uchun kompensatsiya to'lovlari uchun subsidiya (BHMning 15 va 20 baravari)	39,6
	Jami	315,8

Bundan tashqari, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda ularning munosib daromad olishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 605 - sonli qarori bilan davlat budjeti mablag'lari hisobidan ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarining bir qismini qoplab berish tizimi joriy etilgan.

Mazkur dastur doirasida 2025-yil davomida ijara huquqi asosida yashayotgan qariyb **50 ming nafar** talabalarga ijara to'lovlarining bir qismini qoplash uchun **153,2 mlrd so'm** miqdorida mablag' moliyalashtirib berildi.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt miqdori Davlat budjetidan qaytarish shartisiz qoplab berish tizimi joriy etilgan.

Natijada 2025-yilda davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan qariyb **17 818 nafar** xotin-qizlarning **122,9 mlrd so'm** miqdorida to'lov-kontrakt mablag'lari to'lab berildi.

Bundan tashqari:

a) mamlakatimizdagi yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, 2021–2022 o'quv yilidan boshlab:

respublikadagi barcha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun imtiyozli ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Natijada, 2025-yilda tijorat banklari tomonidan **168,4 mlrd so'm** miqdorida qariyb **10,1 ming nafarga** yaqin talabalarga imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi.

b) Mamlakatdagi xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada mustahkamlash maqsadida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida tahsil olishi uchun imtiyozli shartlarda (foizsiz) ta'lim kreditlari ajratishning yangi tizimi joriy etilgan.

Natijada, 2025-yil davomida tijorat banklari tomonidan **1 233,1 mlrd so'm** miqdorida **67,8 ming nafarga** yaqin talaba xotin-qizlarga foizsiz ta'lim kreditlari moliyalashtirildi.

10-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlar

mln so'm

T/r	Banklar nomi	2025-yil		
		summasi	talaba soni	shundan, xotin qizlar
	Jami	1 233 077	77 878	67 805
1	Mikrokredit bank	17 868	1 147	1 011
2	Asaka bank	3 625	170	151
3	Agrobank	232 388	15 624	13 459
4	Xalq bank	506 008	34 039	29 714
5	Biznesni rivojlantirish banki	68 693	4 494	3 865
6	Turon bank	6 318	358	307
7	Orient Finans bank	4 593	204	174
8	Milliy bank	95 296	6 812	5 947
9	O'zsanoatqurilish bank	193 085	9 141	7 985
10	Hamkor bank	71 733	3 971	3 536
11	Aloqa bank	33 470	1 918	1 656

Madaniyat va san'at sohasi



Madaniyat va san'at — millat ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyat birdamligini mustahkamlash va fuqarolik o'zligini asrashda hal qiluvchi o'ringa ega. Shu bois, ushbu sohani qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

2025-yilda madaniyat va san'at sohasini moliyalashtirish uchun **4 643,7 mlrd so'm** mablag' ajratilishi — bu boradagi islohotlar izchil davom etayotganidan, jamiyatning madaniy ehtiyojlarini qondirishga davlat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Ushbu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan **66,5 foizga** oshgan bo'lib, milliy ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy irodaning amaldagi yorqin ifodasidir.

Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun **1 659 mlrd so'm**, ijtimoiy soliq xarajatlari uchun **277,7 mlrd so'm** va boshqa xarajatlarga **1 485,3 mlrd so'm** mablag' ajratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22 - noyabrdagi "Madaniyat va san'at, axborot-kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar ish haqi miqdorlarini oshirish to'g'risida"gi PQ- 400-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan davlat madaniyat muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorlari 2025-yil 1-yanvardan boshlab — 20 foizga, 2025- yil 1-iyuldan boshlab — yana 15 foizga oshirildi.

11-jadval

2025-yilda madaniyat sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar

Xarajatlar yo'nalishi	Kassa xarajati (mlrd so'm)
JAMI	4 643,7
Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarni saqlash xarajatlari	293,1
Muzeylar, ko'rgazmalar hamda ko'rgazma zallarini saqlash xarajatlari	167,3
Madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlari	399,3
Teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari xarajatlari	695,0
Televideniye, matbuot va radio xizmatlari xarajatlari	867,4

Xarajatlar yoʻnalishi	Kassa xarajati (mlrd soʻm)
Kinematografiya agentligi, “Qoraqalpoq kino” agentligini saqlash xarajatlari hamda davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar	219,8
Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalarini saqlash xarajatlari hamda madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxeologik ishlar uchun xarajatlar	575,1
Boshqa madaniy chora-tadbirlar va muassasalar xarajatlari	1 426,7

Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarga ajratilgan mablagʻlar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati koʻrsatishni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-4354-sonli qarori bilan Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi qoshida **199 ta** axborot-kutubxona markazlari tashkil etilgan.

Shuningdek, mazkur kutubxonalardan tashqari respublikada koʻzi ojizlar kutubxonalari, tibbiyot kutubxonalari va bolalar kutubxonalari faoliyat yuritadi.

Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarni saqlash xarajatlariga 2025- yilda Davlat budjetidan **293,1 mlrd soʻm** mablagʻ ajratildi.

Shuningdek, respublikada 15 ta koʻzi ojizlar kutubxonalari, 11 ta tibbiyot kutubxonalari va respublika bolalar kutubxonasi faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, **30 nomdagi “Brayl” yozuvidagi adabiyotlar, 30 nomdagi** audio kitob, **3 ta** audiospektakl va **1 ta “Bizlarni tushunishmaydi”** qisqametrajli film tiflosharhi yaratildi.

Bundan tashqari, **8 ming nusxada** adabiyotlar, **12 315 ta** gazeta va jurnallarning elektron katalogi yaratildi.



Madaniyat vazirligi tasarrufidagi **51 ta** konsert-tomosha muassasalari tomonidan 2025-yilda **50,5 ming ta** konsert-tomosha tadbiri tashkil etilgan boʻlib, mazkur tadbirlarga **12 million nafarga yaqin** aholi qamrab olindi.



Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi mahallalarda olimlar, yozuvchi va shoirlar, sanʼat va madaniyat sohasi vakillari ishtirokida Alisher Navoiy tavalludining 584-yilligi munosabati bilan **“Nazm va navo”** kechasi, **“Madaniyat va sanʼat”** haftaligi, **“Mavsum xitlari”**, **“Filarmoniya shou”** nomli gala-konsert, **“Vatan manzumasi”** nomli adabiy-maʼrifiy tadbirlar tashkil etildi.



“Navro‘z sadolari” XI-xalqaro festivali, IV Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali, “Damli sozlar navosi” orkestrlar ijrochiligi festivali, 63 xalqaro Gullar festivali, “Xalqaro hunarmandchilik” festivali, “Classic music fest in Tashkent”, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro maqom musiqa festivallari yuqori saviyada tashkil qilindi.

Shuningdek, **“Navro‘z sadolari”** milliy cholg‘ular ko‘p ovozli ansambl va orkestrlarining **XI xalqaro musiqa festivali**, Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Tojikiston hamda Qirg‘iziston san‘at vakillari ishtirokida **Navro‘z bayrami** munosabati bilan konsert dasturi, Toshkent shahrida **Parlamentlararo ittifoqining 150-yubiley assambleyasi** hamda **Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali** kabi **9 ta xalqaro festival** tashkil qilindi.

Respublikamizning hududlarida **73 ta “Madaniyat kunlari”**, 11 ta hududda taniqli san‘atkorlar ishtirokida **22 ta “Madaniyat karvoni”** shaklida konsert dasturlari o‘tkazildi hamda **6 ta “Maqomni birga kuylaymiz”** tadbirlari amalga oshirildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Navoiy, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 8 ta “Yulduz bilan sayohat” loyihasi amalga oshirildi.

Bundan tashqari, **12 ta** tanlov va festival, shundan, **2 ta** xalqaro darajada o‘tkazildi. Ularga **1 200 dan ortiq ijodkor yoshlar** qatnashgan. Shundan, **175 nafari** g‘olib va sovrindor bo‘ldi.

Teatrlarda **12 ming ta** spektakl namoyish etilib, ularga **4 million nafardan** ortiq tomoshabin tashrif buyurdi, **13 nafar teatrshunoslar va san‘atshunoslarning** mahorat maktablari tashkil etildi.

“Eng yaxshi pyesalar” va **“Eng yaxshi tarjima asarlari”** tanlovlari o‘tkazildi, teatr tanqidchilari va dramaturglar klubi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, bitiruvchilarning **4 ta** bitiruv malakaviy ishlari uchun davlat buyurtmasi berildi.



Shu bilan birga, **179 ta** yangi spektakl sahnalashtirilib, ular orasida **“Ikki daho”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy”, “Matonat”, “Imom Termiziy”, “Uyg‘on bolam”, “Sayyorani asraylik”, “Millat fidoiysi”** kabi milliy, zamonaviy va tarixiy ruhdagi sahna asarlari alohida o‘rin egalladi. Ushbu spektakllar orqali xalqimizning boy tarixi, buyuk allomalar merosi, milliy qadriyatlar va zamonaviy hayot muammolari badiiy talqin etildi.

Kinematografiya sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida **2025-yil davomida** davlat buyurtmasi asosida badiiy, hujjatli, animatsion filmlar va seriallar ishlab

chiqarish, “Tirik tarix” dasturi loyihasi doirasida tarixiy filmlar suratga olish va boshqa soha bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirish uchun **sohaga 193 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi.



Jumladan, davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari uchun **111 mlrd so‘m**, “Tirik tarix” dasturi doirasida **70 mlrd so‘m** miqdoridagi mablag‘lar ajratildi.

Ushbu mablag‘lar hisobidan jami **41 ta** badiiy filmlar, **30 ta** hujjatli film va “Yangi O‘zbekiston kinosolnomasi”ning **12 ta soni**, **6 ta** badiiy-publitsistik film, **6 ta** qisqa metrajli filmlar, **13 ta** animatsion filmlar, **4 ta** bolalar hajviy kinojurnali, hamda dublyaj, subtitr va **26 ta** ijtimoiy roliklar ishlab chiqarildi.

Shuningdek, milliy seriallarni qo‘llab-quvvatlash uchun **12 mlrd so‘m** miqdorida subsidiya mablag‘lari yo‘naltirildi.

Kinematografiya agentligi tomonidan 2025-yilda **2024-yildan** o‘tgan va **2025-yilda** ishlab chiqarilgan kinoloyihalar yo‘nalishida **201 ta** kinomahsulot, shundan **30 ta badiiy film**, **18 ta hujjatli**, **29 ta qisqa metrajli**, **49 ta animatsion** filmlar, shuningdek **28 ta kinojurnal** va **47 ta videorolik** ishlab chiqarish ishlari yakunlanib, keng namoyishiga ruxsat berilgan.

“**Tirik tarix**” dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–209-son qarori bilan “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi tasdiqlandi, dasturga **21 ta badiiy** va **33 ta badiiy-publitsistik** filmlar kiritildi hamda dastur ijrosini muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish uchun Milliy komissiya va Milliy kengash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tarix instituti, Yozuvchilar uyushmasi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlikda **2025-yil 5-26-sentabr** kunlari filmlarni yaratishda ishtirok etuvchi kinoijodkorlar uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil etildi va **50 dan ortiq** darslar o‘tkazildi

Xorijiy mamlakatlar, jumladan, **Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Vengriya, Tojikiston, Hindiston, Pokiston** kabi davlatlar bilan jami **15 ta film** bo‘yicha hamkorlik kelishuvlari va shartnomalar imzolandi.



“**Bahodir Yalangto‘sh**”, “**Maxtumquli**”, “**Ulug‘ Amir va donna Mariya**”, “**Ajiniyoz**” filmlari xalqaro kinofestival va kino taqdimotlarda mukofotlandi.

Ma‘lumot uchun: “**Maxtumquli**” filmi Turkmanistonda o‘tkazilgan “**Qo‘rqut ota**” IV Xalqaro kinofestivalida “**Eng yaxshi film**”, Turkiyada tashkil etilgan II Turon Xalqaro kinofestivalida “**Eng**

yaxshi o'zbek filmi" mukofotlari bilan taqdirlandi. **"Bahodir Yalangto'sh"** filmi – "Oltin Humo" milliy kino taqdimotida **"Eng yaxshi film"** mukofotiga sazovor bo'ldi.

2025-yilning **21-yanvar kuni** TURKSOY xalqaro tashkilotining Doimiy Kengashi tashkilotchiligida AQSHning Nyu-York shahrida **"Maxtumquli Firog'iy"** badiiy filmining taqdimoti bo'lib o'tdi.

7-9-fevral kunlari Hindistonda tashkil etilgan "Guwahati Asian Film Festival"da postanovkachi rejissyor Jamshid Narziqulovning "House" badiiy filmi ishtirok etdi.

24-27-mart kunlari "Fransuz tili filmlari festivali" o'tkazildi. Tadbirda Fransiya, Ruminiya, Shvetsariya elchilari shuningdek, O'zbekistondagi xorijiy diplomatik korpus vakillari, keng jamoatchilik va OAV vakillari ishtirok etishdi.

22–27-may kunlari Londondagi Lumiere kinoteatrda bo'lib o'tgan **"Yevroosiyo Ijodiy Gildiyasi"** kinofestivali (ECG Film Festival)da **"Aydinlar"** badiiy filmi **"Eng yaxshi badiiy film"** nominatsiyasini qo'lga kiritdi.



2025-yilning **3–7-iyul kunlari** Xitoy Xalq Respublikasining Chongqing shahrida o'tkazilgan Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro kinofestivalida O'zbekiston delegatsiyasining ishtiroki ta'minlandi.

Bunda, rejissyor Ayub Shahobiddinovning "Bahorni quvib" nomli badiiy filmida bosh rolni ijro etgan taniqli aktrisa Ra'no Shodiyeva **"Eng yaxshi aktrisa"** nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.

6–10-avgust kunlari Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida o'tkazilgan II Xalqaro "Antares" kinofestivalida "Bahorni quvib" badiiy filmi uchta nominatsiya g'olibi bo'ldi. Xususan, **"Eng yaxshi film" (Gran-pri)**, **"Eng yaxshi ssenariy" (Erkin A'zam)**, **"Eng yaxshi ikkinchi plandagi rol uchun" diplom (Anvar Kartayev)** bilan taqdirlandi.

5–9-sentabr kunlari Tatariston poytaxti Qozon shahrida "Altin Minbar" Xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. Ushbu kinofestivalda **"Maxtumquli Firog'iy"** filmi **"Rossiya Islom olami" yo'nalishining asosiy mukofotini** qo'lga kiritdi.

12–17-sentabr kunlari Bolgariyada Televideniye, kino va internet kommunikatsiyalari Akademiyasi (ATKIK) ning "Slavyan ertagi" XIII - xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. Bunda **"Maxtumquli Firog'iy"** nomli badiiy filmi **Kino-telefestival bosh mukofoti "GRAN-PRI"**ga sazovor bo'ldi.

31-oktabr - 7-noyabr kunlari Minsk shahrida **"Lictapad" XXX Minsk** xalqaro kinofestivali bo'lib, bunda bir guruh o'zbek kino ijodkorlari ishtiroki ta'minlandi.

12–21-noyabr kunlari Misrning Qohira shahrida bo‘lib o‘tgan **“46-Qohira xalqaro kinofestivali”**da Rashid Malikovning **“Paxta”** filmi namoyish etildi.



20-28-noyabr kunlari Hindistonning Goa shahrida **“56- Goa xalqaro kinofestivali”** (“Jahon kinosi” doirasi)da hamda **1-3-dekabr kunlari** Eron Islom Respublikasining Sheroz shahrida bo‘lib o‘tadigan **“Fajr” 43-Xalqaro kinofestivalida** Ayub Shahobiddinovning **“Bahorni quvib”** filmi ishtirok etildi.

Kinematografiya agentligi tomonidan bir qator ijodiy uchrashuvlar, filmlar taqdimoti va namoyishlari, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilib kelinmoqda. 2025- yil davomida respublika bo‘ylab **“Biz bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanmiz!”** shiori ostida o‘tkazib kelinayotgan madaniy-ma’rifiy **“Kinokarvon”** ijodiy loyihasi doirasida **38 ta** milliy film namoyishlari, **96 ta** tadbir tashkil etilib, uning doirasida ijodiy uchrashuvlar uyushtirilib **42 mingga yaqin** aholi qamrab olindi.

Hisobot davrida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va uning tizim tashkilotlariga **866,8 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.



Hisobot davrida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joylardagi tashriflari va turli rasmiy hujjatlar sharhlari, turli xil mavzudagi ko‘rsatuv hamda tok shoular tayyorlash bilan bir qatorda **“O‘zbektelefilm”** DM tomonidan **“O‘zbekiston 24”** ijodiy birlashmasi DM buyurtmasiga asosan **10 qismlik “Bobomning qilichi”**, **“Mahalla”** teleradiokanali DM buyurtmasiga asosan **30 qismlik “Kuryer”**, **“Yoshlar”** ijodiy birlashmasi AJ buyurtmasiga asosan jami **72 qismdan iborat “Sarhad”, “Sotilgan yurak” va “Qasos”** teleseriallari hamda **206 qism bo‘lgan** turli xil mavzudagi telenovellalar tayyorlanib hammasi bo‘lib jami **212 soat** mahsulotlar efirga uzatilgan.

Shu bilan birga, futbol musobaqalarini yoritish uchun ko‘chma televizion stansiyasini sotib olish xarajatlari uchun **107,9 mlrd so‘m** hamda **“O‘zbekiston 24”** va **“Mahalla”** teleradiokanallarini respublika hududida efirga uzatishni to‘liq HD formatga o‘tkazish xarajatlarga **20 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi.

Madaniy meros agentligi tasarrufidagi madaniy meros obyektlarida restavratsiya, tiklash ishlarini amalga oshirish xarajatlari uchun 2025-yilda **123,1 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Shuningdek, Davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun **6,2 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

2025-yilda **150 ta** madaniy meros obyektlarida restavratsiya, ta'mirlash-tiklash ishlari uchun hamda **105 ta** loyiha smeta hujjatlarini tayyorlash ishlari uchun shartnomalar tuzildi.

O'z navbatida, **60 ta** madaniy meros obyektlarining loyiha hujjatlari Ilmiy-ekspert kengashi tomonidan ko'rib chiqishga taqdim etilgan hamda ekspertlar kengashining ijobiy xulosasi olingan. Mazkur madaniy meros obyektlarida bugungi kunda restavratsiya, ta'mirlash tiklash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, Samarqand viloyatida **“Qo'sh hovuz”** masjidi devor yuzalarida ganch suvoq ishlari amalga oshirilib, ganch bralar o'rnatildi, xonoqoh ichidagi pollar to'rtburchak g'isht bilan qoplandi, tashqi devor g'isht yuzalari tozalanib choklari angop qilib to'ldirildi. Tom qismi to'lig'icha profnastil tunukalar bilan qoplanib tom ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Toshkent shahrida joylashgan **“Ko'kaldosh”** madrasasida restavratsiya va ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilmoqda. Tarixiy obidaning asl qiyofasini saqlab qolish hamda uni kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida mutaxassislar tomonidan bir qator tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Madrasa devorlarida izvestnyak (ohaktosh) terish ishlari bajarilmoqda hamda yuzalar angob bilan qoplanib, tarixiy me'moriy ko'rinishiga mos ravishda qayta ishlanmoqda.

Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida joylashgan **Hammom** binosida bezak ishlari hamda pardozlash ishlari bajarilmoqda. Shuningdek, inshootning muhim me'moriy qismlaridan biri bo'lgan gumbaz qismi ta'mirlanib, qayta ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlar tarixiy obidaning mustahkamligini ta'minlash va uning estetik ko'rinishini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Namangan viloyatidagi **“Xotira va qadrlash uyi”** (Madaniy meros boshqarmasi) obyektida fasad qismida g'isht terish ishlari bajarilmoqda, binoni tom qismi ta'mirlandi, pol qismlari almashtirildi, binoni ichki suvoq va pardoz ishlari amalga oshirildi.

Buxoro viloyatida joylashgan **“Bahovuddin Naqshband”** majmuasining portal qismida mayolika bezaklarini pardozlash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, romlar atrofi to'ldirilib, bezak qismlari tarixiy uslubga mos ravishda tiklanmoqda.

Surxondaryo viloyatidagi **“So'fi Olloyor”** masjidi yo'laklari va darvozaxonaga kirish yo'llariga tosh yotqizildi. Tom qismi ta'mirlandi va masjid ustunlari almashtirildi. Hozirda ichki qismiga g'isht yotqizish ishlari amalga oshirildi.

Xorazm viloyatidagi **“Anushaxon hammomi”** obyektida beton plitani demontaj ishlari bajarildi hamda eski kafellar demontaj qilindi.



Bundan tashqari, Namangan viloyati Kosonsoy tumanida joylashgan Yusufxon Eshonto'ra muzeyi, Sirli masjid, Baliq mozor, Xotira va qadrlash uyi

uchun tayyorlanayotgan ayvon elementlari ustida ham ishlar olib borilmoqda. Ushbu jarayon muzey binosining me'moriy ko'rinishini boyitish hamda tarixiy muhitni yanada mukammal aks ettirishga xizmat qiladi.


Toshkent shahrida joylashgan **“Ko'kaldosh”** madrasasi



Madaniy meros obyektlarida amalga oshirilayotgan restavratsiya
va ta'mirlash-tiklash ishlari



Sport sohasi



Sport sohasini rivojlantirish — jamiyat salohiyati, yoshlar salomatligi va milliy g'ururni yuksaltirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Davlat budjetidan yo'naltirilayotgan mablag'lar orqali zamonaviy infratuzilma barpo etilmoqda, sportchilarimiz xalqaro maydonlarda yurtimiz sharafigi munosib himoya qilmoqda.

2025-yilda **sport sohasiga** Davlat budjetidan **4 190,9 mlrd so'm** (2024-yilga nisbatan **1 009,7 mlrd so'm** yoki **31,7 foizga ko'p**) mablag' ajratildi.

Shundan, respublika budjetidan **1 609,1 mlrd so'm** hamda mahalliy budjetlar hisobidan **2 281,8 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirilgan.

Bunda:

ish haqi va ijtimoiy soliq to'lovlari — **2 086 mlrd so'm**;

boshqa xarajatlar — **2 104,9 mlrd so'm**, shundan rivojlantirish dasturlari xarajatlari — **1 020,8 mlrd so'm**;

Shuningdek, sport sohasiga ajratilgan mablagʻlarni yoʻnalishlar kesimida quyidagi jadval orqali koʻrish mumkin.

12-jadval

Xarajatlar yoʻnalishi	Summa (mlrd soʻm)	Ulushi (foizda, %)
Sport maktablarini saqlash xarajatlari	1 546,9	36,9
Ixtisoslashtirilgan sport maktablarini saqlash xarajatlari	501,3	12,0
Oliy sport mahorat maktablarining saqlash xarajatlari	156,2	3,7
Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari	122,8	2,9
Futbol maktablarini saqlash xarajatlari	53,0	1,3
Sport turlari boʻyicha mahorat maktablarini saqlash xarajatlari	108,9	2,6
Chavandozlar maktablarini saqlash xarajatlari	43,4	1,0
Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining hududiy kalendar rejasi	97,6	2,3
Oʻzbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati saqlash xarajatlari	20,8	0,5
Federatsiya va assotsiatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash va boshqa xarajatlar	150,4	3,6
Rivojlantirish dasturlari	1 020,8	24,4
Boshqa xarajatlar	368,8	8,8

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sport sohasiga doir rivojlantirish dasturlariga **2025-yilda** jami **1 020,8 mlrd soʻm** mablagʻ moliyalashtirilgan. Jumladan:

1. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining **respublika kalendar rejasi** uchun **259,4 mlrd soʻm** mablagʻ moliyalashtirildi.

Shundan:

- sport tadbirlari uchun **115,7 mlrd soʻm**;
- Sport maktablarni sport jihozlari bilan taʼminlash xarajatlari uchun **48 mlrd soʻm**;
- Jahon chempionatlarining gʻolib va sovrindorlari va ularning trenerlarini taqdirlash xarajatlari uchun **29,6 mlrd soʻm**;
- Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasini qoʻllab-quvvatlash xarajatlari uchun **25 mlrd soʻm**;

- jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish xarajatlari uchun **11,5 mlrd so‘m**;
- O‘zbekiston terma jamoa a‘zolari sport kiyimlari bilan ta‘minlash xarajatlari uchun **10,3 mlrd so‘m**;
- O‘zbekiston kurash federatsiyasini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun **10 mlrd so‘m**;
- “Jismoniy tarbiya va sport vazirligi a‘lochisi” ko‘krak nishoni, sport vazirligining logotipi tushirilgan ko‘krak nishoni belgisini (ping) tayyorlash xarajatlari uchun **3,3 mlrd so‘m**;
- olimpiya va paralimpiya o‘yinlari g‘olibi bo‘lgan sportchilarga umrbod oylik to‘lovi xarajatlari uchun **3,1 mlrd so‘m**;
- boshqa xarajatlar **2,9 mlrd so‘m**.



Ma‘lumot uchun: 2025-yilda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq, olimpiya sport turlari bo‘yicha **jami 835 ta** sport tadbirlari, shundan **311 ta** O‘zbekiston chempionati va kuboklari, **223 ta** mahalliy o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari, **27 ta** xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari, **274 ta** xalqaro sport musobaqalarida terma jamoa a‘zolarining ishtiroki ta‘minlandi.

Shuningdek, **2025-yilda** sport turlari bo‘yicha bir qator **Jahon va Osiyo chempionatlari** o‘tkazildi. Xususan:

Jahon chempionatlarida Olimpiya sport turlari bo‘yicha terma jamoamiz **jami 113 ta** (**26 ta** oltin, **35 ta** kumush, **52 ta** bronza) medallarni qo‘lga kiritishdi.

Osiyo chempionatlarida terma jamoamiz vakillari **jami 648 ta** (**202 ta** oltin, **198 ta** kumush, **248 ta** bronza) medallarni qo‘lga kiritishdi. Jumladan:

Jahon chempionatlarida 16 ta olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha terma jamoamiz vakillari **jami 177 ta** (**53 ta** oltin, **63 ta** kumush, **61 ta** bronza) medallarni qo‘lga kiritdi. Taqdirlash uchun **1 216,9 ming AQSH doll.** mablag‘ ajratildi.

Surdosiy va Okeaniya o‘yinlarida 3 ta olimpiya sport turlari bo‘yicha terma jamoamiz vakillari **jami 11 ta** (**1 ta** oltin, **6 ta** kumush, **4 ta** bronza) medallarni qo‘lga kiritishdi. Taqdirlash uchun **28,5 ming AQSH doll.** mablag‘ ajratildi.

IX qishki Osiyo o‘yinlarida 1 ta olimpiya sport turlari bo‘yicha terma jamoamiz vakillari **jami 1 ta** (**1 ta** oltin) medalni qo‘lga kiritdi. Taqdirlash uchun **30 ming AQSH doll.** mablag‘ ajratildi.

III yoshlar Osiyo o'yinlarida 13 ta olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha terma jamoamiz vakillari jami 81 ta (37 ta oltin, 16 ta kumush, 28 ta bronza) medalni qo'lga kiritdi. Taqdirlash uchun 182 ming AQSH doll. mablag' ajratildi.

VI Islom birdamlik o'yinlarida 17 ta olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha terma jamoamiz vakillari jami 96 ta (29 ta oltin, 35 ta kumush, 32 ta bronza) medalni qo'lga kiritdi. 628,5 ming AQSH doll. mablag' ajratildi.

2. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish xarajatlari uchun 540 mlrd so'm mablag' moliyalashtirildi. Jumladan:

– **300 mlrd so'm** – Sport obyektlarini qurilish, rekonstruksiya qilish, joriy ta'mirlash va jihozlash xarajatlariga;

Ma'lumot uchun: Mazkur 300 mlrd.so'm mablag' 2024-yil 25-noyabr kuni Milliy olimpiya qo'mitasi Bosh assambleyasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan berilgan topshiriqlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Milliy Olimpiya qo'mitasi Raisi Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholining jismoniy faolligini oshirishga bag'ishlangan videoselektorda berilgan 8-sonli topshiriqqa asosan ajratilgan.

– **119,7 mlrd so'm** – sport tadbirlarini tashkil etish xarajatlariga;


– **43,2 mlrd so'm** – Sportchi va trenerlarning stipendiya xarajatlari;

– **34 mlrd so'm** – O'zbekiston Milliy Olimpiya va paralimpiya qo'mitalari va federatsiyalar (uyushmalar)ning ma'muriy ustav xarajatlariga (ish haqi va saqlash xarajatlari);

– **32,4 mlrd so'm** – Xorijiy mutaxassislarining ish haqi va boshqa xarajatlari;

– **8,3 mlrd so'm** – Terma jamoa sportchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va farmakologiya xarajatlari.

– **2,5 mlrd so'm** – Sport inventarlari va anjomlarini xarid qilish xarajatlar uchun yo'naltirildi.



Ma'lumot uchun: O'zbekistonda bir qator nufuzli xalqaro sport musobaqalari, sport tadbirlari, texnik kurslar, uchrashuvlar o'tkazildi. Jumladan, 26 ta Olimpiya sport turlari bo'yicha milliy terma jamoa a'zolarining 261 ta mahalliy va 132 ta xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inlarida, 73 ta Jahon kubogi va chempionatlarida, 41 ta Osiyo kubogi va

chempionatlarida, 94 ta xalqaro turnir va musobaqalarda ishtiroki ta'minlanib, jami 542 ta medallar (164 ta oltin, 159 ta kumush va 219 ta bronza) qo'lga kiritildi.

3. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun xarajatlari uchun **28,5 mlrd so'm**;

4. “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib bo'lgan hamda sport infratuzilmasi rivojlanmagan mahallalarda **sport maydonchalarini barpo etish** dasturini amalga oshirish xarajatlari uchun qariyb **84 mlrd so'm** budjet mablag'lari sarflangan.

Mazkur dastur bo'yicha 2025-yilda jami **378 ta** sport maydonchalarini qurib foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2025-yilda **406 ta** (*rejaga nisbatan 28 ta ko'p*) sport maydonchalari qurib foydalanishga topshirilgan.



5. Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash xarajatlari uchun **11,1 mlrd so'm**;

6. O'zbekiston futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi uchun **27,9 mlrd so'm**;

7. Sport maktablari tibbiyot xonalarini zamonaviy asbob-uskunalar, zamonaviy o'quv adabiyotlarini chop etish va xarid qilish va maxsus sport kiyimlari bilan ta'minlash xarajatlari **20,0 mlrd so'm**;

8. 2026-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan **46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga** kompleks tayyorgarlik ko'rish xarajatlari uchun **50 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

Sog'liqni saqlash sohasi




Hurmatli Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda sog'lom jamiyatni shakllantirish hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu yo'nalishda tibbiyot muassasalari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanib bormoqda.

Ayniqsa, davlat tibbiy sug'urta tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi sog'liqni saqlash xizmatlarini moliyalashtirishning yangi mexanizmini shakllantirib, tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda aholiga adolatli, shaffof va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasiga 2025-yilda Davlat budjetidan **43,3 trln so'm** yoki 2024-yilga nisbatan **7,2 trln so'mga** ko'p mablag'lar ajratildi.

39-rasm

Sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)



O'z navbatida, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga **22 924,8 mlrd so'm** transfert ajratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, 2024-yilda Sirdaryo viloyati va Toshkent shahridagi tibbiyot muassasalari Davlat tibbiy sug'urta tizimi asosida moliyalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-sonli Qaroriga asosan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlaridagi barcha davlat tibbiyot muassasalarida;
- barcha viloyatlarning hudud darajasidagi davlat tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishning yangi mexanizmi asosida mablag' bilan ta'minlash joriy etildi.

2025-yilda Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi bilan qamrab olingan tibbiyot muassasalari tomonidan **21 601,9 mlrd so'm** mablag' sarflangan.

Shundan:



17 201,8 mlrd so'm – xodimlar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq (1-2 guruh) xarajatlarga;



1 527,8 mlrd so'm – dori darmon vositalari sotib olish bilan bog'liq xarajatlarga;



515,5 mlrd so‘m – bemorlarning ovqatlanishi bilan bog‘liq xarajatlarga;



488,4 mlrd so‘m – kommunal xizmatlar to‘lovlariga;



264 mlrd so‘m – tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish uchun sarflangan.

2025-yilda Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalariga qatnovlar soni 12 foizga oshib, tor soha mutaxassislariga murojaatlar soni **12 foizga**, shifoxonalarda davolangan bemorlar soni **18 foizga** kamaydi.

Hisobot davrida imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga elektron yo‘llanma asosida ko‘rsatilgan tibbiy yordam xarajatlarini qoplash maqsadida Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan **14 ta** respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, **21 ta** respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, **48 ta** hududiy tibbiyot muassasalari va **72 ta** nodavlat tibbiyot tashkilotlari (*jami 155 ta tashkilot*) bilan jami **1 232,1 mlrd so‘m** qiymatdagi shartnomalar imzolaniib, **101,6 ming** nafar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar uchun jami **1 231,8 mlrd so‘m** mablag‘ to‘lab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sog‘liqni saqlash sohasiga doir davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlarga 2025-yilda **2 134,1 mlrd so‘mga** ijrosi ta‘minlangan.

Jumladan,



Bolalarni vaksinatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarga **241 mlrd so‘m** ajratildi.

Ushbu mablag‘lar hisobidan respublika bo‘yicha immunizatsiya milliy dasturiga asosan 2025-yilda 1 044 ming nafar bolalar vaksina bilan emlangan. Davolash-profilaktika muassasalarini emlash punktlariga 13 turdagi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun vaksinalarni zaxirasi yaratildi.

Respublika bo‘yicha profilaktik emlash qamrovi rejalashtirilgan kontingent soniga nisbatan 94 foizni tashkil etdi.



Onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish dasturi 2025-yilda **158,2 mlrd so‘m** mablag‘ yo‘naltirildi.

Dastur doirasida onkologik kasalliklarni I-II-bosqichlarda erta aniqlash ko‘rsatkichlari darajasi 50,1 foizga, onkologik bemorlarning 5 yillik yashovchanlik ko‘rsatkichini 41 foizga yetkazishga erishildi, kasallik erta aniqlangan bemorlar soni 14 130 nafarni tashkil etdi.



Onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash dasturi 2025-yilda 117,3 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Hisobot davrida 250 nafar chaqaloqlarda fenilketonuriya va gipotireozni aniqlashga erishilgan, 4 895 nafar homiladorlar ayollarning homilasida tug‘ma nuqsonlar aniqlashga erishilgan, 765 666 nafar chaqaloqlarni neonatal skriningdan o‘tkazildi, 264 289 nafar homilador ayollarni selektiv prenatal skriningdan o‘tkazilishi ta‘minlandi.



Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini shakllantirish uchun **55,5 mlrd so‘m** ajratildi.

Dastur doirasida, 31 nafar og‘ir tashxisli, ilik ko‘chirib o‘tkazish, a‘zolar transplantatsiyasi, o‘zak hujayralar bilan davolash, og‘ir darajadagi skolioz, og‘ir darajadagi kuyish asoratlari, ko‘z kasalliklari va boshqa davolab bo‘lmaydigan bemor bolalar davolanish uchun nufuzli chet el klinikalariga yuborildi.

Bundan tashqari, 51 nafar og‘ir tashxisli bemor bolalarda jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi.



Nefrologiya va gemodializ yordami ko‘rsatish uchun xarajatlarini moliyalashtirish uchun **300,3 mlrd so‘m** ajratildi.

Gemodializ muolajasini olayotgan bemorlarni yashash davomiyligini uzaytirish ko‘rsatgichi 10 yilga uzaytirilgan yoki belgilangan reja 100 foizga bajarilgan.


Gemodializ muolajasiga muhtoj 11 ming nafar bemorlarga gemodializ yordami ko‘rsatilgan.

Dasturga muvofiq yana bir bevosita erishiladigan natija sifatida gemodializ muolajasini o‘tkazishga sarflanadigan materiallar sonini 11 dona yetkazilishi ta‘minlangan.



Neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o‘tkazish uchun **60,1 mlrd so‘m** yo‘naltirildi.

Dastur doirasida 340 dona koxlear implant sotib olinib, 340 dona koxlear implantatsiya bolalarga jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi.



Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalliklar tarqalishiga qarshi kurashish dasturi uchun **27 mlrd so‘m** ajratildi.

Buning natijasida, OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar soni 3 607 nafarni tashkil etib, reja ko‘rsatgichlariga nisbatan 160 nafarga kamaydi hamda OIV infeksiyasini profilaktika qilish va davolashda dori ta‘minoti 100 foizga ta‘minlandi.

Shuningdek, OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning umr davomiyligi bugungi kunda 24 yilni tashkil etmoqda (*rejada 12 – 15 yil belgilangan*).



Qon komponentlari zaxirasini yaratish maqsadida qon bilan ishlash xizmati muassasalarini zarur miqdordagi gemokonteynerlar bilan ta'minlash xarajatlariga **58,1 mlrd so'm** yo'naltirildi.



Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish dasturi bo'yicha **24,9 mlrd so'm** mablag' yo'naltirildi.



Endokrinologik kasalliklarning oldini olish, erta aniqlash va davolash chora-tadbirlariga ajratilgan mablag'lar dasturi bo'yicha **74,4 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

Natijada, qandli diabetning 1 va 2-turi bilan kasallangan bemorlarni insulin preparatlari bilan ta'minlash darajasi 100 foizni tashkil etdi.

Bunda, qandli diabetning 1 va 2-turi bilan kasallangan bemorlar soni 103,5 ming nafarni va qandli diabetning 1-turi bilan kasallangan bolalar va o'smirlar soni 5,2 ming nafarni tashkil etgan.



Buyrak va jigar transplantatsiyasi jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash dasturi bilan bog'liq xarajatlarga **127 mlrd so'm** mablag'lar sarflandi.

Buyrak va jigar transplantatsiyasi jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlar dori vositalari bilan 100 foiz ta'minlangan.

Respublikada buyrak va jigar transplantatsiyasi jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan 4 925 nafar bemorlar mavjud.



“Spinal mushak atrofiyasi” tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish dasturi uchun **200 mlrd so'm** budget mablag'lari ajratildi. Natijada bemor bolalarning **201 nafari** bepul dori vositalar bilan ta'minlandi.



Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish xarajatlari uchun **300 mlrd so'm** ajratildi.



Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish dasturi bo'yicha hisobot davrida **50 mlrd so'm** ajratildi.

Hisobot davrida sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va vazirlik tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining 361 nafar xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 75 nafar

fuqarosi oliy ta'limning o'quv-ordinatura dasturlari bo'yicha o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni tashkil etildi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardan 50 nafar xorijiy mutaxassislar jalb qilishga erishildi.



Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlariga **50 mlrd so'm** yo'naltirildi.

Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari

Mamlakatimizda kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shunga muvofiq ravishda ularning turmush darajasini oshirish va barqaror daromad manbalarini yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2025-yilda davlat budjeti mablag'lari hisobidan **kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari** uchun **14 490,7 mlrd so'm** mablag' ajratildi.


Jumladan, hisobot davrida **674 mingga yaqin** kam ta'minlangan oilalarga **4 195 mlrd so'm**, shundan **649 mingga yaqin** oilalarga **4 072,7 mlrd so'm**lik bolalar nafaqasi va **25 mingdan ortiq** oilalarga **122,3 mlrd so'm**lik moddiy yordam to'lab berildi.

40-rasm



2023-2025-yillarda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam to'lovlari (mln so'mda)

Hudud nomi	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Qoraqalpog'iston R.	812 555	484 015	312 241
Andijon viloyati	1 222 840	737 582	296 609
Buxoro viloyati	493 836	299 166	162 893
Jizzax viloyati	621 897	369 083	222 991
Qashqadaryo viloyati	1 518 526	866 763	501 843
Navoiy viloyati	249 584	160 901	100 787
Namangan viloyati	1 334 692	814 414	411 581
Samarqand viloyati	1 544 541	905 211	504 762
Surxondaryo viloyati	1 341 120	683 441	484 014
Sirdaryo viloyati	324 478	204 019	101 353
Toshkent viloyati	551 452	393 319	255 750
Farg'ona viloyati	1 369 040	904 855	474 823
Xorazm viloyati	703 649	409 650	248 526
Toshkent shahri	204 802	147 507	118 462



Ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni yuqori bo'lgan hududlarda aholining bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, oilalarni kam ta'minlangan deb e'tirof etuvchi mezonlarga ijtimoiy adolatlik tamoyillari asosida o'zgartirishlar kiritilishi hamda nafaqa to'lovlari manzilliligi ta'minlanishi natijasida ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalarning soni jami oilalarga nisbatan qariyb **6,6 foizni** (*qamrov darajasi*) tashkil etdi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasini yanada oshirish hamda ularni ish bilan ta'minlagan xususiy korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentabrdagi 515 - sonli qarori qabul qilingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31- maydagi 314-sonli qarori qabul qilinishi natijasida 2025-yilning 24-iyunidan boshlab Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasining to'lab berilishi **yakka tartibdagi tadbirkorlik (YATT)** subyektlarida ishlovchi xotin-qizlarga ham tatbiq etilmoqda.

Mazkur qarorlar ijrosi doirasida 2025-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlovchi jami **12,3 ming nafar** ayollarga Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha **homiladorlik va tug'ish nafaqasi** to'lab berilib, korxonalarning **32,8 mlrd so'mlik** mablag'lari o'z ixtiyorida qoldirildi.

13-jadval

**Xususiy sektorda ishlovchi ayollarga to'lab berilgan
homiladorlik va tug'ish nafaqasi (mln so'm)**

T/r	Hudud nomi	Soni	Ajratilgan mablag'
	Jami	12 335	32 784,0
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	442	1 174,4
2	Andijon viloyati	754	2 005,5
3	Buxoro viloyati	542	1 440,7
4	Jizzax viloyati	273	725,7
5	Qashqadaryo viloyati	534	1 419,7
6	Navoiy viloyati	1 131	3 003,0
7	Namangan viloyati	453	1 205,5
8	Samarqand viloyati	527	1 400,3
9	Sirdaryo viloyati	195	518,0
10	Surxondaryo viloyati	302	802,0
11	Toshkent viloyati	2 974	7 906,2

12	Farg‘ona viloyati	1 251	3 327,8
13	Xorazm viloyati	462	1 229,8
14	Toshkent shahri	2 495	6 625,4

Nogironligi bo‘lgan **485 ming nafar** fuqarolarga 2025-yilda **5 830,4 mlrd so‘m** nafaqa to‘lovlari, shundan, bolalikdan nogironligi bo‘lgan **170 ming nafar** fuqaroga **2 034,9 mlrd so‘m** nafaqa to‘lovlari to‘lab berildi.

Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta‘minlash maqsadida ajratilgan **138,2 mlrd so‘m** mablag‘ hisobiga **119 ming dona**, shundan **36 ming dona** protez-ortopediya moslamalari va **83 ming dona** reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta‘minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida” Qonunining (O‘RQ-276, 27.12.2010-y.) 9-moddasiga asosan dafn etish uchun bir martalik nafaqa barcha vafot etgan fuqarolarning yaqinlariga to‘lanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-sonli qaroriga asosan dafn etish uchun nafaqa to‘lovini FHDYO bo‘limi tomonidan berilgan o‘lim haqidagi gerbli guvohnoma hamda murojaat etgan fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida Ijtimoiy himoya milliy agentligiga elektron so‘rov yuborish orqali murojaat qilgan fuqaroning nafaqaga bo‘lgan huquqini tasdiqlagan holda amalga oshirilishi belgilangan.

Bunga ko‘ra, 2025-yilda **162,3 ming nafar** uchun **290,9 mlrd so‘m** mablag‘lar to‘lab berilgan.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi hamda Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan, shuningdek, reyestrlarga kiritilmagan, biroq moddiy ahvoli bo‘yicha kam ta‘minlangan oilalar mezonlariga to‘g‘ri keluvchi, oiladagi jon boshiga daromadi minimal iste‘mol xarajatlarining 1,5 barobaridan oshmaydigan oilalarga jami **64,5 mlrd so‘m** elektr energiyasi va tabiiy gaz bo‘yicha kompensatsiya to‘lab berildi.

Bundan tashqari, 2025-2026-yilgi isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamini qo‘shimcha moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2025-yil noyabr oyida Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga hamda “mahalla yettiligi” xulosasi asosida Ijtimoiy reyestrda kiritilmagan, biroq yordamga muhtoj **jami 1,2 million ga yaqin oilalarga 1 million so‘mdan jami 1 161,5 mlrd so‘m** bir martalik moddiy yordam ajratildi.

Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar



Mamlakatda aholini uy-joy bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash va yashash muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari doirasida 2025-yilda **2 133,6 mlrd so'm** mablag'lar moliyalashtirilgan.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagi "Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-26-son Farmoni bilan belgilangan aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida hisobot davrida ipoteka kreditlari bo'yicha **2 118,1 mlrd so'm** subsidiya to'lovlari moliyalashtirilib berildi.

Shundan, 2025-yilda ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalar to'lashning maqsadli ko'rsatkichlari doirasida 2025-yilda **30 ming** nafar fuqaroga taqdim etilgan ijobiy subsidiya xabarnomalar bo'yicha boshlang'ich badal to'lovlari uchun – **20 ming 894 nafar** fuqarolarga **626,8 mlrd so'm**;

2020-2024-yillardan o'tib kelayotgan foiz to'lovlari bir qismini qoplash uchun **91 ming** nafardan ziyod fuqarolarga **1 491,3 mlrd so'm** subsidiya mablag'lari to'lab berilgan.

Bundan tashqari, hisobot davrida tijorat banklari tomonidan 2025-yil aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan joylashtirilgan resurs hisobiga **46 mingdan** ziyod fuqarolarga **13,6 trln so'mlik** ipoteka kreditlari ajratilgan.

Bunda, respublika miqyosida eng ko'p ajratilgan ipoteka kreditlari Ipotekabank – 2 725,5 mlrd so'm, Agrobanki – 2 177,5 mlrd so'm, Xalq banki – 1 833,5 mlrd so'm, O'zmilliybank – 1 969,3 mlrd so'm, Biznesni rivojlantirish banki – 1 669,3 mlrd so'm, O'zsanoatqurilishbank banki – 937,9 mlrd so'm, (jamiga nisbatan 83,1 foiz) hamda eng kam ajratilgan kreditlar Trast bank – 82,6 mlrd so'm, Asaka bank – 170,4 mlrd so'm, Mikrocredit bank – 280,9 mlrd so'm, Orient Finans bank – 376,7 mlrd so'm, Hamkor bank – 317,0 mlrd so'm va Turon bank – 389,1 mlrd so'm (jamiga nisbatan 11,9 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiyot xarajatlari

Hisobot davrida iqtisodiyot sohasiga amalga oshirilgan xarajatlar **43,7 trln so'mni** yoki jami Davlat budjeti xarajatlarning **11,4 foizini** tashkil etdi. Jumladan:

- suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari – **10 trln so'm**;
- aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xarajatlari – **6,7 trln so'm**;
- tabiatni muhofaza qilish ishlariga – **264,5 mlrd so'm**;
- uy-joy kommunal ishlariga – **4,1 trln so'm**;

– ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan kompaniya zararlarini qoplash va joriy faoliyatini moliyalashtirishga – **7,0 trln so'm**.

41-rasm



Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish

2025-yilda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi tadbirlari uchun jami **4 330 mlrd so'm** mablag' yo'naltirildi.

14-jadval

Atrof muhitni muhofaza qilish uchun 2025-yilda amalga oshirilgan xarajatlar

T/R	Tadbir nomi	Summasi (mlrd so'mda)	Ulushi foizda
Jami		4 330,0	100
1	Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq xarajatlar	663,6	15,3
2	Ichimlik va oqova suv tozalash inshootlarini qurish va qayta ta'mirlash	2 116,0	48,9
3	O'simlik va hayvonot dunyosi muhofazasi. (qo'riqxonalar, tabiiy va milliy bog'lar, o'rmonlar)	616,5	14,2
4	Hayvonot va o'simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun xarajatlar	7,2	0,2
5	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi xarajatlar	141,1	3,3
6	"Yashil bog'" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil qilish uchun "Mening bog'im" loyihalarini moliyalashtirish	49,2	1,1

T/R	Tadbir nomi	Summasi (mlrd so'mda)	Ulushi foizda
7	Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar	149,1	3,4
8	Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlari	388,7	9,0
9	Yerlarni suv va shamol eroziyasidan saqlash	64,9	1,5
10	Yerlar rekultivatsiyasi	96,0	2,2
11	Orolbo'yida amalga oshirilayotgan ekologik tadbirlar	37,6	0,9



2025-yilda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va uning tizim tashkilotlarining xarajatlariga respublika budjetidan 1 882,1 mlrd so'm mablag' ajratilgan, shundan:

- **163,9 mlrd so'm** ish haqi xarajatlariga;
- **40,6 mlrd so'm** ijtimoiy soliq to'lovlariga;
- **1 677,6 mlrd so'm** boshqa xarajatlarga, shundan yangi tashkil etilgan "Umummilliy ekologik muammolarni bartaraf etish" maqsadli jamg'armasiga **900 mlrd so'm** mablag' yo'naltirilgan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasidagi rivojlantirish dasturlari doirasida hisobot davrida respublika budjetidan **443,4 mlrd so'm** moliyalashtirilgan.

a) O'rmon xo'jaligi agentligi tizimidagi xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash uchun 2025-yilda **38,9 mlrd so'm** yo'naltirildi.

Ushbu mablag'lar hisobiga, Agentlik tomonidan 2025-yilda o'rmon xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan **15 dona haydov traktori, 15 dona kultivator, 17 dona ekskavator, 17 dona suv tashuvchi avtotransport, 1 dona avtobus va 7 dona yuk tashuvchi** (kran manipulyator) hamda **23 dona** qishloq xo'jaligi mexanizmlari xarid qilingan.

b) "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hisobot davrida **141,1 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirilgan hamda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

– Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 87-F-sonli farmoyishga asosan Orol dengizining suvi qurigan tubida "yashil qoplamalar" barpo etish uchun **10 mlrd so'm** "Orol Agro" MCHJga o'tkazib berilgan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida **115 ming gektar** maydonda yashil qoplamalar barpo qilindi;

– “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Buxoro viloyatida **58,1 ming**, Navoiy viloyatida **61,6 ming** va Xorazm viloyatida **15 ming gektar** maydonda “yashil qoplamalar” barpo qilindi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024-yil 31- oktabr – 1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida Xatirchi tumani “Ko‘ksaroy” massivida kambag‘al oilalarga ajratib berish maqsadida, **50 gektar** yer maydonida yangi bog‘ tashkil etish uchun Agrosanoatni rivojlantirish agentligiga **5 mlrd so‘m** moliyalashtirib berildi;

– respublikaning turli hududlariga oliy darajadagi tashriflar davomida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida beriladigan topshiriqlar bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun **1,8 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Bundan tashqari, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi tegishli farmoyishiga asosan “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini amalga oshirish uchun mahalliy budjetlarga **49,2 mlrd so‘m** mablag‘ yo‘naltirilgan.

v) Cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarda cho‘llanish va qum ko‘chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o‘rmonzorlari barpo etish dasturi bo‘yicha hisobot davrida **64,8 mlrd so‘m** mablag‘lar o‘zlashtirilgan.

Dastur yuzasidan “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha shartnoma imzolangan.

Ishlab chiqilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan hisobot davrida **3 297 gektar** maydonda himoya o‘rmonzori barpo etish bo‘yicha **44 ta** o‘rmon xo‘jaliklari bilan shartnomalar imzolangan hamda to‘lovlar amalga oshirilgan.

g) Hayvonot va o‘simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun 2025-yilda **7,2 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan.

Jumladan:

Respublika hududidagi tanlab olingan iqtisodiy ahamiyatiga ega, tabiiy holda tarqalgan o‘simlik turlarning davlat kadastri ishlarini bajarish uchun Botanika instituti bilan **2,2 mlrd so‘mlik** shartnoma imzolaniib, 2025-yilda **2,1 mlrd so‘m** mablag‘ moliyalashtirildi hamda **70 tur** yovvoyi holda o‘suvchi istiqbolli xom-ashyobop dorivor, ozuqabop va texnik o‘simliklar kadastri shakllantirildi.



Shuningdek, Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bilan Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlari hududidagi iqtisodiy ahamiyatga ega hayvon turlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va kadastrini shakllantirish bo'yicha 2025-yilda **2,7 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirildi hamda Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlari hududidagi **91 turdagi** hayvon turlari kadastrini shakllantirildi.

Shu bilan birga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrining **10 ta** suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash ishlarini bajarish bo'yicha "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti bilan shartnomalar imzolanib, 2025-yilda **2,5 mlrd so'm** o'tkazib berildi.

d) Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash dasturi doirasida **149,1 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirildi.

Hisobot davrida **18 ta** poligonlarni rekultivatsiya qilish va tuproq qatlami bilan yopish yuzasidan pudratchi tashkilotlar bilan o'rnatilgan tartibda shartnomalar imzolanib, **7,9 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirildi.

Bundan tashqari, **11 ta hududda 14 ta** qayta yuklash stansiyasi uchun zarur bo'lgan bino-inshootlarni qurish hamda tegishli muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash yuzasidan **51,3 mlrd so'm** yo'naltirildi.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish tizimini muvofiqlashtirish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Respublika komissiyasi yig'ilishining 1-son bayonida chiqindi konteynerlarini tashishga mo'ljallangan, ilgakli transport vositalari sotib olish va **14 ta** chiqindilarni presslash uskunasini va chiqindilar uchun **4 tadan** konteyner xarid qilish uchun jami **89,9 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish borasida 2025-yilda quyidagi natijalarga erishilgan:

– O'rmon xo'jaliklari tomonidan Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasida **251,3 ming gektar**, tog'oldi va boshqa hududlarda **6,2 ming gektar** maydonida o'rmon barpo etish va qayta tiklash tadbirlari bajarildi.

– O'rmon tadbirlari uchun **1 535 tonna** cho'l va boshqa turdagi o'simliklar urug'lari tayyorlandi.

– Xo'jaliklarda jami **1 423 gektar** niholxona va ko'chatxonalar tashkil etildi.

– Hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda daraxt-butalarning **128,8 mln** tup nihol va ko'chatlari yetishtirildi.

– Cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida cho'llanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida **3 296 gektar** maydonda himoya o'rmonzorlari (ihota) barpo etildi.

– O‘rmon fondidagi bo‘sh turgan **700 gektar** yer uchastkalarini onlayn-auksion orqali jismoniy va yuridik shaxslarga ijaraga berish bo‘yicha lotlar shakllantirildi.

– Xususiy sektor subyektlarini keng jalb etish hisobiga asalari oilalari soni **170 ming** taga yetkazildi.


– O‘rmon fondi yerlarida **5 890 gektarda** dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyasi barpo etish ishlari amalga oshirildi.

Suv xo‘jaligi sohasi

Suv xo‘jaligi sohasida suv xo‘jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlariga hisobot davrida **9 965,2 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilgan bo‘lib, shundan **1 315,6 mlrd so‘m** ish haqi xarajatlari, **330,1 mlrd so‘m** ijtimoiy soliq to‘lovlari va **8 319,5 mlrd so‘m** boshqa xarajatlarga yo‘naltirilgan.

Suv xo‘jaligi tizimidagi nasos stansiyalari hamda sohadagi davlat-xususiy sherik shartlari asosida boshqaruvga berilgan obyektlar tomonidan hisobot davrida jami qiymati **6 340,1 mlrd so‘m** bo‘lgan **6 340,1 mln kVt.soat** (2024-yilda 6 511,7 mln kVt.soat) elektr energiyasi iste‘mol qilingan hamda hisobot davridan keyingi oy uchun oldindan to‘lovlar bilan birga jami **6 402,2 mlrd so‘m** kassa xarajati amalga oshirilgan.

42-rasm



Xususan, nasos stansiyalarining elektr energiyasi xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘lardan **5 029 mlrd so‘m** mablag‘lar yirik hisoblangan Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi, Namangan nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi, Amu-Surxon nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi, Amu-Buxoro mashina kanali Olot tuman boshqarmasi, Amu-Buxoro mashina kanali

Qiziltepa tumani boshqarmasi, Jizzax bosh nasos stansiyalari tomonidan foydalanilgan **5 029 mln kVt.soat** elektr energiyasi uchun yo‘naltirilgan.

Nasos va elektrodvigatellarni yangilash yo‘nalishi bo‘yicha

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Farmoni bilan 2025-yilda vazirlik tizimidagi nasos stansiyalarda xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan **150 ta nasos** va **166 ta elektrodvigatelni** yangilash rejalashtirilgan bo‘lib, 2025-yilda amalda **157 ta nasos** va **166 ta elektrodvigatel** xarid qilingan va o‘rnatilgan.

Energotejamkor qurilmalarni o‘rnatish yo‘nalishi bo‘yicha

2025-yilda **997 ta** yorug‘likdiod lampalar, **104 ta** chastota o‘zgartiruvchi (plavniy pusk) qurilmalari, quvvati **450 kVt** quyosh fotoelektr panellari, **27 ta** quyosh suv isitish qurilmalari, **117 ta** kondensator qurilmalari va **17,5 km** kabellar o‘rnatish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **1 443 ta (145%)** yorug‘lik diod lampalar, **165 ta (141%)** kondensator qurilmalari, **135 ta (130%)** chastota o‘zgartiruvchi (plavniy pusk) qurilmalar, **752 kVt (167%)** quyosh fotoelektr panellari, **27 ta (100%)** (**5 400 litr**) quyosh suv isitish qurilmalari va **19,8 km (113 %)** kabellar nasos stansiyalarga o‘rnatilgan.



Hisobot davri mobaynida “Agrosubsidiya” platformasi orqali kelib tushgan **1 472 nafar** paxta yetishtiruvchi talabgorning arizalari Suv xo‘jaligi vazirligi Ichki audit boshqarmasi hamda hududiy ishchi guruhlar tomonidan o‘rganilib, arizalariga ijobiy xulosa berilgan **774 ta** qishloq xo‘jaligi korxonalarining **40,8 ming gektar** paxta maydonlarida tomchilatib va diskret sug‘orish texnologiyasi joriy qilingani uchun jami **414 mlrd so‘m** subsidiya mablag‘lari to‘lab berilgan.

Ma’lumot uchun: 2024-yilda subsidiya ajratish bo‘yicha ijobiy xulosalar berilgan ammo to‘lanmasdan qolgan 604 nafar talabgorlarning 10 ming gektar paxta maydonida joriy qilingan texnologiyalar uchun 89,4 mlrd so‘m subsidiya mablag‘lari talabgorlarning hisob-raqamlariga 2025-yilda budget parametrlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan o‘tkazib berildi.

2025-yilda respublika bo‘yicha jami **886,6 ming gektar** ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi.

Shundan, 103,7 ming gektarda (83 ming gektar paxta) tomchilatib, 31,1 ming gektarda yomg‘irlatib, 14 ming gektarda diskret sug‘orish hamda 613,5 ming gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari lazer uskunasi yordamida tekislangan, shuningdek, 124,1 ming gektarda boshqa turdagi suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan.

Shu bilan birga, hisobot davrida, suv xo‘jaligi tizimidagi tik sug‘orish quduqlariga suv o‘lchash uskunalarini o‘rnatish tadbirlari uchun **19,8 mlrd so‘m** mablag‘ moliyalashtirildi.

Shuningdek, Amudaryoning Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidan oqib o‘tgan qismida faoliyat yuritayotgan **“Suv yo‘llari texnik uchastkasi” davlat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash** uchun **46,1 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasi



Qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning tizimidagi respublika budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlariga 2025-yil davomida **2 123,2 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Jumladan, rivojlantirish dasturlari uchun **1 123,3 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

15-jadval

T/r	Dastur nomi	summasi mlrd so‘m
1	Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiya	282,3
2	Paxta va boshqali don yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining nasos agregatlari iste‘mol qiladigan elektr energiyasi xarajatini qoplash uchun subsidiyalar	166,6
3	Chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklar tomonidan xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echki, ona baliq va jo‘jalarni sotib olish uchun xarajatlarning bir qismini qoplab berish	156,5
4	Qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatini aniqlash va qayta baholash, tuproq bonitirovkasi hamda tuproq xaritalarining korrektirovkasini o‘tkazish, sug‘oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish, agrokimyoviy kartogrammalar tuzish va tuproq (yerlar) monitoringini o‘tkazish uchun xarajatlar	95,0
5	Uy hayvonlarini emlash	152,5
6	Chigirtka va zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar	23,0
7	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xatlovdan o‘tkazish uchun	31,0
8	Respublika hududidagi gidrografik obyektlarni raqamlashtirish va elektron xaritalarini yaratishga	14,0
9	Tut parvonasiga qarshi kurashish tadbirlari xarajatlariga	19,5
10	Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi korxonalarini lazerli qurilmaga ega tekislash agregatlari bilan ta‘minlash uchun subsidiyalar	17,7
11	Boshqali don maydonlarini sug‘orish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalarini hamda ko‘chma generatorlarni sotib olish xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	0,2
12	Xorazm viloyatining sholi yetishtiruvchi subyektlariga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregatlar bilan yer tekislash xarajatlariga	0,3

T/r	Dastur nomi	summasi mlrd so‘m
13	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun jalb etilgan kreditlar foiz to‘lovining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	10,2
14	Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tumanlarning 2025 — 2030-yillarga mo‘ljallangan, loyihalashtirishdan oldin amalga oshiriladigan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish uchun xarajatlar	40,0
15	Tuproqdagi gumus miqdorini oshirish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	7,9
16	Yaylovlarni tiklash hamda ularda sug‘orish inshootlarini (quduqlarni) barpo etish bilan bog‘liq xarajatlar	106,7
Jami		1 123,3

Respublikada veterinar osoyishtalik va epizootik barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar

Respublika hududida hayvonlarning o‘ta xavfli kasalliklarini kelib chiqishi va chetdan kirib kelishini oldini olish maqsadida epizootiyaga qarshi profilaktik tadbirlarni o‘tkazish uchun jami 1 200 ta ishchi guruh tashkil etilib, unga 5 ming ta soha mutaxassisi va mas’ullar biriktirildi hamda ishchi guruh ishini muvofiqlashtirib borish bo‘yicha respublika, viloyat va tuman shtablari tashkil etilgan.

Shuningdek, hayvonlar kasalliklariga qarshi o‘tkaziladigan profilaktik tadbirlar “Mahallabay” va “Xonadonbay” usulda amalga oshirilmoqda.

2025-yilda vaksina va bakteriologik preparatlar, tibbiy uskuna va jihozlar uchun reagentlar va reaktivlar hamda dezinfeksiyalovchi va shaxsiy himoya vositalari sotib olish uchun **152,6 mlrd so‘m** ajratildi.

Ushbu mablag‘lar hisobiga **12 turdagi** vaksina va **13 turdagi** dori vositalari xarid qilinib emlash tadbirlarini o‘tkazish uchun hududlarga yetkazib berildi.

Aholi va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi xodimlar xabardorligini oshirish maqsadida brutsellyoz, kuydirgi, quturish, parranda grippi va Qrim-Kongo gemmoragik isitmasi kasalliklarining kelib chiqishi, uni oldini olish va qarshi kurashish to‘g‘risida 1 713 ta hududiy seminar o‘tkazildi hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari uchun 26,1 ming dona rangli plakatlar va 498,8 ming dona varaqalar tayyorlanib, tarqatildi, shu bilan birga, 427-marta televideniya va radioda chiqish qilinib, matbuotda 661 ta maqola chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi PQ- 4576- sonli va 2021-yil 3-martdagi PQ-5017-sonli qarorlariga muvofiq, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo‘jaliklar tomonidan xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echki, ona baliq va jo‘jalarni

sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini qoplab berish uchun **156,5 mlrd so‘m** subsidiya ajratildi. Jumladan,

– 35 ta parrandachilik fermer xo‘jaliklari va MCHJlar tomonidan chet davlatlardan tegishli hujjatlar asosida import qilingan **3 254 ming ta** bir kunlik nasldor jo‘janing har bir boshi uchun **15 ming so‘mdan 48,8 mlrd so‘m** mablag‘lar to‘lab berilgan.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-iyuldagi “Mo‘g‘ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-225-sonli qarori bilan 2025-yil 1-avgustdan 2027-yil 31-dekabrqa qadar Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli hayvonlarni O‘zbekistonga import qilishda tadbirkorlik subyektlariga havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizi Davlat budjeti hisobidan qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Bunda, ushbu maqsadlar uchun 2025-yilda Mo‘g‘ulistondan jami 121 ta chorvachilik xo‘jaliklariga 100,4 ming bosh mayda shoxli hayvonlar olib kelindi hamda ularni tashish xarajatlariga **97 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

**2025-yilda Mo‘g‘ulistondan chorvachilik xo‘jaliklariga olib kelingan
mayda shoxli hayvonlar to‘g‘risida**

16-jadval

T/r	Hudud nomi	Chorvachilik xo‘jaliklari soni (dona)	Qo‘y va echkilar soni (bosh)
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	8	8 525
2	Andijon viloyati	11	3 784
3	Buxoro viloyati	13	6 139
4	Jizzax viloyati	23	19 516
5	Qashqadaryo viloyati	11	10 172
6	Navoiy viloyati	19	24 199
7	Namangan viloyati	4	1 976
8	Samarqand viloyati	4	7 020
9	Surxondaryo viloyati	10	8 026
10	Sirdaryo viloyati	4	5 010
11	Toshkent viloyati	12	5 545
12	Farg‘ona viloyati	2	510
Jami		121	100 422

O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tomonidan o'simliklar himoyasini tashkil qilish bo'yicha

2025-yilda 9 ta davlatga 39 turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun fitosanitar ruxsatlar olinib, ularning soni 649 taga yetkazildi.

Shuningdek, 58 ta davlatga Agentlik tomonidan rasmiylashtiriladigan fitosanitariya sertifikatini asosida yuklash imkoniyati yaratildi.

Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridan 39 nafar usta dehqonlar boshqa hududlarga jalb qilinib, 17 784 nafar fermer va dehqon xo'jaliklari hamda 11 901 nafar aholi tomorqa egalari ishtirokida 161 ta ko'rgazmali seminarlar tashkil qilindi.

Aholiga ajratilgan **198,1 ming gektar** maydonga 984 nafar inspektor biriktirildi.

Agentlik tizimidagi 2 mingdan ziyod xodim har bir mahalla, xonadon va fermer xo'jaligiga nomma-nom biriktirildi.

G'alla maydonlarida zararli hasharotlarga qarshi uyg'unlashgan kurash (IPM) tizimini qo'llash bo'yicha 575 ta seminarlar o'tkazildi.

O'simliklarni himoya qilish bo'yicha xizmatlar ko'lamini kengaytirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida biolaboratoriyalar soni 639 taga va o'simlik klinikalari soni 987 taga (20 ta yangi) yetkazilishiga ko'maklashildi. 508 ta biolaboratoriyaga "Monitoring dalolatnomasi" va "Sifat sertifikatini"lari berildi.

2025-yilda tut parvonasiga qarshi kurash tadbirlari uchun ajratilgan **19,5 mlrd so'm** mablag'lar Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash tadbirlari uchun ajratilgan bo'lib, 2025-yilda **53,4 mln dona** yakka qatorli tut daraxtlarida va **16,7 ming gektar** tutzorlar (plantatsiya)da kimyoviy ishlovlar o'z vaqtida o'tkazilishi natijasida **105,2 mln dona** yakka qatorli tut daraxtlar va **40,6 ming gektar** tutzorlar saqlab qolinishiga erishildi.

Shuningdek, Chigirtka va zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolish bilan bog'liq xarajatlar doirasida chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatining moddiy-texnika bazasini kuchaytirish uchun kerakli texnika va jihozlar xarid qilishga 23 mlrd so'm mablag' ajratilib, zaruriy texnikalar jumladan, 10 ta pikap avtomobillari, 2 ta maxsus suv tashuvchi transport vositasi, 141 ta qishloq xo'jaligi purkagichlari hamda 19 ta qishloq xo'jaligi traktorlari xarid qilindi hamda joylarga yetkazildi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining tegishli topshirig'iga asosan 631,5 mln so'mga 0,9 tonna kimyoviy vosita hamda 3,2 tonna biostimulyator xarid qilinib, hududlarga yetkazib berildi.

Shu bilan birga 2025-yil hosili uchun 7,9 mlrd dona oltinko'z, 9 803 kg trixogramma, 5 mlrd dona brakon mahsuloti yetishtirilib, 1,9 mln gektar ekin maydonlarida tarqatildi.

Shuningdek, 639 ta biolaboratoriyaga 34,5 mlrd so‘m debitor qarzdorliklarni undirilishiga hamda 114,9 mlrd so‘m bo‘nak mablag‘lari ajratilishiga ko‘maklashildi hamda 10,3 mln m³ va 7 mln m² zararsizlantirish (fumigatsiya) ishlari amalga oshirildi.

755,8 ming gektar maydonda tuproqning (azot, fosfor, kaliy va gumus) konturbay agrokimyoviy elektron xaritanomalari tayyorlanib, yerdan foydalanuvchilarga yetkazib berildi.

Shuningdek, import qilingan 1 432,6 tonna va 52 034 dona o‘simliklar karantini nazorati ostidagi mahsulotlar qaytarildi, 870,4 tonna va 238 740 dona yo‘q qilindi.

2025-yilda 1 124 ta teleko‘rsatuv hamda 579 ta radiodasturlar efirga uzatildi. 1 271 ta maqolalar nashrga chiqarildi, 36 ta tanqidiy material, 358 ta infografik ma‘lumotlar tayyorlandi hamda 8 ta matbuot anjumani, 10 ta press tur, 45 ta brifing tashkil qilindi.

Yerdan foydalanuvchilarga o‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilish bo‘yicha “Erkin muloqot” onlayn maslahat berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, zararli chigirtkaga qarshi 961,7 ming gektar maydonda profilaktik kurash tadbirlari o‘tkazildi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-sonli qaroriga asosan, mahalliy va import qishloq xo‘jaligi texnika va agregatlarning qiymatini qisman qoplab berish uchun davlat tomonidan subsidiya berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Ma‘lumot uchun: qishloq xo‘jaligi texnikasi qiymatining 15 foizi, shuningdek, agregat qiymatining 30 foizi miqdorida subsidiya beriladi.

Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash va sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2025-yilda mazkur yo‘nalishga budjetdan **740,8 mlrd so‘m** (paxta terish mashinalariga – 513,5 mlrd so‘m, lazer tekislagich uchun – 107,3 mlrd so‘m, boshqa texnika va agregatlar uchun – 120,2 mlrd so‘m) subsidiya mablag‘lari ajratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 578-sonli qarorida qishloq xo‘jaligi texnikasini kredit va lizing shartlarida xarid qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun subsidiya berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Ma‘lumot uchun, subsidiya lizing yoki kredit shartnomasida belgilangan foiz stavkasining 10 foizlik punktdan yuqori qismini qoplash uchun ajratiladi.

Mazkur qarorga asosan qishloq xo‘jaligi texnikasi lizing yoki kredit shartlarida xarid qilinganda ularning foiz xarajatlarini qoplab berish uchun 2025-yilda **184,2 mlrd so‘m** (paxta terish mashinalariga – 96,1 mlrd so‘m, lazer

tekislagich uchun – 1,2 mlrd so‘m, boshqa texnika va agregatlar uchun – 86,9 mlrd so‘m) subsidiya mablag‘lari yo‘naltirildi.

Paxta yetishtiruvchilar tomonidan birja savdolari orqali realizatsiya qilingan (elektron hisob-faktura asosida) har bir tonna paxta xomashyosi uchun **1 mln so‘mdan jami 2,6 trln so‘m** subsidiya ajratildi.

Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish



So‘ngi yillarda Davlat tomonidan shahar va qishloqlarni obodonlashtirish, ko‘chalarni ta‘mirlash va yoritish, yashil hududlar maydonini kengaytirish, dam olish maskanlari va jamoat joylarini zamonaviy talablar asosida qayta qurish ishlari jadal sur‘atlarda olib borilmoqda. Bu esa aholining turmush sifati va farovonligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2025-yilda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xarajatlari uchun **6 740,8 mlrd so‘m** yoki 2024-yilga nisbatan **1 681,8 mlrd so‘m** ko‘p mablag‘ ajratildi.

Obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish va barcha hududlarda tizimli ravishda olib borish maqsadida **231 ta** tashkilotda **68,7 ming nafar** xodim faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi mavjud tuzilmalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda hamda ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan:

- shahar va tumanlar aholi punktlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘limlaridagi mavjud shtat birliklari, ularga biriktirilgan hududlarni saqlash va boshqa tadbirlarga **4 538,2 mlrd so‘m** ajratildi;

- shahar va tumanlar ko‘chalarining tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash, ta‘mirlash, foydalanish va ekspluatatsiya qilish tadbirlari hamda joriy xarajatlariga **304,9 mlrd so‘m** ajratildi;

- shahar va tumanlardagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish uchun 2025-yilda **787,2 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi;

- shahar va tuman markazlarida mavjud tik quduqlar, kuzatuv quduqlari va kollektorlarni saqlash va joriy xarajatlari bo‘yicha 2025-yil yakuni bo‘yicha **69,7 mlrd so‘m** ajratildi;

- qarovsiz hayvonlarni tutish va saqlash tadbirlarida band bo‘lgan xodimlarning ish haqi, saqlash va mazkur tadbirlar bilan bog‘liq boshqa xarajatlarga **32,1 mlrd so‘m** ajratildi;

- shahar va tuman hokimliklari balansida mavjud ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash xarajatlariga **938,2 mlrd so‘m** yo‘naltirildi;



– boshqa turdagi kommunal rivojlantirish bo'yicha xarajatlarga **62,9 mlrd so'm** yo'naltirildi;

Hukumat qarorlariga asosan, obodonlashtirish sohasi bo'yicha qabul qilingan Davlat dasturlarining ijrosi to'g'risida

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli Farmoniga asosan, 2025-yilda shahar/tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish hududlariga sug'orish tizimlarini (350 km) va suv chiqarish quduqlarini (207 dona) tashkil etish hamda maxsus texnikalar (100 dona) xarid qilish uchun **169,5 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi hamda 2025-yilda quyidagilar amalga oshirildi, jumladan:

– shahar/tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi ko'kalamzorlashtirish hududlariga sug'orish tizimlarini va suv chiqarish quduqlarini tashkil etish uchun ajratilgan mablag'lar doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman/shahar hokimliklari tomonidan **209 ta** loyihalar aniqlab olindi va barchasida loyiha tashkiloti belgilandi.



2025-yil yakuniga ko'ra **207 ta** obyektدا pudratchilar aniqlandi hamda **60,7 mlrd so'm** mablag'lar yo'naltirildi. Ushbu mablag'lar hisobiga **386 km** sug'orish tizimlari va **250 dona** suv chiqarish quduqlari tashkil etilishi ta'minlandi.

– "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida shahar/tuman obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufida amalga oshirilgan ko'kalamzorlashtirish maydonlari va o'tqazilgan daraxt va butalarni saqlash va parvarish qilish maqsadida boshqarmalar moddiy texnik bazasini mustahkamlash uchun 2025-yilda **100 ta** maxsus texnika xarid qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, 2025-yilda ajratilgan mablag'lar doirasida belgilangan barcha maxsus texnikalarni xarid qilish bo'yicha ta'minot korxonalari bilan shartnomalar tuzilgan va **94,3 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi hamda barcha maxsus texnikalar



ta'minotchi korxonalar tomonidan hududiy Obodonlashtirish boshqarmalariga yetkazib berildi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi "Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari hamda ichki xo'jalik yo'llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 665 - sonli qaroriga muvofiq, 2025-yilda Respublika tuman (*shahar*) Obodonlashtirish boshqarmalariga **493 ta** yo'lga ixtisoslashgan maxsus texnikalar (*katok, avtogreyder, ekskavator va samosval*) bilan ta'minlash uchun **442,9 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-oktabrdagi "Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari hamda ichki xo'jalik yo'llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 665-sonli qaroriga muvofiq, Respublikaning barcha tuman (*shahar*) hokimliklari tasarrufidagi ichki ko'chalarni saqlash va joriy ta'mirlash (*shu jumladan, tuproq yo'llarni shag'allashtirish*) ishlarini amalga oshirish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjeti parametrlarida jami **832 mlrd so'm** ajratildi.



Ajratilgan mablag'lar doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman (*shahar*) hokimliklari tomonidan belgilangan tartibda shakllantirilgan manzilli ro'yxatlarga asosan 9 133 ta obyektda **6,7 ming km** (*asfalt-beton qoplamali ko'chalar - 4,2 ming km va tuproq ko'chalarni shag'allashtirish - 2,5 ming km*)dan ortiq uzunlikdagi ichki ko'chalarda saqlash va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, yo'llarning holati yaxshilandi.

Uy-joy kommunal ishlari


Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar ijrosi:

1. Aholiga issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash hisobiga vujudga kelgan zararlarni qoplash maqsadida issiqlik ta'minoti korxonalariga beriladigan subsidiyalar bo'yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 30-iyuldagi 271- sonli qarori bilan “Aholiga ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar tariflaridan farqlarni budjetdan qoplash” tartibi tasdiqlangan.

Bunda, issiqlik ta‘minoti korxonalari tomonidan aholiga past darajali tariflar qo‘llanilishi hamda pasaytirilgan tariflar hisobidan vujudga keladigan zararlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilangan.

Hisobot davrida 19 ta issiqlik ta‘minoti korxonalarining **3 502,6 mlrd so‘m** zararlari Davlat budjetidan qoplab berilgan holda aholiga issiqlik ta‘minoti tariflarining amaldagi pasaytirilgan tariflarda yetkazilishi ta‘minlandi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 11-martdagi PQ-100-sonli** qaroriga asosan Issiqlik ta‘minotini muvofiqlashtiruvchi sifatida “Issiqlikta‘minoti” AJ tashkil etildi hamda yo‘qotishlarni kamaytirish uchun issiqlik tizimlarining “yopiq tizim”ga o‘tkazish belgilandi.

2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 98-sonli qaroriga asosan 2025-2028-yillarda ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini yaxshilash va ta‘mirlash dasturiga muvofiq 2025-yilda **510 ta lift** uskunalarini ta‘mirlash va yangisiga almashtirish (*505 ta yangilash va 5 ta ta‘mirlash*) uchun 2025-yil davomida **190,6 mlrd so‘m** xarajatlar amalga oshirildi.

3. Hisobot davrida issiqlik qozonlari va issiqlik tarmoqlarini joriy ta‘mirlash dasturi doirasida **25,8 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

4. Respublikada 1991-yilgacha qurilgan **6 750 ta** ko‘p kvartirali uylarni elektron pasportini ishlab chiqish uchun manzilli dastur ishlab chiqilib, elektron tender orqali loyiha institutlari bilan shartnomalar tuzilgan. 2025-yilda hatlovlar to‘liq yakunlanib ko‘p kvartirali uylar to‘g‘risida ma‘lumotlar elektron platformaga kiritdi.

Hisobot davrida, respublikadagi 1991-yilgacha qurilgan **6 750 ta** ko‘p kvartirali uy-joy fondini pasportlashtirish xarajatlari uchun **29,9 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi.



Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarni yanada rivojlantirish, aholi uchun qulay va zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, shahar jamoat transporti tizimini takomillashtirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida muntazam tashuvlar bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish tizimi yildan yilga takomillashtirilib, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmatlarining qulayligi va samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2025-yilning 1-yanvaridan Toshkent shahri yo'nalishlaridagi barcha avtobuslarda yo'l haqi to'lovlarini naqd pulda olish amaliyotidan voz kechilib, yo'l haqi to'lovlari elektron to'lov tizimiga o'tkazildi.

2025-yilda muntazam avtobus yo'nalishida yo'lovchi tashishni brutto-shartnoma asosida tashkil etish va moliyalashtirish uchun davlat budjetidan **1 600,1 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Shundan, hisobot davrida **“Toshshaxartransxizmat” AJ**ning cheklangan tariflarda “Brutto-shartnoma” asosida yo'lovchi tashish xizmatlari moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan jami **1 257,7 mlrd so'm** ajratildi.

Bunda, 2025-yilda shahar avtobus yo'nalishida cheklangan tariflarda yo'lovchi tashishni brutto-shartnoma (*gross cost contract*) asosida moliyalashtirish uchun qoldiq mablag'lar bilan birga **1 324,3 mlrd so'm** mablag' yo'naltirildi.



Brutto-shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlar qiymati **1 940,3 mlrd so'mni;**



tashishdan tushgan tushumlar hisobidan – **615,6 mlrd so'mi;**




budjetdan ajratilgan mablag'lari hisobidan – **1 324,7 mlrd so'm** qoplab berilgan.

Jamiyat tomonidan **2025-yil** davomida jami **409,3 million nafar** yo'lovchiga xizmat ko'rsatilgan.

Xususan:

- yo'nalishli yo'lovchilar (naqd pul orqali)soni – **0,8 mln;**
- Elektron to'lovdan foydalangan yo'lovchilar soni – **375,3 mln;**
- Imtiyozli tarif rejasi bo'yicha yo'lovchilar soni – **31,7 mln;**
- Bepul xizmat ko'rsatilgan yo'lovchilar soni – **1,5 mln.**

Xizmat ko'rsatilgan yo'lovchilar tashish ko'rsatkichlari
(million nafar)



2024-yilga nisbatan **84,3 mln nafar** ko'p yo'lovchiga xizmat ko'rsatilgan.


2025-yilda **“Toshkentmetropoliteni” DUK**ning cheklangan tariflar hisobiga yo'lovchi tashish xizmatidan ko'rilayotgan zararlarini qoplash uchun **davlat budjetidan 852,1 mlrd so'm** ajratilgan.

“Toshkent metropoliteni” DUK tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan yo'lovchilarni tashishdan ko'rilgan daromadlar 317,9 mlrd so'm, xarajatlar 1 071,2 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Korxona tomonidan 2025-yil mobaynida **202,9 mln yo'lovchiga** xizmat ko'rsatilgan (yo'lakdan foydalanuvchilardan tashqari).

Xususan:

- yo'nalishli yo'lovchilar soni – **176,8 mln nafar**;
- imtiyozli yo'lovchilar soni – **6,6 mln nafar**;
- oylik yo'l chiptalari – **9,2 mln nafar**;
- tashilgan pensionerlar soni – **10,3 mln nafar**.



Ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2024-yilga nisbatan **17 mln nafar yo'lovchiga** ko'p xizmat ko'rsatilgan.

Mahalliy yo'nalishlardagi temir yo'l va aviatashuvchilarni qo'llab quvvatlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-sonli qarorga binoan "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan belgilangan mahalliy yo'nalishlarda Maxsus komissiya tomonidan belgilangan narxda, ya'ni **25 foiz** arzonlashtirgan tarzda barcha tejamkor ("econom") xizmat ko'rsatish toifasi bo'yicha avia chiptalarni realizatsiya qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada Mahalliy aviaqatnovlarni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-412-son qarorning 2-bandiga muvofiq Respublikada ichki turizmni rivojlantirish, yo'lovchilarga arzon narxlarda aviatashuv xizmatlarini ko'rsatish va aviakompaniyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining rezident aviakompaniyalariga ichki turizm yo'nalishlaridagi aviaqatnovlar uchun avia chipta narxining **25 foizi** miqdorida O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan subsidiya ajratish muddati 2026-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilishi belgilangan.

Shunga muvofiq, **231,2 ming** nafar yo'lovchi uchun "Uzbekistan Airways" AJ va "UZBEKISTAN HELICOPTERS" MCHJlarga **24,4 mlrd so'm** budjet mablag'lari hisobidan qoplab berildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-maydagi "Mintaqaviy aviatashuvlarni va ichki turizmni yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 302-son qarori bilan **aviachiptalar narxlari hamda subsidiyalanadigan aviaqatnov yo'nalishlarini subsidiyalash miqdorini belgilash bo'yicha maxsus komissiya** tarkibi o'zgartirildi hamda maxsus komissiya tomonidan yangi tahrirdagi qaror qabul qilindi.

Bunda, **subsidiyalanadigan aviaqatnov yangi yo'nalishlari, subsidiyalash miqdori** qayta ko'rib chiqilib rezident aviakompaniyalarga ham tatbiq etildi.

Yangi tahrirdagi maxsus komissiya qarorida **subsidiyalanadigan aviaqatnov soni 46 tani** tashkil qilib, **+ 24 ta yangi yo'nalishlar** qo'shildi. Shuningdek, subsidiya miqdori havo kemasi bortidan kelib chiqib diffirensial tariflar joriy qilindi.

Farg'ona shahridan So'x tumaniga kichik aviatsiya transportida aholiga maqbul narxlarda qatnovlarni yo'lga qo'yish natijasida tashuvchi ko'rgan zararlarni qoplash dasturi bo'yicha 2025-yilda **"Humo Air" MCHJ tomonidan 1 505 nafar** yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilib, **436,1 mln so'm** budjet mablag'lari hisobidan qoplab berildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yashovchi pensionerlar, nafaqa oluvchilar hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarga temir yo‘l va avia chiptalar 50 foizlik imtiyoz bilan sotilishi natijasida tashuvchilar tomonidan ko‘rilgan zararni qoplab berish dasturi bo‘yicha 286,9 ming nafar yo‘lovchi uchun “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ ga 22,6 mlrd so‘m, “Uzbekistan Airways” AJga 30,8 mlrd so‘m “Uzbekistan Helicopters” MCHJga 10 mln so‘m mablag‘lar budjet hisobidan qoplab berildi.

Hisobot davrida **ichki qatnovlarda harakatlanuvchi poyezdlarda yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlarni moliyalashtirish** uchun budjetdan jami **718,3 mlrd so‘m** ajratildi.

Xususan,

– “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ **539,6 mlrd so‘m**

– “Shahar atrofida yo‘lovchi tashish” MCHJ **178,7 mlrd so‘m**

“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan olingan daromadlar **650,9 mlrd so‘m**, xarajatlar **1 346 mlrd so‘m**ni tashkil qilgan.

“Shahar atrofida yo‘lovchi tashish” MCHJ tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblarga asosan olingan daromadlar **32,1 mlrd so‘m**, xarajatlar **217,3 mlrd so‘m**ni tashkil qilgan.

Eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish maqsadida “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-martdagi “Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-126-sonli qarori bilan belgilangan moliyaviy ko‘mak ko‘rsatiladi. Bunga ko‘ra, 2025-yil davomida **Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasiga 499,6 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratildi.

Shuningdek, hisobot davrida eksportga ko‘maklashish va uni rag‘batlantirishni kuchaytirish uchun **Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasidan jami 754,4 mlrd so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi. Xususan,

– **387 ta** tadbirkorlik subyektining xalqaro ko‘rgazma-yarmarka tadbirlarida ishtirok etishlarida **87,6 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **698,2 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **124 ta** tadbirkorlik subyektiga xalqaro sertifikatlarini olish xarajatlarini qoplab berishda **12,9 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **973,8 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **82 ta** tadbirkorlik subyektiga mahsulotlarni reklama qilish hamda savdo maydonchalarida joylashtirishda **7,6 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi.

Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **144,9 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **39 ta** tadbirkorlik subyektiga chet eldagi savdo binosini saqlash hamda omborxonani ijaraga olishda **79,6 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **256,8 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **35 ta** tadbirkorlik subyektiga xorijdan malakali dizaynerlar, texnologlar, marketologlar, sifat nazoratchilari va agronomlarni jalb qilish xarajatlarini qoplab berishda **5,3 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **374 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **216 ta** tadbirkorlik subyektiga biznes-seminarlar, treninglar, savdo missiyalari va biznes-forumlarda ishtirok etishda **4,6 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **418,2 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **16 ta** tadbirkorlik subyektining mahsulotlari namunalarini tanishtirish maqsadida xorijiy xaridorlarga, eksport qiluvchi tashkilotlarning tashqi savdo uylari va shou-rumlariga yuborishda **0,3 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **200,9 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **34 ta** tadbirkorlik subyektiga sug‘urta xarajatlarini qoplab berishda **14,3 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **4,5 mln dollar** eksport amalga oshirildi.

– **801 ta** tadbirkorlik subyektlari 2025-yilda milliy brendlar va mahsulotlarni xorijda targ‘ib qilish bo‘yicha “Made in Uzbekistan” dasturini amalga oshirishda **221 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi.

– eksport akseleratori “tadbirkordan-eksportchigacha” dasturi doirasida xorijiy konsalting kompaniyalarni jalb qilishda moliyaviy ko‘maklashish **5 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi.

– boshqa eksport faoliyatni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari uchun **32,1 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi.

Shuningdek, **292 ta** tadbirkorlik subyektiga 2024-yilda amalga oshirgan transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yo‘nalishida **84,1 mlrd so‘mlik** moliyaviy yordam ajratildi. Buning natijasida, ushbu korxonalar tomonidan **360,3 mln dollar** eksport amalga oshirildi. Ushbu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF-227-son Farmoniga asosan bekor qilingan.

Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar

Davlat budjetidan ajratilayotgan subsidiyalar iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, aholi farovonligini oshirish hamda hududlarni barqaror rivojlantirishda muhim moliyaviy tayanch sifatida xizmat qildi.

Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlar narxlari barqarorligini ta‘minlash, ish o‘rinlarini saqlab qolish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli yordam ko‘rsatishga qaratildi.

Hisobot davrida subsidiyalar ajratish jarayoni “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq amalga oshirildi. Ushbu yo‘nalishda jami **29,4 trln so‘m** miqdorida budjet mablag‘lari yo‘naltirildi.

Shundan:

Ijtimoiy ahamiyatga ega subsidiyalar — **10,5 trln so‘m**;

Tadbirkorlini rivojlantirish va aholini bandligini ta‘minlash uchun ajratilgan subsidiyalar — **1,7 trln so‘m**;

Energetika sohasiga — **11,4 trln so‘m**, asosan aholiga yetkazib beriladigan elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlarini barqarorlashtirish maqsadida;

Qishloq xo‘jaligi sohasiga — **5 trln so‘m**, jumladan, suv ta‘minoti tizimlarini modernizatsiya qilish va dehqon xo‘jaliklariga subsidiya ajratish uchun;

Geologiya-qidiruv ishlari ishlarini amalga oshirishga — **820 mlrd so‘m** subsidiya mablag‘lari ajratildi.

17-jadval

Davlat budjetidan ajratilgan subsidiyalar

		<i>mlrd so‘mda</i>
T/r	Ko‘rsatkichlar	Jami ajratilgan mablag‘
	Jami	29 350,7
I	Ijtimoiy ahamiyatga ega	10 453,5
1	Nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalariga Davlat budjetidan subsidiyalar	3 950,2
2	Aholi tomonidan uy-joylar sotib olish uchun subsidiyalar	2 133,6
3	Magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari budjet hisobidan qoplab berish	122,9
4	Davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish bo‘yicha loyihalar uchun subsidiyalar	276,2
5	Talabalarni oylik ijara to‘lovi xarajatlarini bir qismini kompensatsiya qilish uchun mablag‘lar	144,0
6	Talabalar turar joyini barpo etgan xususiy sheriklarga yashagan har bir talaba uchun kompensatsiya to‘lovlari uchun subsidiya (BHMning 15 va 20 baravari)	39,6

T/r	Ko'rsatkichlar	Jami ajratilgan mablag'
7	Yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlarini olishi bo'yicha xarajatlarining bir qismini qoplash uchun xarajatlar	10,8
8	Avtobusda yo'lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish uchun mablag'lar	1 600,1
9	Temir yo'l orqali mahalliy yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlarini (Public service obligation) ko'rsatishdan ko'rilgan zararlarni kompensatsiya qilish xarajatlari	718,3
10	"Toshkent metropoliteni" yo'lovchilar tashishni subsidiyalash	852,1
11	Shahar atrofi, shaharlararo hamda viloyat ichki avtobus yo'nalishlariga subsidiyalar	9,5
12	Mahalliy yo'nalishlardagi aviaqatnovlar uchun chiptalar narxining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	24,4
13	Farg'ona shahridan So'x tumaniga kichik aviatsiya transporti qatnovi bo'yicha ko'rilgan zararlarni qoplash uchun xarajatlar	0,4
14	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida istiqomat qilayotgan pensiya va nafaqa oluvchilar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun temir yo'l va aviayo'lovchilar chiptalari imtiyozli tariflar sotishdan ko'rilgan zararni qoplash xarajatlari	53,2
15	Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash uchun xarajatlar	188,8
16	"Zakovat" intellektual klubi» nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari	49,9
17	Energetika vazirligi huzuridagi Tarmoqlararo energiyani tejash jamg'armasiga muqobil energiya uskunalari o'rnatgan aholi va tadbirkorlik subyektlariga kompensatsiya to'lovlari	50,4
18	Jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan orttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasini sotib olish uchun subsidiyalar	204,2
19	Umumta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etish va ularga "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan oilalar farzandlarini jalb qilish uchun mablag'lar	13,5
20	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga amaliyot o'tagan vaqtida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oylik subsidiyalar	0,2
21	O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash Ilhom jamoat fondi	5,8
22	Toshkent hayvonot bog'iga subsidiyalar	5,2
II	Tadbirkorlikni rivojlantirish va aholini bandligini ta'minlash uchun ajratilgan subsidiyalar	1 728,5
23	Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg'armasi xarajatlari	190,0
24	Savdoga ko'maklashish jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar	499,6

T/r	Ko'rsatkichlar	Jami ajratilgan mablag'
25	Savdo-sanoat palatasining Tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	4,0
26	"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ ning mablag'larini shakllantirish	522,8
27	Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni kengaytirish va yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash tadbirlari uchun xarajatlar	277,1
28	Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	19,9
29	Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklari tomonidan yetishtirilib, sotilgan mahsulotlar uchun subsidiyalar	156,5
30	Gumusli o'g'itni qo'llash xarajatlari uchun subsidiya mablag'lari	7,9
31	Milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsidiya	12,0
32	Ish beruvchilarga olti oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'lanadigan ijtimoiy soliq summasini qoplab berish uchun mablag'lar	30,7
33	Yo'lovchi tashuvchi yangi dor yo'llarini qurish va jihozlash uchun yo'naltirilgan xarajatlarning bir qismini qoplash bilan bog'liq xarajatlar	8,0
III	Energetika sohasi	11 361,3
34	Issiqlik ta'minoti korxonalari uchun aholiga ta'riflarini past narxlarda ushlab turish natijasida ko'rilgan zararni qoplash xarajatlari	3 502,6
35	"O'zgaztrejd" AJ zararlarini qoplash uchun subsidiyalar	7 000
36	"O'zenergosotish" AJ zararlarini qoplash uchun subsidiyalar	500,0
37	Aholi ehtiyoji uchun qo'shimcha suyultirilgan gaz hajmlarini xarid qilishda narxlar tafovutini qoplash uchun	358,6
IV	Qishloq va suv xo'jaligi	4 962,3
38	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tadbirlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar	420,5
39	Qishloq xo'jaligi korxonasiga qishloq xo'jalik texnikasini xarid qilish uchun ajratilgan lizing yoki kredit foizini qoplash uchun xarajatlar	184,2
40	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun kreditlar 10 foiz stavkada (foiz stavkalarini subsidiyalash hisobiga) ajratish uchun mablag'lar	10,2
41	Xorazm viloyatining sholi yetishtiruvchi subyektlariga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregatlar bilan yer tekislash xarajatlari va yangi urug' seyalkalari hamda ko'chatlab ekish uskunalari uchun subsidiya	0,3

T/r	Ko'rsatkichlar	Jami ajratilgan mablag'
42	Paxta xom ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib va diskret sug'orish tizimini joriy etish xarajatlarning bir qismini qoplash uchun xarajatlar	414,1
43	Fermer xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun subsidiyalar	166,6
44	Qishloq xo'jaligi texnikalari va lazerli tekislash uskunalari hamda don urug' seyalkalarini xarid qilish uchun subsidiyalar	740,8
45	Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi korxonalarini lazerli qurilmaga ega tekislash agregatlari bilan yerlarni tekislash tadbirlari uchun subsidiya	17,7
46	Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiya	282,3
47	Tut parvonasiga qarshi kurash tadbirlari uchun xarajatlari	19,5
48	Paxta yetishtiruvchilar tomonidan birja savdolari orqali realizatsiya qilingan bir tonna paxta xom ashyosi uchun subsidiya ajratish bilan bog'liq xarajatlar	2 599,4
49	Yaylov yerlarida shaxtali va tik quduqlar hamda suv tortish uchun nasos stansiyalarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilishga sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	106,7
V	Geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari	820,0
VI	Boshqa subsidiyalar	25,1

Subsidiyalardan foydalanish samaradorligi yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan tizimli monitoring yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning natijalari iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda aholi daromadlarini oshirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

46-rasm



Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish




Hisobot davrida **Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlariga** Davlat budjeti jami xarajatlarining **9,4 foizi** yoki **35 981 mlrd so‘m** mablag‘ sarflandi.

2025-yilgi **ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi** doirasida **1 999 ta** obyektida qurilish ta‘mirlash ishlari uchun **21 082,3 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Dastur ijrosi yuzasidan ajratilgan mablag‘larning o‘zlashtirilishi holati sohalar kesimida tahlili quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy soha muassasalari.

a) Umumta‘lim maktablari bo‘yicha:



Dastur doirasida **463 ta** umumta‘lim maktabida qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash hamda sanitariya gigiyena infratuzilmasini yaxshilash ishlari uchun **3 919 mlrd so‘mi** mablag‘lar ajratildi.

Jumladan, ushbu mablag‘larning **353,6 mlrd so‘mi** Dastur doirasida amalga oshirilgan umumta‘lim maktablarini **jihozlash ishlari** uchun moliyalashtirilgan.

Ushbu ajratilgan mablag‘lar hisobidan 2025-yilda dastur doirasida 343 ta obyektlar foydalanishga topshirildi hamda yangi **103 482 o‘quvchi o‘rni** yaratildi, **918 o‘quv o‘rinli** mavjud binolarni rekonstruksiya qilindi va **59 983 o‘quv o‘rinli** binolar ta‘mirlandi, shuningdek, mazkur maktablar uchun **53 ta** yangi sportzallar qurildi.

b) Ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bo‘yicha:

Dastur doirasida **11 ta** ijod va ixtisoslashgan maktablarda qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari amalga oshirilib, **407,6 mlrd so‘m** mablag‘lar o‘zlashtirildi.

Shundan, **48,9 mlrd so‘m** mablag‘lar Dastur doirasida amalga oshirilgan ijod va ixtisoslashgan maktablarni jihozlash ishlari uchun moliyalashtirilgan.

Ajratilgan mablag‘lar hisobidan hisobot davrida **2 ta** obyektlar foydalanishga topshirilishi natijasida yangi **840 o‘quvchi o‘rni** yaratildi.



v) Maktabgacha ta‘lim muassasalari bo‘yicha:

Ta‘limning boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta‘lim muassasalarida shart-sharoitlarni yaxshilash va bolalarni sifatli ta‘lim bilan qamrab olishni kengaytirish maqsadida **263 ta** obyektida qurilish va

ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ushbu ishlar uchun jami **1 475,6 mlrd so'm** mablag' yo'naltirildi.

Jumladan, ushbu mablag'larning **117,1 mlrd so'mi** Dastur doirasida amalga oshirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlash ishlari uchun ajratilgan.

Hisobot davrida ajratilgan mablag'lar evaziga **161 ta** muassasalar foydalanishga topshirilishi natijasida **5 310 o'rinli** yangi binolar qurildi, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish orqali **17 990 o'rinli** binolarning holati yaxshilandi hamda **2 910 o'rin** quvvatiga ega mavjud obyektlar mukammal ta'mirlandi.

g) Oliy ta'lim muassasalari bo'yicha:



Hisobot davrida **17 ta** oliy ta'lim muassasalari obyektlarida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun **334 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

2025-yilda Davlat budjetidan mazkur soha uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan **8 ta** obyekt foydalanishga topshirildi hamda **3 500 o'quv o'rinli** binolar yangidan qurildi, mavjud **1 170 o'quv o'rinli** binolar rekonstruksiya qilindi, **170 o'quv o'rinli** bino ta'mirlandi hamda **810 o'rinli** yotoqxonalarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.



d) Sog'liqni saqlash obyektlari bo'yicha:

Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda infratuzilmani rivojlantirish maqsadida **143 ta** tibbiyot muassasalarida qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga **1 483,8 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Jumladan, ushbu sog'liqni saqlash muassasalarini jihozlash maqsadlari uchun **255,7 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirildi.

Tibbiyot sohasiga ajratilgan mablag'lar evaziga **76 ta** obyektlar foydalanishga topshirilishi natijasida **4 450 o'rinli (koykali)**, **2 018 qatnovli** binolar hamda boshqa turdagi **16 ta** obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

ye) Jismoniy tarbiya va sport obyektlar bo'yicha:

16 ta Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishdagi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta'mirlash ishlari uchun **253 mlrd so'm** mablag'lar moliyalashtirildi.

Ushbu mablag'lar evaziga 2025-yilda **11 ta** obyektlar foydalanishga topshirildi hamda yangi **4 ta** sport inshootlari qurildi, mavjud **5 tasi** rekonstruksiya qilindi hamda ta'mirlandi, **544 o'rinli** yotoqxonalar, **2 ta** yangi stadionlar qurildi.

j) Madaniyat va san'at obyektlari bo'yicha:

Madaniyat va turizm vazirligiga 12 ta madaniyat va san'at muassasalarini qurish-ta'mirlash ishlari uchun hisobot davrida **159,1 mlrd so'm** mablag' o'zlashtirildi.

Ajratilgan mablag'lar hisobidan 2025-yilda **7 ta** obyektlar foydalanishga topshirildi hamda **1 ta** yangi madaniyat sohasidagi binolar qurildi **2 ta** mavjudlari rekonstruksiya qilindi hamda **2 800 o'rinli** turli binolarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

z) Ilm-fan va innovatsion obyektlari bo'yicha:

2025-yilda **ilm-fan va innovatsiya (ilmiy tadqiqot) obyektlarida** qurilish-ta'mirlash ishlari uchun **57,9 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Ushbu ajratilgan mablag'lar hisobidan **3 ta** ilm-fan va innovatsiya obyektlari foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, 2025-yilda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan **143 ta** obyektlarni foydalanishga topshirish bo'yicha davlat qabul komissiyasi hujjatlari rasmiylashtirilmoqda.

Muhandislik-kommunal infratuzilma



a) Hisobot davrida **Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi** doirasida respublika aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqava suv tizimlarini yaxshilash maqsadida Davlat budjetidan **"Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish"** jamg'armasiga **105 ta** obyektning to'lovlarini moliyalashtirish uchun **2 103,3 mlrd so'm** transfert mablag'lari yo'naltirildi.



2025-yil davomida ushbu mablag'lar hisobidan **2 098,1 mlrd so'mlik** qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. Jumladan, qariyb **1,8 ming km** ichimlik va oqova suv tarmoqlarini tortish hamda **104 dona** ichimlik va oqova suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi.

Buning natijasida, **65 ta** MFYning **315 ming nafar** aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, **89 ta** MFYning **1 150 ming nafar** aholisining ichimlik suv ta'minoti yaxshilanishiga erishildi.

Natijada, 2025-yilda respublika bo'yicha markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasini **82,8 foizga** hamda oqova suv xizmatlari bilan qamrab olish darajasi **22,3 foizga** oshishiga erishildi.



b) **Issiqlik ta'minoti** obyektlari bo'yicha hisobot davrida **48 ta** obyektida amalga oshirilgan qurilish-montaj ishlari uchun **623,9 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

2025-yil yakuni bilan **issiqlik ta'minoti** bo'yicha jami **54 ta** obyektlarda **221,6 km** issiqlik tarmoqlarini tortish hamda **32 ta** isitish qozonxonalarini qurish ishlari amalga oshirildi.

Yo'l-transport infratuzilmasi



1. 404 ta umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini, ichki xo'jaliklararo avtomobil yo'llari va shahar ko'chalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash va ko'priklarni qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, texnika va mashina-mexanizmlar xarid qilish uchun **3 505 mlrd so'm** transfert mablag'lari yo'naltirildi.

Ushbu mablag'larning o'zlashtirilishi hisobiga yil yakuni bilan jami **412,7 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari hamda **1 405,8 pm** ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurish va ta'mirlash ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirildi.

2. 2025-yilgi dastur doirasida 3 ta temir yo'l transporti va metro obyektlarini qurish ishlarini amalga oshirish uchun **148 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

Ushbu ajratilgan mablag'lar doirasida xizmat muddatini o'tab bo'lgan SP-6 BM, SP-6M rusumli strelkali elektr o'tkazgichlar, tungi vaqtda texnologik ishlarini bajarish uchun zamonaviy AGM rusumidagi avtomotrisani almashtirish va metro vagonlari g'ildiraklarini charxlovchi dastgohlar o'rnatish ishlari amalga oshirildi.



Irrigatsiya va melioratsiya obyektlari:

a) 2025-yilgi dastur doirasida 217 ta **irrigatsiya obyektining** (*34 ta yildan-yilga o'tuvchi, 183 ta yangidan boshlanuvchi*) qurilish ta'mirlash ishlariga **1 551,4 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

2025-yilgi dastur doirasida ajratilgan mablag'lar hisobiga **705,4 km** kanal, **47,1 km** lotok tarmoqlari, **70 ta** gidrotexnik inshoot, **53,2 m³/sek** suv chiqarish quvvatiga ega bo'lgan nasos stansiyalar, **6,3 km** bosimli quvurlar, **46 ta** sug'orish qudug'i qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.



b) 2025-yilgi dastur doirasida 41 ta **melioratsiya obyektlarining** (*5 ta yildan-yilga o'tuvchi, 36 ta yangidan boshlanuvchi*) qurilish ta'mirlash ishlariga hisobot davri yakuni bilan **115,9 mlrd so'm** mablag'lar o'zlashtirildi.

2025-yilgi dasturi doirasida ajratilgan mablag‘lar hisobiga **203,4 km** ochiq, **100,2 km** yopiq gorizontal kollektor-drenaj tarmoqlari, **1 ta** nasos stansiya, **22 ta** gidrotexnik inshoot va **100 ta** kuzatuv va tik drenaj quduqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.



Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining texnik holati yaxshilanib, loyihalar hududidagi **380 ming gektar** maydonlarning **suv ta‘minoti** va **108 ming gektar** sug‘oriladigan yer maydonlarining **meliorativ holati** yaxshilanishiga erishildi.

Ma‘muriy-hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek, alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish:

a) Hududlarning bosh rejalari, arxitektura-rejalashtirish loyihalari va sxemalarini hamda batafsil rejalashtirish loyihalarini ishlab chiqish ishlari uchun 2025-yilda **260,1 mlrd so‘m** ajratildi.

Buning natijasida respublikamizdagi **284 ta** shahar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalari ishlab chiqilib, Shaharsozlik geoaxborot tizimiga kiritildi.

b) Respublikamizdagi aerodromlar hududida aviatsiya meteorologiya stansiyalarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirilgan aviatsiya meteorologiya stansiyasi o‘rnatish ishlari uchun **19,9 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.



v) 2025-yilda **27 ta** o‘rmon xo‘jaligi obyekti va **2 ta** ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi obyektlari qurilish-montaj ishlari amalga oshirilib, ishga tushirildi.



2025-yilda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi hamda o‘rmon xo‘jaligi vazirligining tegishli sohaviy obyektlarining **29 tasi** bo‘yicha pudrat tashkilotlari aniqlanib, qurilish-montaj ishlari amalga oshirish uchun **26,8 mlrd so‘m** mablag‘ ajratildi.

Qirg'oq bo'yi va boshqa himoya inshootlari:

2025-yilgi dastur doirasida 67 ta **qirg'oqbo'yi va boshqa himoya inshootlarini mustahkamlash obyektlarida** (12 ta yildan-yilga o'tuvchi, 55 ta yangidan boshlanuvchi) qurilish ta'mirlash ishlarini amalga oshirish ishlariga **125,8 mlrd so'm** mablag'lar ajratildi.

2025-yilgi Dastur doirasida ajratilgan mablag'lar hisobiga **63,9 km** daryo o'zanini tozalash, qirg'oqlarini mustahkamlash va damba qurish ishlari amalga oshirildi.

Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash:

2025-yil yakuni bilan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalar hamda investitsiya loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash uchun 145 ta obyektga **1 492,9 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirildi.

Jumladan:

– Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini qurish ishlariga 306,1 mlrd so'm;

– Avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarni qurish ishlariga 205,6 mlrd so'm;

– Tashqi elektr tarmoqlari bilan ta'minlash uchun 880,8 mlrd so'm;

– Tashqi tabiiy gaz tarmoqlari bilan ta'minlash uchun 17,8 mlrd so'm

– Temir yo'l qurish ishlariga 30,7 mlrd so'm.

Ushbu ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilishi natijasida **51,9 ming ish o'rniga ega bo'lgan 920 ta investitsiya loyihalari** zaruriy infratuzilma bilan ta'minlandi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlari asosida tasniflash natijalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, BRMM hisobga olinishi va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyihasini tayyorlash hamda ko'rib chiqishda aks ettirilishini ta'minlash belgilangan. Qarorda tasdiqlangan **16 ta milliy maqsad va 127 ta vazifani monitoring qilish uchun 190 ta indikator** belgilab olingan

Davlat budjetining BRMMni amalga oshirish uchun xarajatlarini tasniflash uslubiyoti resurslarni taqsimlash, qo'shimcha moliyalashtirishni talab qiladigan sohalarni aniqlash va xarajatlar samaradorligini tahlil qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, budget mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni, xabardorlik va javobgarlikni oshiradi.

Davlat budjeti xarajatlarining BRMM maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatib borish (tasniflash) Konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

tasniflash qamrovi, obyekti va darajasi;

xarajatlarni aniqlash;

chora-tadbirlarning budget ma'lumotlariga muvofiqligini ta'minlash;

budget jarayonlariga integratsiya qilish;

xarajatlarni iqlim jihatidan tasniflashni tatbiq qilishga qaratilgan qisqa va uzoq muddatli harakatlar;

xarajatlarni BRMM maqsadlari asosida tasniflash.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash jarayonida Davlat budjeti mablag'larining kengroq qamrab olinishi, BRMM bo'yicha budget xarajatlari miqdori haqida to'liqroq ma'lumot beradi.

2025-yilda Davlat budgetining xarajatlari (davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan transfertlar bilan birga) **383,9 trln so'mni** tashkil etdi.

Shundan ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar ulushi 47 foizni tashkil etdi. Ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarning oshishi aholining turmush darajasini yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

18-jadval

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari

mlrd so'm

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar		2025-yil ijrosi	
		Summa	Xarajatdagi ulushi, foizda
Jami		294 865,0	76,8
	1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish	36 485,2	9,5
	2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish	3 155,8	0,8
	3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish	47 305,0	12,3

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar		2025-yil ijrosi	
		Summa	Xarajatdagi ulushi, foizda
	4-maqсад. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish	90 176,4	23,5
	5-maqсад. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	596,4	0,2
	6-maqсад. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamdaulardan oqilona foydalanishni ta'minlash	13 857,7	3,6
	7-maqсад. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash	5 889,1	1,5
	8-maqсад. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta'minlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga ko'maklashish	3 656,6	1,0
	9-maqсад. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga ko'maklashish	22 546,3	5,9
	10-maqсад. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha ko'rinishlarida qisqartirish	616,9	0,2
	11-maqсад. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta'minlash	31 188,3	8,1
	12-maqсад. Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash	1 675,4	0,4
	13-maqсад. Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni qabul qilish	946,0	0,2
	15-maqсад. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko'maklashish, o'rmonlardan oqilona foydalanish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to'xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo'qolib ketish jarayonini to'xtatish	2 432,9	0,6
	16-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga ko'maklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni ta'minlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish	9 664,4	2,5
	17-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish	24 672,5	6,4


Davlat budjeti xarajatlari ijrosini “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashda birinchi navbatda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta’sirga ega tadbirlar aniqlab olinadi. Iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta’sirga ega tadbirlar quyidagi **3 ta guruhga** (atrof-muhit maqsadlari) ajratiladi hamda ushbu guruhlarining har biri “ijobiy” va “salbiy” ta’siri bo’yicha tahlil qilinadi:

- 1) Iqlim o‘zgarishi **ta’sirini yumshatish** tadbirlari;
- 2) Iqlim o‘zgarishi **oqibatlariga moslashish** tadbirlari;
- 3) **Atrof-muhit masalalari bilan bog‘liq boshqa ta’sirlar.**

Xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir budjet satri yuqorida keltirilgan 3 ta atrof-muhit maqsadlariga ta’sir ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan baholansa, ikkinchi bosqichda baholangan har bir budjet satri quyidagi 4 ta toifa bo’yicha guruhlanadi:

47-rasm



Davlat budjeti xarajatlarning 2025-yil ijrosi “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida **tasniflash natijalariga** ko‘ra:

“A” toifa bo’yicha xarajatlar miqdori 35,7 trln so‘m bo‘lib, jami xarajatlardagi ulushi 9,3 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada suv xo‘jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta’minlashga oid tadbirlar xarajatlari (*suv tadbirlari iqlim o‘zgarishi sharoitida muhim o‘rin tutadi*), hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va obodonlashtirish bo’yicha xarajatlar (*hududlarda infratuzilmalarni rivojlantirilishi, obodonlashtirish iqlim o‘zgarishiga moslashtirish tadbirlari hisoblanadi*), o‘rmon xo‘jaligi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishi vazirligini saqlash xarajatlari, jamoat transporti bo’yicha xarajatlar va boshqa atrof-muhit maqsadlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar inobatga olingan.

“B” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarning kombinatsiyasiga ega xarajatlar miqdori 7,8 trln so'm bo'lib, jami xarajatlardagi ulushi 2,0 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari (*faoliyat atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, kam uglerodli faoliyatlar uchun zarur bo'lgan minerallarni aniqlaydi*), veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi va hududiy bo'linmalari xarajatlari (*veterinariya xizmati hayvonlarni iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashtirishga yordam ko'rsatsa-da, chorvachilik faoliyati iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi*) ko'zda tutilgan.

“C” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ijobiy ta'sirga ega emas xarajatlar miqdori 64,4 mlrd so'm bo'lib, jami xarajatlardagi ulushi 0,02 foizni tashkil etadi. Bu toifaga issiqxona gazlari emissiyalarini oshishiga olib keluvchi, suv sarfini oshiruvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi tadbirlar, biologik xilma-xillik va ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlar kiradi.

“D” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar miqdori 340,4 trln so'm bo'lib, jami xarajatlardagi ulushi 88,7 foizni tashkil etadi. Ushbu toifada iqlim o'zgarishi va atrof-muhit maqsadlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydigan, tashkilotlarni saqlash xarajatlari kiritiladi.

19-jadval

Davlat budjeti xarajatlarining 2025-yil ijrosini “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari

trln so'm

Toifalar	2025 yil ijro	foiz
Jami	383,9	100
“A” toifa (atrof-muhit maqsadlarining kamida bittasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va salbiy ta'sirga ega bo'lmagan xarajatlar)	35,7	9,3
“B” toifa (atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarning kombinatsiyasiga ega bo'lgan xarajatlar)	7,8	2,0
“C” toifa (atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ijobiy ta'sirga ega emas xarajatlar)	0,06	0,02
“D” toifa (atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar)	340,4	88,7

Budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari ijrosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-455-sonli qarorning 7-ilovasiga muvofiq **44 ta** vazirlik va idoralarning 2025 - 2027-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.

Tegishli vazirlik va idoralarning budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining 2025-yil ijrosi to'g'risidagi hisoboti ular tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga asosan shakllantirildi.

2025-yil uchun **44 ta** vazirlik va idoralarning **152 ta** rivojlanish dasturlari uchun **162,3 trln so'm** budjet mablag'lari hisobiga erishishi lozim bo'lgan **715 ta maqsadli indikatorlari** (*yakuniy natija ko'rsatkichi -256 ta, bevosita natija ko'rsatkichi -459 ta*) tasdiqlangan.

Vazirlik va idoralarning budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarining 2025-yil ijrosi to'g'risidagi batafsil hisoboti ilovada keltirilgan jadvalga muvofiq taqdim etiladi.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilariga respublika budjetidan ajratilgan mablag'larning 2025-yil ijrosi

Hisobot davrida birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan o'zlashtirilgan mablag'lar miqdori **293 185,4 mlrd so'mni** yoki 2025- yilda ajratilgan mablag'larning **96,6 foizini** tashkil etdi. Jumladan:

- joriy xarajatlar o'zlashtirilishi **221 466,5 mlrd so'mni** tashkil etgan;
- obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalariga **13 775,8 mlrd so'm** mablag' sarflandi.
- respublika budjetidan davlat maqsadli jamg'armalariga ajratilgan mablag'lar miqdori **36 136,4 mlrd so'mni** tashkil etdi.
- O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga **18 462,6 mlrd so'm** tartibga soluvchi transfertlar o'tkazib berildi.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilariga respublika budjetidan ajratilgan mablag'lar

mln so'mda

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar, jami	303 371 350,3	293 185 407,6	96,6	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	228 027 965,8	221 466 503,3	97,1	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	26 487 248,4	26 171 669,2	98,8	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	13 936 898,9	13 775 819,7	98,8	
	davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	36 844 230,8	36 136 352,5	98,1	
	O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	18 462 554,8	18 462 554,8	100,0	
	qayta taqsimlanadigan mablag'lar	6 099 699,9	3 344 177,2	54,8	
1.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	59 766 986,3	58 870 730,7	98,5	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	53 875 827,3	53 153 037,3	98,7	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	2 205 604,0	2 153 335,4	97,6	
	umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash bilan bog'liq xarajatlar	1 334 126,8	1 301 260,7	97,5	
	Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	250 000,0	250 000,0	100,0	
	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	69 900,0	69 900,0	100,0	
	maktablarda ma'nan eskirgan kompyuter sinflarini yangilash uchun xarajatlar	191 888,1	191 888,1	100,0	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi muassasalarni sport jihozlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	61 651,9	61 651,9	100,0	
	xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish uchun xarajatlar	138 218,5	126 693,4	91,7	Xorijiy tillar bo'yicha jalb etilgan mutaxassislarning viza rasmiylashtirish, vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish hamda tibbiy sug'urta jarayonlarini amalga oshirish belgilangan muddatdan ko'proq vaqt talab qilganligi sababli 2025-yilda ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.
	umumta'lim maktablarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	49 374,0	49 374,0	100,0	
	davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini didaktik materiallar bilan ta'minlash uchun xarajatlar	67 475,0	67 076,4	99,4	
	davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga planshetlar xarid qilish uchun xarajatlar	35 490,9	35 490,9	100,0	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	umumta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etish va ularga "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalar farzandlarini jalb qilish uchun mablag'lar *	18,3	0,0	0,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
	davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga subsidiyalar *	7 460,5	0,0	0,0	Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash uchun 2025-yilda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining taqdim etilgan talabnomalariga muvofiq 3 950 mlrd so'm mablag'lar ajratilgan bo'lib, talabnomalarga asosan mablag'lar to'liq ajratilgan. Buning natijasida 7,5 mlrd so'm mablag'lar iqtisod qilingan. Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	5 755 192,3	5 717 693,4	99,3	
	qayta taqsimlanadigan mablag'lar	135 966,8	0,0	0,0	
	Yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida "Toza qo'llar" dasturi uchun xarajatlar *	102 102,3	0,0	0,0	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-maydagi 297-sonli qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida "Toza qo'llar" dasturini amalga oshirish uchun dastlabki hisob-kitoblarga asosan 311,4 mlrd so'm mablag' talab etilishi belgilangan bo'lib, shundan 98,8 mlrd so'mi 2025-yil davomida mahalliy budjetlarning maqbullashtirilgan mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Qolgan ehtiyojni qoplash maqsadida respublika budjet mablag'lari hisobidan hududlarga 209,3 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lib, buning natijasida 102,2 mlrd so'm mablag' o'zlashtirilmagan.

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
					Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish xarajatini belgilanishi hamda ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar uchun *	33 864,4	0,0	0,0	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir tarbiyalanuvchi uchun kunlik ovqatlantirish xarajatini belgilanishi hamda ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar uchun 2025-yilda 255,3 mlrd so'm mablag'lar ajratilishi belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan hududlardagi oziq-ovqat xarajatlari hamda mavjud qarzдорliklarni qoplab berish bo'yicha o'rganish o'tkazilganligi hamda yakuniy xulosasiga ko'ra 221,4 mlrd so'm mablag'lar yo'naltirilgan va 33,9 mlrd so'm mablag'lar iqtisod qilingan. Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	5 822 176,7	5 573 199,1	95,7	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	5 100 363,7	4 852 674,3	95,1	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	248 830,3	236 710,7	95,1	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash uchun xarajatlar *	41,4	0,0	0,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
	davlat-xususiy sheriklik va davlat oliy ta'lim muassasalarining buyurtmalari asosida talabalar turar joylarni barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar	222 467,5	212 219,2	95,4	
	davlat xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joylarida yashaydigan talabalar uchun davlat sherigiga ajratiladigan subsidiyalar	24 499,9	24 491,5	100,0	
	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalar *	1 821,5	0,0	0,0	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga amaliyotni o'tash davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oylik subsidiyalar to'lash uchun 2025-yil 2 mlrd so'm mablag'lar ko'zda tutilgan bo'lib, yil davomida taqdim etilgan

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
					buyurtmanomalar asosida 178,5 mln so'm mablag'lar moliyalashtirildi. Ta'lim muassasalari tomonidan boshqa buyurtmanomalar kelib tushmaganligi sababli 1,8 mlrd so'm o'zlashtirilmagan. Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavada keltirilgan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	163 709,9	162 421,8	99,2	
	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfertlar	558 103,0	558 103,0	100,0	
3.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	5 649 078,6	5 606 518,3	99,2	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	4 485 688,1	4 445 152,3	99,1	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	1 545 358,6	1 534 137,6	99,3	
	bolalarni vaksinatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar	242 000,0	241 014,3	99,6	
	onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish, shuningdek aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash uchun xarajatlar	117 313,4	117 297,9	100,0	
	bolalarni hamda tug'ish yoshidagi ayollarni, homilador ayollarni va bola emizikli onalarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash uchun xarajatlar	45 096,3	45 096,3	100,0	
	onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish uchun xarajatlar	159 098,0	158 236,1	99,5	
	nefrologiya va gemodializ yordamini ko'rsatish uchun xarajatlar	305 289,4	300 308,9	98,4	
	endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	74 857,7	74 398,9	99,4	
	ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirish uchun xarajatlar	39 200,0	37 994,9	96,9	
	odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasalliklar tarqalishiga qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar	27 411,0	27 005,0	98,5	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	har yili 2 500 ta okklyuder xarid qilish uchun xarajatlar	13 519,6	13 519,6	100,0	
	aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish xarajatlari	25 183,9	24 902,1	98,9	
	neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantatlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish uchun xarajatlar	60 287,0	60 055,0	99,6	
	onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ("K" vitamini, surfaktant va boshqalar) bilan ta'minlash uchun xarajatlar	13 283,0	13 158,4	99,1	
	otorinolaringologiya xizmatini rivojlantirish uchun xarajatlar	97 387,0	97 387,0	100,0	
	buyrak va jigar transplantatsiyasi bo'yicha jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	128 612,0	127 047,2	98,8	
	qon komponentlari zaxirasini yaratish maqsadida qon bilan ishlash xizmati muassasalarini zarur miqdordagi gemokonteynerlar bilan ta'minlash uchun xarajatlar	58 146,2	58 146,2	100,0	
	nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar	14 142,1	14 050,1	99,3	
	virusli gepatitning "S" va "V" turlarini erta tashxislash va virusga qarshi maxsus davolash ishlarini tashkil etish uchun xarajatlar	16 709,9	16 709,0	100,0	
	bolalar tibbiyot va tug'ruq muassasalarida yuqori texnologik laboratoriya uskunalaridan to'laqonli va samarali foydalanish maqsadida reagentlar, sarflov anjomlari hamda servis xizmat ko'rsatish uchun xarajatlar	9 525,0	9 525,0	100,0	
	ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish dasturi xarajatlari	26 938,4	26 934,6	100,0	
	allergik va ikkilamchi immunitet tanqisligi kasalliklariga chalingan "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan bemorlarga ingalyatsion glyukokortikosteroid dori vositalarini bepul tarqatish uchun xarajatlar	5 823,7	5 816,2	99,9	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini shakllantirish uchun xarajatlar	55 535,0	55 535,0	100,0	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	Sirdaryo viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalar, shuningdek lokal tarmoq bilan ta'minlash xarajatlari *	10 000,0	10 000,0	100,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	563 390,5	561 366,0	99,6	
	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga transfertlar	600 000,0	600 000,0	100,0	
	<i>shu jumladan:</i>				
	"spinal mushak atrofiyasi" tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish uchun xarajatlar	200 000,0	200 000,0	100,0	
	iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun xarajatlar	50 000,0	50 000,0	100,0	
	sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlar	50 000,0	50 000,0	100,0	
	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar	300 000,0	300 000,0	100,0	
4.	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	1 510 203,3	1 471 923,0	97,5	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	1 378 184,5	1 348 613,3	97,9	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	270 812,5	265 122,0	97,9	
	davlat buyurtmasiga asosan milliy kino mahsulotlarini yaratish uchun xarajatlar	110 964,8	110 883,0	99,9	
	"Tirik tarix" dasturi doirasidagi filmlarni yaratish uchun xarajatlar	70 000,0	70 000,0	100,0	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsidiyalar	12 000,0	11 999,3	100,0	
	Madaniyat vaziri jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	50 000,0	50 000,0	100,0	
	"Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazish uchun xarajatlar	10 000,0	9 454,5	94,5	
	bolalar musiqa va san'at maktablarini, madaniyat markazlarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	10 000,0	9 937,4	99,4	
	xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston hududida kino ishlab chiqarish xarajatlarning bir qismini qoplash uchun xarajatlar	5 000,0	0,0	0,0	Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston hududida kino ishlab chiqarish xarajatlarning 20 foizini qoplash Davlat budgetidan 2025-yilda 5 mlrd so'm mablag'lar ko'zda tutilgan bo'lib, yil yakuniga qadar xorijiy kinokompaniyalar tomonidan xarajatlarning bir qismini qaytarish ("rebate") bo'yicha so'rovlar kelib tushmaganligi natijasida ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilmagan.
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	Samarqand viloyatida ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar *	2 847,7	2 847,7	100,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ilovada keltirilgan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	132 018,8	123 309,7	93,4	Navoiy viloyati Yangi O'zbekiston bog'i hududida Amfiteatr majmuasini qurish bo'yicha obyektning qiymatiga kompleks ekspertiza xulosasini o'z vaqtida olinmaganligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani, Olmazor MFY hududida yangi Amfiteatr binosini qurish uchun Vazirlar Mahkamasining Rayosat bayoniga asosan qo'shimcha mablag'lar ajratilgan bo'lib, obyektning loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish va tenderdan o'tkazish ishlari kechikkanligi sababli ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.
5.	O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi	2 013 153,8	1 858 213,9	92,3	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	1 751 096,6	1 597 670,0	91,2	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	971 333,9	970 817,7	99,9	
	Olimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	490 000,0	490 000,0	100,0	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	Paralimpiya o'yinlariga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	50 000,0	50 000,0	100,0	
	sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritilgan tadbirlar uchun xarajatlar	259 826,7	259 355,5	99,8	
	"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o'tkazilgan sport musobaqalarida g'olib bo'lgan, shuningdek sport infratuzilmasi rivojlanmagan mahallalarda sport maydonchalarini barpo etish uchun xarajatlar	83 970,0	83 969,9	100,0	
	"Kurash" xalqaro assotsiatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar	11 100,0	11 093,2	99,9	
	"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish uchun xarajatlar	28 537,1	28 499,1	99,9	
	sport maktablari tibbiyot punktlarini zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash, zamonaviy o'quv adabiyotini chop etish va xarid qilish, sport maktablari tarbiyalanuvchilarini (terma jamoalarini) maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar) bilan ta'minlash uchun xarajatlar	20 000,0	19 999,7	100,0	
	O'zbekiston futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	27 900,2	27 900,2	100,0	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	262 057,2	260 543,9	99,4	
6.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi	3 911 369,0	3 789 695,5	96,9	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	111 528,5	98 372,9	88,2	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	66 261,8	66 208,1	99,9	
	shaharsozlik norma va qoidalarini ishlab chiqish uchun xarajatlar	35 208,0	35 208,0	100,0	
	<i>shu jumladan qayta taqsimlanadigan mablag'lar:</i>				
	respublika hududlarida aholiga ichimlik suvi tarmoqlarini uy xo'jaliklarigacha yetkazish bo'yicha xarajatlar *	7,8	0,0	0,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ildavda keltirilgan.

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	issiqlik ta'minoti korxonalarining qozonxona uskunalarini va issiqlik tizimlarini ta'mirlash uchun xarajatlar *	1 046,0	1 045,7	100,0	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ilovada keltirilgan.
	respublikadagi 1991-yilgacha qurilgan ko'p kvartirali uy-joy fondini pasportlashtirish uchun xarajatlar *	30 000,0	29 954,4	99,8	Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan ma'lumotlar 10-ilovada keltirilgan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 643 976,1	1 588 014,3	96,6	2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida issiqlik ta'minoti tizimlarini barpo etish, sanoat zonalariga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tortish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlaridan 51,4 mlrd so'm o'zlashtirilmay qolgan. Shundan, 112 ta obyektida 16,3 mlrd so'm mablag'lar iqtisod qilib qolinganda hamda 72 ta obyektida 35,1 mlrd so'mlik qurilish-montaj ishlari o'z vaqtida bajarilmaganligi sababli mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.
	<i>shundan:</i>				
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	20 889,6	19 556,2	93,6	
44.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)	3 108,1	2 865,9	92,2	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	3 108,1	2 865,9	92,2	
45.	"Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi	818,4	728,5	89,0	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	818,4	728,5	89,0	
46.	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	10 928,0	9 762,4	89,3	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	10 928,0	9 762,4	89,3	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
47.	O'zbekiston Respublikasi Milliy antidoping agentligi	8 831,6	7 516,3	85,1	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	8 831,6	7 516,3	85,1	
48.	O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi	236 949,2	228 925,1	96,6	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	236 949,2	228 925,1	96,6	
49.	O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi	684 553,8	677 121,7	98,9	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	630 351,8	623 198,3	98,9	
	shundan:				
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	131 556,4	129 233,7	98,2	
	madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxeologik ishlar uchun xarajatlar	125 000,0	123 068,6	98,5	
	davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun xarajatlar	6 556,4	6 165,1	94,0	Davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun 2025-yilda 6,6 mlrd so'm mablag' rejalashtirilgan bo'lib, yil davomida ushbu mablag'larga to'liq shatnoma tuzilgan. Biroq, pudratchi va loyihachi tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlar uchun hujjatlar to'liq taqdim etilmaganligi natijasida 391,3 mln so'm mablag' o'zlashtirilmagan.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	54 202,0	53 923,3	99,5	
50.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi	21 118 022,6	19 563 542,6	92,6	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	21 016 242,6	19 462 449,7	92,6	
	shundan:				
	kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar	4 241 937,6	4 194 979,8	98,9	
	nogironligi bo'lgan bolalarga nafaqalarni to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar	2 064 114,2	2 033 541,8	98,5	
	mehnatga layoqatsiz va zarur ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga hamda nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga nafaqalarni to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar	6 087 520,5	6 022 266,1	98,9	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	bola tug'ilishi uchun beriladigan nafaqani to'lash uchun ajratiladigan mablag'lar	231 032,4	205 342,5	88,9	Farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa pulini rasmiylashtirish tartibiga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, ikkinchi farzand tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa puli faqat Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan oilalarga berilishi belgilandi. 2025-yil davomida Ijtimoiy himoya yagona reyestriga kiritilgan 879 mingta oilalarga nafaqa to'lovlari to'lab berilgan.
	dafn marosimi xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan mablag'lar	316 654,3	290 563,5	91,8	Dafn marosimi xarajatlarini qoplash bo'yicha 2025-yilda 162 309 ta dafn puli olish uchun arizalar kelib tushgan bo'lib, hisobot davrida barcha arizalar to'liq qanoatlantirilgan bo'lib, 26,1 mlrd so'm mablag'lar iqtisod qilingan.
	muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	195 029,7	188 828,4	96,8	
	Qoraqalpog'iston Respublikasidagi va Xorazm viloyatidagi muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam to'lash uchun xarajatlar	11 256,7	4 916,7	43,7	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-avgustdagi 515-sonli qarori bilan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir marta beriladigan moddiy yordam o'rniga Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga turar joyida artezian qudug'i qazish, suv nasoslarini o'rnatish hamda ichimlik suvi filtrlarini xarid qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish tartibi joriy etildi. Bunda, muhtoj oilalarga moddiy yordam berish tartibi bekor qilinib, Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalarga subsidiya berish yangi tizimi joriy etildi. Shu munosabat bilan 2025-yilda ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.
	yetim bolalarni va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash uchun xarajatlar	140 063,6	135 616,1	96,8	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	101 780,0	101 092,9	99,3	
51.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	1 441 485,5	1 433 605,0	99,5	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	1 441 485,5	1 433 605,0	99,5	
	<i>shundan:</i>				
	mahallalarning boshqaruv tizimi faoliyatini moliyalashtirish uchun mablag'lar	1 043 414,3	1 043 414,3	100,0	
52.	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar agentligi	487 305,7	483 373,1	99,2	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	487 305,7	483 373,1	99,2	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	389 029,9	388 981,3	100,0	
	Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni kengaytirish va yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash hamda subsidiyalar uchun mablag'lar	277 100,0	277 100,0	100,0	
	2026-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	50 000,0	49 986,3	100,0	
	Jahonda mashhur bo'lgan kitoblarni tarjima qilish, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari	12 000,0	11 999,0	100,0	
	"Zakovat" intellektual klubi xarajatlari	49 929,9	49 896,0	99,9	
53.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	133 129,5	124 408,5	93,4	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	123 129,5	114 408,5	90,8	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	80 683,0	72 387,2	89,7	
	etalonlar va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini xarid qilish uchun xarajatlar	80 683,0	72 387,2	89,7	Etalonlar va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini xarid qilish tender savdolari orqali aniqlangan bo'lib, mazkur tender savdolarida narxlar pasayganligi hisobiga ajratilgan mablag'lar iqtisod qilindi.
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	10 000,0	10 000,0	100,0	
54.	O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi	55 077,9	51 537,7	93,6	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	55 077,9	51 537,7	93,6	
55.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi	47 967,4	43 559,2	90,8	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	47 967,4	43 559,2	90,8	
56.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi	43 990,0	37 008,7	84,1	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	43 990,0	37 008,7	84,1	
57.	O'zbekiston Respublikasi Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi	3 039,6	1 806,3	59,4	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	3 039,6	1 806,3	59,4	Ushbu tashkilot yangi tashkil etilganligi sababli 2025-yilda 12 ta shtat birliklari to'ldirilmaganligi natijasida ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovga reja qilingan mablag'larning to'liq o'zlashtirilmagan Shu bilan birga, tashkilotning boshqa xarajatlari bo'yicha quyidagi sabablarga ko'ra o'zlashtirilmagan, jumladan: – tashkilot yangi tashkil qilinganligi sababli xizmat safariga ajratilgan mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan; – vakant lavozimlar evaziga reja qilingan idora ashyolari va poligrafiya mahsulotlarini to'liq sotib olinmaganligi sababli tovar moddiy boyliklar xarajatlari to'liq o'zlashtirilmagan; – kommunikatsiya xizmatlari shartnomalarining asosiy qismi budjetdan tashqari mablag'lardan amalga oshirilganligi sababli mablag'lar to'liq o'zlashtirilmagan.
58.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi	28 443,8	25 670,2	90,2	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	28 443,8	25 670,2	90,2	
59.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi	9 864,5	9 753,6	98,9	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	9 864,5	9 753,6	98,9	
60.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi	81 798,3	50 000,0	61,1	
	<i>shu jumladan:</i>				
	joriy xarajatlar	31 700,0	0,0	0,0	Budjet xarajatlarning maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlash doirasida o'tkazilgan o'rganishlar davomida "Migratsiya" jamg'armasining yil boshiga qoldiq mablag'lari parametrga nisbatan ko'p shakllanganligi va yil yakuniga qadar o'zlashtirish holatini hisobga olgan holda jamg'armaga transfertlar maqbullashtirilib, birinchi darajali budjet mablag'ini taqsimlovchining joriy xarajatlari tarkibiga o'tkazilgan (O'RQ-1106-son).
	Migratsiya jamg'armasiga transfertlar	50 098,3	50 000,0	99,8	

T/r	Vazirlik va idoralar	Reja	Ijro	Foiz	Izoh
61.	O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi	16 405,9	15 486,5	94,4	
	shu jumladan:				
	joriy xarajatlar	16 405,9	15 486,5	94,4	
62.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi	11 801,3	11 120,9	94,2	
	shu jumladan:				
	joriy xarajatlar	11 801,3	11 120,9	94,2	
63.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi	294 331,3	243 000,1	82,6	
	shu jumladan:				
	joriy xarajatlar	294 331,3	243 000,1	82,6	
64.	Boshqa tashkilotlar	71 246 852,0	70 774 270,8	99,3	
	shu jumladan:				
	joriy xarajatlar	69 784 200,9	69 323 268,6	99,3	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	1 462 651,1	1 451 002,2	99,2	

* – Ushbu yo‘nalishlar uchun ajratilgan mablag‘larning sarflanishi yuzasidan ma’lumotlar 10-ilovada keltirilgan.

IV. Kambag'allikni qisqartirish va aholi yashash darajasini oshirish tadbirlarini moliyalashtirish

Prezidentimiz tashabbuslari bilan aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish – bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, odamlarni ish bilan ta'minlash va shu orqali ularning turmush darajasini oshirish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

2025-yilda respublika bo'ylab 5,4 million nafar fuqaro daromadli mehnat bilan band qilindi. Bu belgilangan rejadan 4 foizga ko'p bo'lib, aholi bandligini ta'minlash borasida jiddiy ilgarilash kuzatildi.

Aholi bandligi va daromadini oshirishga quyidagilar hisobiga erishildi:

– “Sayxunobod” tajribasi bo'yicha mahallalarda qariyb **410 mingta mikroloyihalar** ishga tushirilib, **841 ming nafar** aholining daromadi oshirildi;

– “Uychi” tajribasi doirasida banklar tomonidan o'z mijozlari bilan **25,3 mingta uchrashuvlar** o'tkazilib, ularda ko'tarilgan **107 mingta** muammoli masalalar **ijobiy hal** etildi;


– “Zarbdor” tajribasi bo'yicha ajratilgan mablag'lar doirasida **672 ta drayver loyihalari** yo'nalishlarida **60 ming** nafar aholi bandligi ta'minlandi;

– Mahallalarda **97 mingta** xonadonlarga yiliga **60-70 mln so'm** kafolatli daromad keltiradigan **2,6 trln so'mlik “Loyiha paketlari”** taqdim etildi;

– **Kichik va o'rta biznesga jami 134 trln so'm**, shundan tadbirkorlik dasturlari doirasida **30,4 trln so'mlik** (2024-yilga nisbatan 1,5 barobarga oshgan);

– Ishsiz va daromadini oshirish istagida bo'lgan **319,1 ming nafar** fuqarolar kasb-hunarga o'qitildi.

48-rasm



Bandlik dasturi ijrosi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida yaratilgan ish o‘rinlari to‘g‘risidagi hisobotlarni yuritishning **yangi tizimi** joriy qilindi.

Bunda, mas’ullar tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar **2 bosqichda**, ya’ni **tuman va shahar** hamda **hududlar darajasida** tanqidiy ko‘rib chiqilib, **solliq organlari** tomonidan tekshirilgandan so‘ng, **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga** yuborilishi belgilandi.

Yil boshidan **691 mingta** oila (*aholi soni 2,9 mln nafar*) “**Kambag‘al oilalar reyestri**”ga kiritilgan bo‘lib, 2025-yilda “**individual rejalar**” doirasida **523 mingta** oilaga (*reja – 327 ming*) daromadini oshirishga qaratilgan qariyb **951 mingta xizmatlar** ko‘rsatildi.

Jumladan, 369 mingtasi ishga joylashtirildi, 395,3 mingtasi tadbirkorlikka jalb etildi, 132,4 mingtasi kredit va subsidiya mablag‘lari ajratildi, 54,2 mingtasi kasb-hunarga o‘qitildi.

O‘z navbatida, kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun davlat budjeti xarajatlarining **11,9 foizi** yoki **45,5 trln so‘m** miqdoridagi mablag‘lar yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **PQ-330-sonli** qarori hamda 2025-yil 19- martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-50-sonli** Farmoniga asosan ijrosini ta’minlash maqsadida har bir tuman va shaharning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi **5 tadan “drayver” loyihalarni** shakllantirish va ularga zarur infratuzilmani yaratish uchun **1,3 trln so‘m** mablag‘ ajratilgan.

Mazkur ajratilgan mablag‘lar hisobidan hududlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi **666 ta “drayver” loyihalarni (115 ta sanoat, 478 ta xizmat ko‘rsatish, 73 ta qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida)** zarur infratuzilma bilan ta’minlash ishlari amalga oshirildi.

Loyihalar doirasida jami **294 mlrd so‘mlik** yo‘l infratuzilmasi, **615 mlrd so‘mlik** obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, **118 mlrd so‘m** elektr ta’minoti, **137 mlrd so‘m** sug‘orish suvi va **51 mlrd so‘m** ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash tadbirlari bajarildi.

Bajarilgan ishlar hisobiga hududlarda tadbirkorlik rivojlanishi uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi loyihalar amalga oshirildi:

- “24/7” rejimida **tun-u kun faoliyat ko‘rsatuvchi ko‘chalarni** tashkil etish;
- **yo‘l bo‘ylarida xizmat ko‘rsatish komplekslarini** ishga tushirish;

- **sohil bo‘ylarida dam olish maskanlarini** tashkil etish;
- **istirohat bog‘larini** zamonaviy ko‘rinishga keltirish;
- **sanoat zonalaridan** samarali foydalanish;
- mahallalarda **sanoat mikromarkazlari** tashkil qilish;
- aholiga ijara asosida ajratilgan yer maydonlarining **suv ta‘minotini yaxshilash**;
- **yer maydonlarini o‘zlashtirish** kabi mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish.

*Misol uchun, **Sirdaryo viloyati**, Sayhunobod tumani “O‘rikzor” mahallasi hududi Sirdaryo daryosining bo‘yida **4,5 mlrd so‘m** mablag‘ hisobidan **1,3 km** yo‘l va elektr infratuzilmasi yaxshilanib, zamonaviy sohil bo‘yi va dam olish maskani barpo etish ishlari boshlangan.*

*Shuningdek, **Andijon viloyati**, Oltinko‘l tumani “Uyg‘ur” mahallasi hududidagi **16 gektar** yer maydonida “**Mebelsozlik sanoat kompleksi**” tashkil etish uchun **4 mlrd so‘m** mablag‘ hisobidan ichimlik va oqova suv tarmog‘i tortildi. Natijada, ushbu sanoat kompleksida **40 ta** yangi tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, **500 ga** yaqin ish o‘rinlari yaratildi.*

***Surxondaryo viloyati**, Jarqo‘rg‘on tumani “Qo‘sh tepa” mahallasidagi ijaraga berilgan **318 gektar** yer maydoniga suv chiqarish uchun **5 mlrd so‘m** mablag‘ hisobidan **4 ta** hovuz qazilib, **5 ta** TP va **6 ta** nasos o‘rnatildi. Natijada, bugungi kunda **200 ta** dehqon xo‘jaliklari tomonidan karam, gulkaram kabi yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirilmoqda.*

Drayver loyihalarni amalga oshirish natijasida yil yakuni bilan **8 mingta** yangi tadbirkorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va kengaytirildi. Shuningdek, **3 ming** gektarga yaqin yer maydonlari tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarildi.

Shu bilan birga, 2025-yil davomida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “yangiish.mehnat.uz” elektron platformasi ma‘lumotlariga asosan “Zarbdor tajribasi” asosida drayver loyihalarni amalga oshirish hisobiga **130 ming nafardan ziyod** aholi bandligi ta‘minlandi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida **1 034 ta** mahallalarda tomorqa yerlarini sug‘orishni yaxshilash yoki ularda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini ta‘minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo‘llarni ta‘mirlash va boshqa infratuzilmani yaxshilash ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Mazkur dastur doirasida 2025-yilda mahallalarda tomorqalarni sug‘orish suvi bilan ta‘minlash, aholiga elektr-energiyasini barqaror yetkazib berish, internet sifatini oshirish ishlari uchun Davlat budjetidan qariyb **2,3 trln so‘m** mablag‘lar ajratildi.

Ushbu ajratilgan mablag‘lar hisobidan quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

Sug'orish tarmoqlari

Mahallada tomorqalarni sug'orish suvi bilan ta'minlash ishlari bo'yicha **937 ta** og'ir mahallada tomorqa suvi ta'minotini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga **1 441 mlrd** so'm ajratilishi zarurligi hisob-kitob qilindi hamda shakllantirilgan loyihalar Xalq deputatlari mahalliy kengashlari qarorlari bilan tasdiqlandi.

*Dasturga muvofiq **448 ta** sug'orish nasosi, **862 ta** sug'orish qudug'i, **2 629 km** sug'orish tarmoqlari bilan bog'liq ishlar amalga oshiriladi. Buning hisobiga **304 mingta** xonadon tomorqalari sug'orish suvi ta'minoti yaxshilanadi.*

Amalga oshirilgan ishlar

a) Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi 101-F-farmoyishiga asosan pudrat tashkilotlari aniqlanmagan obyektlar bo'yicha maxsus axborot portalida tegishli joylashtirmasdan, jamoatchilik muhokamasini va xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o'tkazmasdan **eng yaxshi takliflarni tanlash asosida salohiyatli pudrat tashkilotlari aniqlashga** ruxsat berilgan.

b) 2025-yil yakunlari bilan **907 ta** obyektlar foydalanishga topshirildi.

Shundan, **30 ta** 2025-yilda davomida yangidan qo'shilgan bo'lib, bugungi kunda qurilish-montaj ishlari davom ettirilmoqda.

v) **937 ta barcha obyektlar** bo'yicha pudrat tashkilotlari bilan shartnoma tuzilgan hamda **1 181 mlrd** so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlar bajarilgan bo'lib, **1 129 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirib berildi.

Elektr tarmoqlari

a) Og'ir ahvoldagi mahallalarda birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan elektr energiyasini barqaror yetkazib berish bo'yicha **971 ta** mahallada **1 745 dona** transformator o'rnatish hamda **4 533 km** tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun **823 mlrd so'm** mablag' talab etilib, ushbu mablag' Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" jamg'armasiga o'tkazib berildi.

*Amalga oshirilgan ishlar natijasida **737 mingta** xonadonlarning elektr ta'minoti yaxshilandi.*

Hududlar kesimidagi elektr energiyasini barqaror yetkazib berish ishlarining manzilli ro'yxatlari viloyat hokimliklari va Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-martdagi 135-F-farmoyishiga asosan og'ir ahvoldagi mahallalarga elektr energiyasini barqaror yetkazib berish ishlariga buyurtmachi etib Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK hamda loyiha va bosh pudrat tashkiloti etib "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning

tasarrufidagi korxonalar tomonidan **“fast track”** usulida ishlarni amalga oshirishi belgilangan.

Yil yakunlari bilan, dastur doirasida **924 ta** obyekt bo'yicha pudrat tashkilotlari bilan shartnoma tuzilgan hamda **611 mlrd so'm** qurilish-ta'mirlash ishlar bajarilgan bo'lib, **591 mlrd so'm** mablag' moliyalashtirildi.

b) 2025-yil yakunlari bilan 924 ta obyekt foydalanishga topshirildi.

Shundan, **14 ta** obyekt 2025-yil davomida yangidan qo'shilgan bo'lib, bugungi kunda qurilish-montaj ishlari davom ettirilmoqda.

Internet, ichki yo'l va boshqa infratuzilma

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 11- martdagi 03-PA 1/1-752/10-sonli topshirig'iga asosan, og'ir ahvoldagi mahallalarini uzluksiz **internet tarmog'i bilan ta'minlash, ichki yo'llar va boshqa infratuzilma** obyektlarini ta'mirlash ishlari **kelgusi yillarda amalga oshirilishi belgilangan.**

Og'ir ahvoldagi mahallalarini uzluksiz internet tarmog'i bilan ta'minlash hamda ichki yo'llarini ta'mirlash ishlarining dastlabki ro'yxatlari hududlar kesimida shakllantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida”**dagi PQ-132-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi etib:

– Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantiriladigan **16 ta** tuman (shahar)lar belgilab olindi;

– Mazkur tuman/shaharlarda sanoat ishlab chiqarish hajmini o'rtacha **7 – 8 foizga**, bozor xizmatlari hajmini **15 – 17 foizga**, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini **4 – 5 foizga** barqaror o'sishini ta'minlash;

– ishsizlik darajasini **4 – 5 foizga**, kambag'allik darajasini **5 – 6 foizga** pasaytirish, bunda **Qo'ng'iro't, Asaka, G'allaorol, Denov** tumanlari hamda **Marg'ilon shahrini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish;**

– tuman/shahar markazlarida **aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay sharoit yaratish belgilangan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida tuman va shaharlarni jadal kompleks rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgani va Dastur doirasida tuman va shaharlarda yuqori iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 2025-yilda **1,2 trln so'm** mablag'lar yo'naltirildi.

Ajratilgan mablag'lar hisobidan **203 ta** loyiha doirasida **344 ta** obyekt bo'yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, qurilish-montaj va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Mazkur loyiha doirasida

- **342 ta** obyektida **loyihachi** aniqlanib, **loyiha-smeta** hujjatlari **ishlab chiqildi**;
- **334 ta** obyektida **ekspertiza** xulosasi **olindi**;
- **131 ta** obyekt bo'yicha kompleks ekspertiza xulosasi **olindi**;
- **331 ta** obyektida **pudrat tashkilot** aniqlandi va qurilish ishlari amalga oshirildi.

Mazkur loyihalar doirasida **278,7 km** avtomobil yo'llari, **43 ta** elektr ta'minoti obyektlari, **163,9 km** ichimlik suv tarmoqlari, **9 dona** suv inshootlari, **78,5 km** sug'orish tizimlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash hamda **130 ta** obyektlarda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi.

V. Tashabbusli budget jarayonlari

So'nggi yillarda O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning eng namunali ko'rinishlaridan biri — **tashabbusli budget** amaliyotidir.

Bu amaliyot fuqarolarni mahalliy va davlat budgetlarini taqsimlash, ustuvor yo'nalishlarni tanlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga bevosita jalb etish imkonini yaratdi.

2025-yilda ham an'anani davom ettirgan holda Tashabbusli budget jarayoni **ikki mavsum** doirasida o'tkazildi.


Avvalgi mavsumlardan farqli o'laroq, 2025-yilda yakuniy natijalar 1-mavsum 21-mart — **“Navro'z” bayrami** hamda 2-mavsum 1-sentabr — O'zbekiston Respublikasi **Mustaqilligi bayrami** kuni e'lon qilindi.

2025-yil uchun tashabbusli budget jarayonlariga Davlat budgetida jami **5,4 trln so'm** mablag' rejalashtirilgan bo'lib, shu bilan birga mahalliy budgetlarning qo'shimcha mablag'lari hisobidan ushbu yo'nalish uchun **700 mlrd so'mdan** ortiq mablag'lar yo'naltirildi.

21-jadval

2025-yilda Tashabbusli budget jarayoni uchun ajratilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumot (mlrd so'm)

T/r	Hudud nomi	Jami	Budgetda ajratilgan	Qo'shimcha manbadan ajratilgan
	Jami	6 096	5 388	708
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	424	339	85
2	Andijon viloyati	544	499	45
3	Buxoro viloyati	380	370	9
4	Jizzax viloyati	267	253	14
5	Qashqadaryo viloyati	538	511	28
6	Navoiy viloyati	239	222	18
7	Namangan viloyati	472	452	20
8	Samarqand viloyati	635	564	71
9	Surxondaryo viloyati	425	398	28
10	Sirdaryo viloyati	125	101	24
11	Toshkent viloyati	544	463	80
12	Farg'ona viloyati	743	687	50
13	Xorazm viloyati	351	327	24
14	Toshkent shahri	408	203	206




Ajratilgan mablagʻlarning qariyb **12 foizga yaqin qismi** tuman va shaharlarning chorak (yil) yakunlariga koʻra shakllangan qoʻshimcha mablagʻlarning **30 foizi hisobidan** oʻtkazilgan mablagʻlarni tashkil etadi.

Natijada, 2025-yilda Tashabbusli budjet jarayonlari uchun qariyb **6,1 trln soʻm** mablagʻlar yoʻnaltirildi.

Qayd etish kerakki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25- dekabrda PQ-455-son qaroriga asosan 2025-yildan boshlab tuman va shaharlar uchun Tashabbusli budjetga mablagʻ ajratishda har bir tumanga **kamida 10 ta** va eng koʻpi bilan **30 ta loyihaga** yetarli mablagʻ ajratish amaliyoti joriy etildi.

Buning natijasida tuman va shahar budjetlarida mazkur yoʻnalish uchun ajratilgan mablagʻlar 2024-yilga nisbatan **1,5 trln soʻmga** yoki **40 foizga** oshdi. Hududlar kesimida tahlil qilganda, eng katta oʻsish Qoraqalpogʻistonda – 86 foiz, Qashqadaryoda – 62 foiz va Buxoroda – 49 foizni tashkil etdi.

49-rasm



Amalga oshirilgan tashkiliy masalalar.

2025-yilda ham jarayonni tashkillashtirishda targʻibot ishlariga alohida eʼtibor qaratildi. Jumladan:

har mavsum boshlanishidan avval barcha fuqarolarga **SMS xizmati** orqali jarayonda ishtirok etish muddatlari toʻgʻrisida xabarnomalar yuborildi;

tashabbusli budjet haqida **mashhur blogger va kanal mualliflari** bilan hamkorlikda aholiga tushunarli va sodda tilda **kontentlar ishlab chiqilib** ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borildi;

aholi gavjum joylarda, jamoat transportlarida jarayon boshlanishi yuzasidan xabardor qilish bo'yicha maxsus roliklar namoyish etildi.



Toshkent metropolitenida Tashabbusli budjet roligi namoyish etilmoqda

Shuningdek, aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish hamda majburiy ovoz berishga jalb etish holatlarini qayd etish uchun maxsus **ishonch raqami** ishga tushirildi.

Shakllangan loyihalar bo'yicha

2025-yilda "Tashabbusli budjet"ning ikki mavsumi davomida jami **50 662 ta fuqarolik tashabbusi** kelib tushdi. Loyihalarning aksariyati infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan.

– **Ichki yo'llar yo'nalishi** bo'yicha **22 332 ta loyiha** kelib tushgan bo'lib, bu umumiy loyihalarning **44,1 foizini** tashkil etadi. Bu ko'rsatkich aholi uchun transport aloqalari va mahalliy infratuzilmaning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

– **Umumta'lim maktablariga** oid **4 526 ta loyiha** kelib tushgan. Bu ta'lim muassasalaridagi infratuzilma muammolariga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi.

– **Ko'cha yoritgichlari** bo'yicha **4 118 ta tashabbus** bildirilgan. Bu xavfsizlik va qulaylikni oshirishga qaratilgan talablarni aks ettiradi.

– **Maktabgacha ta'lim** sohasida **3 014 ta loyiha, tibbiyot tashkilotlari** bo'yicha esa **2 193 ta loyiha** kelib tushgan. Bu ko'rsatkichlar ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi.

– **Ichimlik suvi va oqova tizimiga** oid **3 670 ta loyiha** kelib tushgan. Bu sanitariya va sog'lom turmush tarziga e'tibor kuchayganini anglatadi.

Shuningdek, **10 809 ta loyiha "boshqa" yo'nalishlarga** tegishli bo'lib, madaniyat, sport va boshqa sohalarni qamrab olgan.

T/r	Hudud nomi	Jami loyiha	shundan						
			Ichki yo'llar	Umumta'-lim maktabi	Ko'cha chirog'i	Maktab-gacha ta'lim	Tibbiyot tashkiloti	Ichimlik suvi va oqava tizimi	Boshqalar
	Jami	50 662	22 332	6 524	5 643	1 808	1 851	1 695	10 809
	<i>foizda</i>	<i>100%</i>	<i>44%</i>	<i>13%</i>	<i>11%</i>	<i>4%</i>	<i>4%</i>	<i>3%</i>	<i>21%</i>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 421	1 469	299	408	53	99	193	900
2	Andijon viloyati	3 456	1 801	474	396	63	149	109	464
3	Buxoro viloyati	4 054	1 693	409	546	117	130	81	1 078
4	Jizzax viloyati	2 444	1 093	430	152	95	49	29	596
5	Qashqadaryo viloyati	3 705	2 212	376	292	56	111	132	526
6	Navoiy viloyati	2 255	667	361	226	52	84	67	798
7	Namangan viloyati	4 485	2 383	406	625	60	142	162	707
8	Samarqand viloyati	4 352	2 094	589	414	147	205	152	751
9	Surxondaryo viloyati	4 054	1 706	732	561	164	192	199	500
10	Sirdaryo viloyati	2 015	678	316	261	90	66	61	543
11	Toshkent viloyati	4 518	2 018	638	492	180	93	136	961
12	Farg'ona viloyati	4 274	1 508	693	599	329	194	224	727
13	Xorazm viloyati	4 102	2 449	397	451	75	106	81	543
14	Toshkent shahri	3 527	561	404	220	327	231	69	1 715

Hududlar kesimida tahlil

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, quyidagi viloyatlar va shaharlar eng faol ishtirokchilar sifatida ajralib turdi:

– **Toshkent viloyatida** jami **4 924 ta loyiha** kelib tushgan bo'lib, ularning **2 194 tasi** ichki yo'llar yo'nalishiga tegishli. Bu viloyatda transport infratuzilmasini yaxshilash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

– **Samarqand viloyatida 4 556 ta tashabbus** qayd etilgan. Ularning asosiy qismi ichki yo'llar va ta'lim muassasalariga qaratilgan.

– **Farg'ona viloyatida 4 365 ta loyiha** kelib tushgan bo'lib, **1 939 tasi** ichki yo'llar bilan bog'liq. Shuningdek, ko'cha yoritgichlari va maktabgacha ta'limga oid loyihalar ham ko'pchilikni tashkil etgan.

– **Andijon, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahri** ham yuqori faollik ko‘rsatgan hududlar qatoriga kiradi.

2025-yilda “Tashabbusli budjet” doirasida jami **42 191 ta loyiha** saralashdan o‘tib, ovoz berish jarayoniga qo‘yildi. Ushbu loyihalar aholining mahalliy muammolarni hal etishdagi faolligini va ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojini yaqqol namoyon qildi.

Ovoz berishga o‘tkazilgan tashabbuslar asosan **mahalla infratuzilmasi (19 895 ta), ijtimoiy soha muassasalari (6 118 ta), ta’lim va sog‘liqni saqlash (jami 9 833 ta)** hamda **suv ta’minoti va oqova tizimi (3 670 ta)** kabi yo‘nalishlarga tegishli bo‘lib, aholi ovozi orqali hududlardagi eng dolzarb loyihalar bazasi shakllandi.

2025-yilda mazkur jarayonning barcha bosqichlarida **rekord darajada** ovoz yig‘ildi:

Mavsum	Jalb etilgan ovozlar (mln)
1-mavsum	10,45 mln ta
2-mavsum	11,14 mln ta
Jami	21,59 mln ta

Bu, avvalo, jamoatchilik munosabatining yangi bosqichga o‘tganini, har bir toifa fuqarolar ishtirokining ortishini anglatadi. Har bir loyiha uchun o‘rtacha **2 000 – 3 000 ta ovoz** berilar ekan, ular orasida eng ommabopi yo‘llar va maktablarni tashkil etdi, ayrim dolzarb muammolar bo‘yicha loyihalar esa **10 000 dan ziyod ovoz** to‘pladi.

“Ochiq budjet” portali, mobil ilova, Telegram-bot kabi raqamli servislar **fuqarolar ishtirokini yuqori darajaga** olib chiqdi. Internet texnologiyalar orqali aholi viloyat markazlari, kichik shaharchalar va hattoki cho‘l hududlardan ham ovoz berish imkoniga ega bo‘ldi. Bu raqamli transformatsiyaga intilgan davlat siyosatining hayotiy ifodasi hisoblanadi.

Umumiy ovozlar soni bo‘yicha yetakchi hududlar

– **Qashqadaryo viloyati** — **2 862 ming ta ovoz** bilan respublikadagi eng faol hudud sifatida qayd etildi.

– **Samarqand viloyatida** — **2 725 ming ta ovoz**, aholining yuqori darajadagi ishtirokini ko‘rsatadi.

– **Farg‘ona viloyatida** — **2 622 ming ta ovoz**, infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga qiziqish yuqori.

Katta aholi soniga ega hududlarda ovoz berish faolligi yuqori bo'lgan. Bu joylarda tashabbuslarning keng qamrovliligi va **aholidagi xabardorlik darajasi** yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Aholi soniga nisbatan ovoz berish faolligi

- **Sirdaryo viloyati** — **82 foiz** faollik bilan eng yuqori ko'rsatkichga ega.
- **Surxondaryo viloyatida** — **76 foiz**, aholining tashabbuslarga qiziqishi yuqori.
- **Jizzax viloyatida** — **75 foiz**, ovoz berishdagi keng ishtirokni aks ettiradi.

Aholi soniga nisbatan faollik ko'rsatkichi kichik hududlarda yuqori bo'lgan. Bu yerlarda mahalliy muammolarga nisbatan sezgirlik va jamoaviy harakat kuchli ekanligini anglatadi.


G'olib loyihalar

“Tashabbusli budjet”ning 2025-yildagi ikki mavsumi davomida umumiy qiymati **6,5 trln so'mlik jami 4 786 ta g'olib loyiha** aniqlandi. Ushbu loyihalar uchun fuqarolar tomonidan **17,4 million ovoz** berildi.

Hududlar kesimida eng ko'p g'olib loyihalar **Farg'ona viloyati (549 ta)**, **Andijon viloyati (417 ta)** va **Toshkent viloyati (470 ta)** hissasiga to'g'ri kelgan. Bu viloyatlarda aholining faolligi hamda tashabbuslarning amaliy ahamiyati yuqori bo'lganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, loyihalar qiymati jihatidan ham Farg'ona viloyati **776,3 mlrd so'm** bilan yetakchi bo'lgan.

Ovoz berish faolligi bo'yicha **Qashqadaryo viloyati 2,5 millionga yaqin ovoz** bilan **birinchi o'rinni** egallagan. Bu hududda aholi tashabbusli loyihalarga nisbatan katta qiziqish bildirganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **Samarqand (2,25 mln ovoz)** va **Farg'ona (2,2 mln ovoz)** viloyatlari ham faol ishtirok etgan.

50-rasm



Sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng katta ulushni **ichki yo'llarni ta'mirlash va barpo etishga oid loyihalar** egalladi — **2 180 ta loyiha**, umumiy qiymati **3,2 trln so'm** bo'lib, bu jami mablag'larning qariyb **49 foizini** tashkil etadi. Shuningdek, mazkur yo'nalish bo'yicha **10,6 mln ovoz** berilgan, ya'ni barcha ovozlarning **61 foizi** aynan ichki yo'llar infratuzilmasiga tegishli bo'lgan. Bu aholining eng muhim talablaridan biri sifatida yo'llar masalasi hali ham dolzarbligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yirik yo'nalish sifatida **umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash loyihalari** qayd etilgan — **1 187 ta g'olib loyiha**, umumiy qiymati **1,5 trln so'm**. Bu jami mablag'larning **23 foizini**, ovozlari esa **18 foizni** tashkil etadi. Shu bilan birga, **tibbiyot tashkilotlari** (484 ta loyiha, 654 mlrd so'm), **ko'cha chiroqlari** (307 ta loyiha, 131 mlrd so'm) va **mahalla hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga oid loyihalar** ham muayyan ulushga ega bo'ldi.

Shuningdek, **ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilashga** qaratilgan **68 ta loyiha** amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati **94 mlrd so'mni** tashkil etdi. Umuman olganda, natijalardan ko'rinib turibdiki, "Tashabbusli budjet" orqali aholi eng ko'p ovoz bergan va g'olib bo'lgan loyihalar mahalliy infratuzilmani yaxshilashga, ayniqsa yo'llar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga qaratilgan.

Mahallalar ishtiroki

2025-yilda "Tashabbusli budjet" jarayonida **9 447 ta mahalla** ishtirok etgan bo'lib, shularning **6 336 tasi ovoz berishda faol qatnashgan**. Ular tomonidan taqdim etilgan loyihalar orasidan **4 786 ta g'olib loyiha** aniqlangan va **3 405 ta mahalla g'olib sifatida** qayd etilgan. Bu ko'rsatkich umumiy mahallalar sonining **36 foizini** tashkil etadi, ya'ni mamlakat bo'ylab **har uchta mahallaning kamida biri** g'olib bo'lgan.

23-jadval

T/r	Hudud nomi	Jami mahalla soni	Ovoz to'plagan mahalla soni	G'olib loyiha soni	G'olib mahalla soni	Jami mahalla soniga nisbatan	G'olib mahallalar	
							1-mavsum	2-mavsum
	Jami	9 447	6 336	4 786	3 405	36%	2 011	1 945
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	452	317	355	216	48%	136	125
2	Andijon viloyati	909	524	417	315	35%	190	168
3	Buxoro viloyati	544	357	301	199	37%	126	113
4	Jizzax viloyati	308	200	216	129	42%	80	76
5	Qashqadaryo viloyati	822	664	386	266	32%	160	156

T/r	Hudud nomi	Jami mahalla soni	Ovoz to'plagan mahalla soni	G'olib loyiha soni	G'olib mahalla soni	Jami mahalla soniga nisbatan	G'olib mahallalar	
							1-mavsum	2-mavsum
6	Navoiy viloyati	330	199	203	127	38%	75	74
7	Namangan viloyati	791	474	372	282	36%	175	151
8	Samarqand viloyati	1 126	657	442	320	28%	183	186
9	Surxondaryo viloyati	724	441	325	247	34%	149	137
10	Sirdaryo viloyati	238	156	102	83	35%	43	48
11	Toshkent viloyati	1 025	861	470	343	33%	197	195
12	Farg'ona viloyati	1 062	747	549	410	39%	236	236
13	Xorazm viloyati	531	335	275	198	37%	110	122
14	Toshkent shahri	585	404	373	270	46%	151	158

Hududlar kesimida eng yuqori faollik **Qoraqalpog'iston Respublikasi (48%), Toshkent shahri (46%) va Jizzax viloyati (42%)** mahallalarida kuzatilgan. Bu hududlarda aholi tashabbuskorligi, ovoz berishdagi ishtiroki va g'olib bo'lgan mahallalar ulushi yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **Farg'ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida** ham loyihalar soni va ishtirok darajasi sezilarli bo'lgan.

Ikki mavsum natijalariga ko'ra, **1-mavsumda 2 011 ta, 2-mavsumda 1 945 ta mahalla** g'olib deb topilgan. Bu "Tashabbusli budjet" tashabbusi yil davomida izchillik bilan amalga oshirilayotganini va har ikki mavsumda ham aholi faolligi yuqori darajada saqlanib qolganini anglatadi.

Loyihalar ijrosi

2025-yil **1-mavsum** loyihalari bo'yicha pudratchilarga jami **2 839 mlrd so'm** mablag'lar to'lab berilgan bo'lib, haqiqatda bajarilgan ishlar hajmi **2 865 mlrd so'mni** tashkil etadi. Bunda, 1-mavsum bo'yicha jami **2 407 ta** loyihadan **2 296 tasi** yoki **95 foizida** to'liq ishlar bajarilib **foydalanishga topshirilgan** bo'lsa, 104 ta loyihalarda qurilish-ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

2-mavsum g'olib loyihalari 2025-yilning **sentabr oyida** aniqlangani sababli, ushbu loyihalarning aksariyatida ishlarni amalga oshirish 2026-yilga o'tgan bo'lib, hozirga qadar **2 363 ta** loyihadan **1 543 tasi** bo'yicha ishlar to'liq yakunlanib foydalanishga topshirilgan. Kuz-qish mavsumi yakuniga ko'ra mart oyining ikkinchi yarmidan boshlab hududlardagi qolgan **814 ta** loyihalarni amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda.

VI. Mahalliy budjetlar ijrosi


Mahalliy budjetlarning barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika va hududlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Hududiy boshqaruv organlariga yetarli moliyaviy vakolatlar berish, budjet jarayonlarini shaffof va intizomli tashkil etish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

2025-yilda mahalliy budjetlar daromadlar qismi prognozga nisbatan **113,4 foizga** bajarilib, **71 265,9 mlrd so'mni** tashkil etdi. Bu natija soliq va majburiy to'lovlar tushumidagi o'sish, soliq ma'murchiligidagi islohotlar hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali ta'minlandi.

Mahalliy budjet xarajatlari **109 204,9 mlrd so'mni** tashkil etdi. Solishtirma tahlilga ko'ra, 2024-yilga nisbatan **22 393,3 mlrd so'mga** o'sgan. Bu mablag'lar asosan ijtimoiy soha, infratuzilma va hududiy dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

51-rasm

Mahalliy budjetlarning ijrosi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'm)



24-jadval

Mahalliy budjetlarning 2025-yilda asosiy ko'rsatkichlari (mlrd so'm)

Andijon viloyati





Daromad	4 836,1
Xarajat	8 402,5
Tartibga soluvchi transfert	2 180,1

Buxoro viloyati



Daromad	4 596,5
Xarajat	6 677,2
Tartibga soluvchi transfert	693,8

Jizzax viloyati 	Daromad	2 605,0	Qashqadaryo viloyati 	Daromad	5 426,7
	Xarajat	5 137,2		Xarajat	8 193,5
	Tartibga soluvchi transfert	1 103,2		Tartibga soluvchi transfert	974,3
Navoiy viloyati 	Daromad	3 705,9	Namangan viloyati 	Daromad	4 156,6
	Xarajat	4 743,9		Xarajat	7 538,6
	Tartibga soluvchi transfert	92,5		Tartibga soluvchi transfert	2 228,4
Samarqand viloyati 	Daromad	6 483,0	Surxondaryo viloyati 	Daromad	3 534,7
	Xarajat	9 896,0		Xarajat	6 724,3
	Tartibga soluvchi transfert	2 093,3		Tartibga soluvchi transfert	2 062,3
Sirdaryo viloyati 	Daromad	1 929,2	Toshkent viloyati 	Daromad	7 378,0
	Xarajat	4 399,7		Xarajat	8 729,3
	Tartibga soluvchi transfert	812,2		Tartibga soluvchi transfert	262,6
Farg‘ona viloyati 	Daromad	6 382,1	Xorazm viloyati 	Daromad	3 413,4
	Xarajat	10 775,0		Xarajat	5 714,1
	Tartibga soluvchi transfert	2 143,9		Tartibga soluvchi transfert	1 330,8
Toshkent shahar 	Daromad	13 486,0	Qoraqalpog‘iston R. 	Daromad	3 332,6
	Xarajat	15 550,6		Xarajat	6 722,9
	Tartibga soluvchi transfert	262,2		Tartibga soluvchi transfert	2 223,0

2025-yilda mahalliy budjetlarning xarajatlari sohalar kesimida quyidagicha taqsimlandi:


– ijtimoiy soha xarajatlari **61 485,3 mlrd so‘m**ga ijoy etilib, jami xarajatdagi ulushi **56,3%** tashkil etdi;

– iqtisodiyot xarajatlari **13 177,4 mlrd so‘m** (12,1%);

- markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari **16 534,1 mlrd so‘m (15,1%)**;
- Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari xarajatlari **10 880,0 mlrd so‘m (10 %)**;
- Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari **87,5 mlrd so‘m (0,1%)**;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari xarajatlari **952,2 mlrd so‘m (0,9%)**;
- Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari **534,1 mlrd so‘m (0,5 %)**;
- boshqa xarajatlar **5 554,4 mlrd so‘m (1,5 %)**.

52-rasm

Mahalliy budjetlar xarajatlarining sohalar kesimida tarkibi



Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish bo‘yicha Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan amaliy chora-tadbirlar natijasida 2025-yilda mahalliy budjetlarning daromad rejasi **8,4 trln so‘m** ortig‘i bilan ijro etildi.

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar mahalliy budjetlariga **18 462,6 mlrd so‘m** miqdorida tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar ajratildi.

2025-yilda mahalliy budjetlar ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalar va ularning sarflanishi.

Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida 2025-yil yakuni bilan jami **11 034,9 mlrd so‘m**lik qo‘shimcha manba shakllandi. Jumladan:

- 2025-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari **2 283,0 mlrd so‘m**;
- 2025-yil 1-3 chorak daromadlarni rejadan oshirib bajarilgan qismi **6 202,2 mlrd so‘m** (o‘tkazib beriladigan daromad bilan birga);

– davlat aktivlarini sotishdan (xususiylashtirishdan) tushgan pul mablag‘lari **380,7 mlrd so‘m**;


– yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari **2 169,1 mlrd so‘m**.

Ma’lumot uchun, 2024-yilga nisbatan (2024-yil 5,0 trln so‘m) mahalliy budjetlarda 2,2 barobardan ko‘p qo‘shimcha manba shakllandi.

Mazkur shakllangan qo‘shimcha manbalar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq dasturlar hamda qo‘shimcha yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda va boshqa tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishda muhim manba sifatida shakllandi.

2024-2025-yillarda mahalliy budjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalar to‘g‘risida

53-rasm



Hisobot davrida ushbu shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan **10 142,3 mlrd so‘mlik** xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha mahalliy kengashlarning qarorlari qabul qilindi. Xususan,

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari va tashrif bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlashga **1 670,6 mlrd so‘m**;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlariga asosan tashkil etilgan hududiy jamg‘armalarga **3 696,4 mlrd so‘m**; Jumladan,

– “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg‘armalariga **48,6 mlrd so‘m**;

– “Harbiy ma’muriy sektorlarni rivojlantirish” jamg‘armasiga **361,2 mlrd so‘m**;

– “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga **707,4 mlrd so‘m**;

– *Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish xarajatlari 310,4 mlrd so‘m;*

Hududlarni obodonlashtirish xarajatlariga **479,9 mlrd so‘m;**

Hokimliklar xo‘jalik xarajatlari va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash xarajatlari uchun **200,8 mlrd so‘m;**

Madaniy-sport tadbirlari, festivallar, umumxalq va milliy bayramlarni o‘tkazish tadbirlariga **248,9 mlrd so‘m;**

Mukofot va rag‘batlantirish xarajatlariga **684,2 mlrd so‘m.**

Shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlarning natijadorlik ko‘rsatkichlari.

Hududlar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror(farmon) va bayonlarida berilgan topshiriqlar hamda Hukumat topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida **mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan** bevosita aholi kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan mahallarda **ijtimoiy infratuzilma va ijtimoiy soha** obyektlarida amalga oshirilgan tadbirlar uchun **1,7 trln so‘m** mablag‘lar yo‘naltirilgan.

Mazkur mablag‘lar asosan hududlardagi muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l infratuzilmasini yaxshilash, aholini ichimlik suvi, elektr va gaz ta’minoti bilan ta’minlash, shuningdek ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi obyektlarni zamonaviy talablarga mos holda yangilashga yo‘naltirilgan.

Xususan:

– **309,6 km ichimlik va oqava suv tarmoqlarini** barpo etish uchun **136,3 mlrd so‘m;**

– **1 488 km uzunlikdagi xo‘jaliklararo ichki yo‘l va piyodalar yo‘llarni** ta’mirlash uchun **362 mlrd so‘m;**

– **3 146 ta ta’lim muassasasi** (shundan **2 399 ta** xalq ta’limi va **747 ta** maktabgacha ta’lim muassasasi)ni kuz qish mavsumiga tayyorlash uchun hamda ta’mirlash va jihozlash xarajatlariga **384,9 mlrd so‘m;**

– **501 ta tibbiyot muassasasini** ta’mirlash va jihozlash uchun **186,4 mlrd so‘m;**

– **305 ta madaniyat va sport muassasalarini** ta’mirlash va jihozlash xarajatlariga **139,2 mlrd so‘m;**

– **1 623 ta ko‘p qavatli uy-joylarni** ta’mirlash xarajatlariga **65,7 mlrd so‘m;**

– **70 ta bolalar maydonchalarini** qurish va ta’mirlash xarajatlariga **16 mlrd so‘m;**

– **31,4 km gaz va elektr ta’minoti** tizimlarini yaxshilash uchun **9,4 mlrd so‘m;**

- 233,6 km sugʻorish tizimlarini tashkil etish uchun 38,3 mlrd soʻm;
- Obodonlashtirish boshqarmalari uchun 80 ta maxsus texnika sotib olishga 53,5 mlrd soʻm;
- 5 244 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga yordam koʻrsatish uchun 57,6 mlrd soʻm;
- 769,1 km uzunlikda yoritish chiroqlarini oʻrnatish ishlariga 45,9 mlrd soʻmdan ortiq mablagʻ yoʻnaltirilgan.

54-rasm



Ushbu koʻrsatkichlar mahallalarda infratuzilmani yaxshilash va aholiga qulay sharoit yaratish borasida amaliy ishlar izchil davom ettirilayotganini koʻrsatadi.


VII. Davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi

2025-yil Davlat maqsadli jamg'armalari **daromadlari** prognoz ko'rsatkichlari **79,1 trln so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida **73,8 trln so'mga** yoki yillik rejaga nisbatan **93,4 foizga** ijro etildi.

Bundan tashqari, Davlat budjetidan davlat maqsadli jamg'armalarga hisobot davrida **57,9 trln so'm** miqdorida **transfertlar** ajratildi.


Hisobot davrida davlat maqsadli jamg'armalarining jami tushumlari **131,7 trln so'mni** tashkil etib, 2024-yilga nisbatan **41 foizga** o'sdi.

55-rasm



Davlat maqsadli jamg'armalarining yillik rejalashtirilgan xarajatlari esa **135,5 trln so'mni** tashkil etib, yillik rejaga nisbatan **96,1 foizga** ijro etilgan holda **130,3 trln so'mni** tashkil etdi.

56-rasm



Davlat maqsadli jamg'armalarining 2025-yil ijrosi

(mlrd so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
I.	Jami — davlat maqsadli jamg'armalari			
	Yil boshiga kutilayotgan qoldiq	14 562,1	14 562,1	100,0%
	Daromadlar prognozi	79 062,3	73 842,5	93,4%
	Davlat budjetidan transfertlar	58 465,0	57 884,4	99,0%
	Xarajatlar	135 509,1	130 262,4	96,1%
	shu jumladan:			
	Davlat budjetiga transfertlar	11 080,0	8 502,0	76,7%
	Yil oxiriga kutilayotgan qoldiq	16 580,3	16 026,6	96,7%
1	“El-yurt umidi” jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	65,4	65,4	
	Daromadlar prognozi	20,0	2,2	11,0%
	Davlat budjetidan transfertlar	500,0	498,8	99,8%
	Xarajatlar	585,4	512,4	87,5%
	shu jumladan:			
	Jamg'arma stipendiatlarining xorijdagi nufuzli ta'lim muassasalarida ta'lim olishini va stajirovkadan o'tishini tashkil etish	568,4	498,5	
	Xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni respublikada mehnat faoliyatini amalga oshirishga jalb etish	0,7	1,8	
	Jamg'armani saqlash bilan bog'liq xarajatlar	14,8	12,1	
	Boshqa xarajatlar	1,5		
	Yil oxiriga qoldiq		54,0	
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	95,3	95,3	
	Daromadlar prognozi			
	Davlat budjetidan transfertlar	700,0	723,8	103,4%
	Xarajatlar	795,3	819,1	103,0%
	shu jumladan:			
	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan dasturlar, topshiriqlar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash	795,3	819,1	
	Yil oxiriga qoldiq			

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
3	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	2 411,9	2 411,9	
	Daromadlar prognozi	57 926,4	56 528,3	97,6%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ijtimoiy soliq tushumlari	55 504,0	54 454,8	
	Boshqa daromadlar	2 422,4	2 073,6	
	Davlat budjetidan transfertlar	20 246,0	20 246,0	100,0%
	Xarajatlar	76 641,3	76 702,3	100,1%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari uchun to'lovlar, shuningdek pensiya va nafaqalarni yetkazib berish xarajatlari	76 636,3	76 698,7	
	Boshqa xarajatlar	5,0	3,6	
	Yil oxiriga qoldiq	3 943,0	2 483,9	
4	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	10,1	10,1	
	Daromadlar prognozi	216,3	209,1	96,7%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ijtimoiy soliq tushumlari	156,0	150,5	
	Qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni buzganlik uchun belgilangan tartibda qo'llaniladigan ma'muriy jazolardan undiriladigan jarimalar	31,1	10,7	
	Boshqa daromadlar	29,2	47,9	
	<i>shundan:</i>			
	<i>Budjetdan tashqari jamg'armalar tushumlari</i>		36,4	
	Davlat budjetidan transfertlar	247,9	226,2	91,2%
	Xarajatlar	466,4	425,7	91,3%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ish qidirayotgan va ishsiz maqomiga ega shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	267,7	250,5	
	Ishsizlarga muddatidan oldin pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlarini qoplash	19,9	12,4	
	Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va boshqa to'lovlarni to'lash	64,9	16,3	
	Bandlikka ko'maklashish markazlari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, ishsiz va band bo'lmagan aholini	56,9	72,6	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	kasb-hunarga o'qitish hududiy markazlari, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazlarining ayrim bo'linmalarini moddiy-texnik ta'minlash va saqlab turish			
	Ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, vakansiyalar hamda band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik qo'llab-quvvatlash, shu jumladan dasturiy ta'minot ishlab chiqish va texnik vositalarni xarid qilish	11,0	12,5	
	Subsidiyalar to'lash	32,0	8,6	
	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga ajratmalar	10,0	12,0	
	Boshqa xarajatlar	4,0	40,8	
	<i>shundan:</i>			
	<i>Budjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlari</i>		37,2	
	Yil oxiriga qoldiq	7,9	19,7	
5	Migratsiya jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	162,1	162,1	
	Daromadlar prognozi	108,5	126,9	117,0%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ruxsatnomalar (ish beruvchiga xorijdan ishchi kuchini jalb qilish huquqini beradigan hujjat) va tasdiqnomalar (chet el fuqarosiga mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan hujjat) berilganligi uchun yig'imlar hisobidan tushum	90,0	98,8	
	Boshqa daromadlar	18,5	28,1	
	Davlat budjetidan transfertlar	50,0	50,0	100,0%
	Xarajatlar	232,2	214,0	92,1%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va moddiy yordam ko'rsatish, shuningdek ularni olib kelish va tibbiy yordam ko'rsatish	15,0	16,2	
	Subsidiyalar to'lash	15,0	3,6	
	Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketayotgan fuqarolarni ketish oldidan moslashtirish, chet tillariga o'qitish,	72,0	70,8	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	kasbga tayyorlash, shuningdek ketish oldidan moslashtirish, chet tillariga o'qitish, kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish va saqlash			
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligining xorijiy vakolatxonalarini tashkil etish, jihozlash va saqlab turish	40,0	39,5	
	Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketayotgan fuqarolarga mikro kreditlar ajratish	40,0	25,0	
	Boshqa xarajatlar	50,2	58,7	
	Yil oxiriga qoldiq	88,4	125,0	
6	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	247,4	247,4	
	Daromadlar prognozi	1 777,3	1 625,2	91,4%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovdan tushumlar	1 281,2	1 215,2	
	Telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berilganligi uchun davlat bojidan tushumlar	116,0	121,9	
	Respublikada o'rnatilgan avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarimalardan tushumlar	360,0	263,0	
	Boshqa daromadlar	20,0	25,1	
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	1 899,1	1 742,3	91,7%
	<i>shu jumladan:</i>			
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga oid vazifalarni hamda loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini takomillashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha ustuvor loyihalarni, shuningdek elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot tizimlarini shakllantirish hamda rivojlantirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borish	273,7	277,3	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash, uning o'qituvchilari va xodimlarini qo'shimcha rag'batlantirish uchun xarajatlar	10,0	10,0	
	"Kiberxavfsizlik markazi" DUK faoliyatini moliyalashtirish	75,0	75,0	
	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar	464,7	451,5	
	"Xavfsiz shahar" yagona integratsiyalashgan tizimlarini yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar	415,0	318,3	
	Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda ta'lim yo'nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar	276,2	254,3	
	Boshqa xarajatlar	384,4	355,8	
	Yil oxiriga qoldiq	125,6	130,3	
7	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	144,1	144,1	
	Daromadlar prognozi	280,0	328,1	117,2%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'imdan tushumlar	260,0	317,1	
	Boshqa daromadlar	20,0	11,0	
	Davlat budjetidan transfertlar	96,0	97,0	101,0%
	Xarajatlar	520,1	528,3	101,6%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Turizm sohasidagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish	80,4	79,4	
	Xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun xarajatlar	90,0	131,8	
	Turizm qo'mitasi, shu jumladan uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar	118,5	134,3	
	Subsidiyalar to'lash	120,1	101,8	
	<i>shu jumladan:</i>			
	Yangi mehmonxonalar qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarning	105,7	101,8	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	hamda dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan tashkilotlar royalti xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash			
	Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun subsidiyalar ajratish	3,0		
	Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirgan charter aviaqatnovlari bo'yicha har bir xorijiy turist uchun subsidiya ajratish	4,0		
	Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida ming nafar I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxsga O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash	0,5		
	Eshitish qobiliyatini yo'qotgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun surdogidlar tayyorlash kurslari xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to'lash	2,0		
	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan mehmonxonaning kamida uchta xonasi nogironligi bo'lgan shaxslar o'rindiqli aravachasidan foydalanishi uchun qulay tarzda jihozlanganda, shuningdek eshitishi va ko'rishi uchun displey hamda ovoqli qurilmalar o'rnatilganda ushbu tadbirkorlik subyektlariga har bir maxsus jihozlangan xona uchun subsidiyalar to'lash	5,0		
	Turistik (mehmonxona) yig'imdan kelib tushadigan mablag'lar hisobidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta'minlash jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'lar	45,0	35,0	
	Teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlarini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkazmalar	2,0	2,0	
	"Yulduz bilan sayohat" loyihasini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi	4,0	4,0	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasiga o'tkazmalar			
	Atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik stansiyalar xarid qilish xarajatlari	40,0	40,0	
	Oldingi yillarda jalb etilgan kreditlarni qaytarish	20,0		
	Yil oxiriga qoldiq		40,9	
8	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	1 887,5	1 887,5	
	Daromadlar prognozi	1 047,0	755,1	72,1%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Jalb etiladigan kreditlar (qarzar) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat kafolatlari berilganligi uchun undiriladigan mukofot puli	43,3	36,9	
	Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan va yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishdan tushumlar	224,6	283,0	
	Xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni depozitga joylashtirishdan, kredit liniyalari ochishdan va budjet ssudalarini ajratishdan foiz tarzida to'lanadigan daromadlardan olingan foyda solig'i miqdorida respublika budjetidan ajratma	33,1	33,1	
	Xalqaro moliya institutlaridan, xorijiy davlatlar va tashkilotlardan jalb qilingan qarz mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari depozitiga joylashtirishdan olinadigan daromadlar	45,3	74,4	
	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning prognozdan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi miqdorida ajratma	150,0		
	Boshqa daromadlar	550,8	327,6	
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	1 559,1	378,8	24,3%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Qarzdor tashkilotlar davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirmagan holatlarda qarzdor tashkilotlar tomonidan qayta qoplash sharti bilan qarz to'lovlarini amalga oshirish	1 553,9	373,7	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Boshqa xarajatlar	5,2	5,2	
	Yil oxiriga qoldiq	1 375,4	2 263,7	
9	Budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	257,8	257,8	
	Daromadlar prognozi	13 228,0	10 301,4	77,9%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Davlat aktivlarini (korxonalarni, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalarni, yer uchastkalariga bo'lgan huquqni va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulkni) realizatsiya qilishdan tushgan mablag'lar	13 200,0	10 262,3	
	Boshqa daromadlar	28,0	39,1	
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	13 228,0	10 456,7	79,1%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Jamg'arma tasarrufida qoladigan mablag'lar	198,0	223,4	
	Boshqa xarajatlar	1 950,0	1 731,3	
	Davlat budjetiga transfertlar	11 080,0	8 502,0	76,7%
	<i>shu jumladan:</i>			
	O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga	10 080,0	6 292,8	
	Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga	1 000,0	2 209,1	
	Yil oxiriga qoldiq	257,8	102,5	
10	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	50,2	50,2	
	Daromadlar prognozi	5,0	4,5	90,5%
	Davlat budjetidan transfertlar	22 799,9	22 924,8	100,5%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Respublika budjetidan	1 307,9	1 322,9	
	Mahalliy budjetlardan	21 491,9	21 601,9	
	Xarajatlar	22 800,9	22 708,3	99,6%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xarid qilish	22 709,0	22 619,7	
	Jamg'armaning ijro etuvchi apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlar	90,9	87,8	
	Boshqa xarajatlar	1,0	0,8	
	Yil oxiriga qoldiq	54,2	271,1	

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
11	Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	5 880,0	5 880,0	
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ta'lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar	5 713,0	5 713,0	
	Daromadlar prognozi	550,0	497,8	90,5%
	Davlat budjetidan transfertlar	2 532,2	1 718,0	67,8%
	Xarajatlar*	600,0	613,8	102,3%
	Yil oxiriga qoldiq	8 362,2	7 481,9	
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ta'lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga joylashtirilgan mablag'lar	8 362,2	6 958,2	
12	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	580,4	580,4	
	Daromadlar prognozi		12,1	
	Davlat budjetidan transfertlar	7 671,4	7 859,1	102,4%
	Xarajatlar	7 912,1	8 110,7	102,5%
	<i>shu jumladan:</i>			
	O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga muvofiq avtomobil yo'llarini, ko'priklarni va yo'l o'tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, shuningdek obyektlarni jihozlash va texnika xarid qilish	3 681,1	3 616,1	
	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq xarajatlar	3 816,1	3 833,2	
	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish	405,0	479,8	
	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasidagi loyihalarni amalga oshirish guruhlarini saqlash xarajatlari	10,0	6,3	
	Boshqa xarajatlar (mahalliy hokimliklar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan joriy xarajatlar)		175,3	
	Yil oxiriga qoldiq	339,6	340,8	
13	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	194,0	194,0	
	Daromadlar prognozi	5,0	7,1	141,1%

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Davlat budjetidan transfertlar	2 113,6	2 116,0	100,1%
	Xarajatlar	2 298,6	1 893,1	82,4%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ichimlik suvi ta'minotini va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek loyiha-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish	2 298,6	1 893,1	
	Yil oxiriga qoldiq	14,0	424,0	
14	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	200,9	200,9	
	Daromadlar prognozi	98,6	70,9	71,9%
	<i>shu jumladan:</i>			
	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga patent bojaridan, yig'imlardan va soliq toifasiga kirmaydigan boshqa to'lovlardan kelib tushadigan mablag'lardan tushumlar	87,1	55,1	
	Boshqa daromadlar	11,5	15,8	
	Davlat budjetidan transfertlar	558,1	558,1	100,0%
	Xarajatlar	816,1	746,8	91,5%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun xarajatlar	592,9	557,7	
	Yangi va zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan ilmiy laboratoriyalarni tashkil qilish va qo'shimcha jihozlash uchun xarajatlar	88,2	51,3	
	Yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	22,1	10,8	
	Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasini saqlash xarajatlari	11,8	11,7	
	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan dasturlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar	101,1	115,2	
	Yil oxiriga qoldiq	41,5	83,2	
15	Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	2 156,9	2 156,9	
	Daromadlar prognozi	2 050,7	2 144,2	104,6%
	<i>shu jumladan:</i>			

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Jarimalar, dividendlar va boshqa majburiy to'lovlardan ajratmalar	142,7	155,5	
	Boshqa tushumlar	1 677,6	1 753,9	
	Bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar	230,4	234,8	
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	2 797,4	2 813,8	100,6%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ijtimoiy xarajatlar	640,0	656,8	
	Boshqa xarajatlar	2 157,4	2 157,0	
	Yil oxiriga qoldiq	1 410,2	1 487,3	
16	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	77,4	77,4	
	Daromadlar prognozi	130,0	103,3	79,4%
	Davlat budjetidan transfertlar	600,0	600,0	100,0%
	Xarajatlar	801,1	772,1	96,4%
	<i>shu jumladan:</i>			
	"Spinal mushak atrofiyasi" tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish uchun xarajatlar	200,0	200,0	
	Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun xarajatlar	50,0	29,6	
	Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlarni, planshetlarni, multimedia va tarmoq qurilmalarini, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlar	50,0	50,0	
	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar	421,1	412,6	
	Aholining to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash, jismoniy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish bilan bog'liq xarajatlar	80,0	80,0	
	Yil oxiriga qoldiq	6,3	8,6	
17	Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	126,9	126,9	
	Daromadlar prognozi	164,6	169,5	103,0%

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	<i>shu jumladan:</i>			
	Ijtimoiy soliq tushumlari	156,0	150,5	
	Boshqa daromadlar	8,6	19,0	
	Davlat budjetidan transfertlar	200,0	123,9	62,0%
	Xarajatlar	485,6	309,8	63,8%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Subsidiyalar to'lash		99,8	
	Ssuda ajratish		103,5	
	Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga muayyan muddatga tekin foydalanishga topshirish uchun mevali bog' va issiqxonalar barpo qilish xarajatlari		59,9	
	Grant ajratish		0,1	
	Jamg'armani saqlash bilan bog'liq xarajatlar		26,6	
	Boshqa xarajatlar		20,0	
	Yil oxiriga qoldiq	5,8	110,5	
18	Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi			
	Yil boshiga qoldiq	14,0	14,0	
	Daromadlar prognozi	391,5	108,5	27,7%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Oldingi yillarda ajratilgan resurslar, kreditlar, ssuda va qarz mablag'larining qaytishi		74,4	
	Oldingi yillarda ajratilgan resurslar, kreditlar, ssuda va qarz mablag'lari bo'yicha olinadigan foizlar		34,1	
	Boshqa daromadlar (<i>valyuta kursining o'zgarishi hisobiga olingan daromad yoki ko'rilgan zarar</i>)		0,0	
	Davlat budjetidan transfertlar	150,0	142,8	95,2%
	Xarajatlar	555,5	248,7	44,8%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Respublika hududida yangi bog' va tokzorlar yaratish loyihalarini moliyalashtirish	300,0	133,9	
	Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar		67,0	
	Subsidiyalar to'lash		47,8	
	Yil oxiriga qoldiq		16,5	
19	Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi			

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja	Ijro	Ijro foizda
	Yil boshiga qoldiq			
	Daromadlar prognozi	1 063,4	848,4	79,8%
	<i>shu jumladan:</i>			
	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan o'tkaziladigan qoldiq mablag'lar	618,1	596,4	
	Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit va qarz mablag'larining qaytishi	137,4	24,8	
	Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit va qarz mablag'lari bo'yicha olinadigan foizli daromadlar	57,6	16,8	
	Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlar	50,3	10,4	
	Boshqa daromadlar	200,0	200,0	
	Davlat budjetidan transfertlar			
	Xarajatlar	515,0	265,6	51,6%
	<i>shu jumladan:</i>			
	Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit va qarz mablag'lari	240,3	120,7	
	Subsidiyalar to'lash	8,1		
	Surxondaryo viloyati yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar	78,0	9,4	
	Mutaxassislarning axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida maqsadli tayyorlanishini va ularning startap-loyihalarini moliyalashtirishni tashkil etish uchun ajratiladigan mablag'lar	50,0		
	Yoshlarning istiqbolli startap-loyihalarini moliyalashtirish uchun venchur jamg'armaga ajratiladigan mablag'lar	128,8	128,8	
	Jamg'armaning ijro etuvchi apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlar	9,9	6,7	
	Yil oxiriga qoldiq	548,4	582,8	

1. Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.


Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **65,4 mlrd so'mni** tashkil etib, hisobot davrida jamg'armaga Davlat budjetidan **498,8 mlrd so'm** (yillik rejaga nisbatan 99,8 foiz) miqdorida transfertlar ajratilgan hamda **2,2 mlrd so'm** miqdorida boshqa tushumlar tushgan.

2025-yilda jamg'armaning xarajatlari rejasi **585,4 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **512,4 mlrd so'm** (87,5 foiz)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jamg'arma stipendiatlarining xorijdagi nufuzli ta'lim muassasalarida ta'lim olishini va stajirovkadan o'tishini tashkil etish uchun **498,5 mlrd so'm**;
- xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni respublikada mehnat faoliyatini amalga oshirishga jalb etish uchun **1,8 mlrd so'm**;
- jamg'armani saqlash bilan bog'liq xarajatlar **12,1 mlrd so'm**.

57-rasm

"El-yurt umidi" jamg'armasi daromadlari va xarajatlarning yillik ijrosi dinamikasi (mlrd so'm)



Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **54,0 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Xorijiy nufuzli universitetlarda bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida ta'lim olish uchun 450 o'ringa mo'ljallangan 2025-yilgi 1-ochiq stipendiya tanlovida jami 173 nafar (bakalavriatda 112 ta, magistraturada 49 ta va doktoranturada 12 ta) nomzodlar g'olib deb topishga tavsiya etildi.

“El-yurt umidi” stipendiyasi sovrindori deb e’tirof etilgan sovrindorlar uchun 2025 ning 10-12-sentabr kunlari O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni mazmun-mohiyati, yoshlarda davlatimiz rivojiga mas’ullik va daxldorlik hissini shakllantirish hamda xalqaro etiket va protokol masalalari bo‘yicha Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida o‘quv-seminarlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, jamg‘arma tomonidan xorijiy nufuzli universitetlarda bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida ta’lim olish uchun 277 o‘ringa mo‘ljallangan 2025-yilgi 2-ochiq stipendiya tanlovi o‘tkazilib, ushbu tanlovda 64 nafar nomzodlar tanlov g‘olibi sifatida tavsiya etildi.

Jamg‘arma tomonidan amalga oshirilgan **498,5 mlrd so‘m** miqdoridagi xarajatlar hisobidan 2025-yilda va oldingi yillarda jamg‘arma stipendiyatlari uchun to‘lovlar amalga oshirildi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha respublika maqsadli jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **95,3 mlrd so‘mni** tashkil etib, hisobot davrida Respublika budjetidan **723,8 mlrd so‘m** miqdorida transfertlar ajratilgan.

Hisobot yilida jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **795,3 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **819,1 mlrd so‘m (102,99 foiz)**ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 149-moddasiga asosan jamg‘arma tomonidan Vazirlar Mahkamasi vakolati doirasida jamg‘armaning tasdiqlangan xarajatlari nisbatan **3 foizdan** kam miqdorda oshirilgan holda **23,8 mlrd so‘m** miqdorida qo‘shimcha xarajat amalga oshirilgan.

Hisobot davrida davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan mulkdorlarga yetkazilgan zararlarni qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **27 ta** qaror va farmoyishlariga asosan jamg‘armadan **819,1 mlrd so‘m** miqdoridagi mablag‘lar kompensatsiya to‘lovlarini amalga oshirish uchun hududiy jamg‘armalarga o‘tkazib berilgan. Jumladan:

- 153,2 mlrd so‘m Toshkent shahar;
- 75,2 mlrd so‘m Xorazm viloyati;
- 140,0 mlrd so‘m Farg‘ona viloyati;
- 144,5 mlrd so‘m Samarqand viloyati;
- 98,0 mlrd so‘m Toshkent viloyati;
- 37,2 mlrd so‘m Namangan viloyati;

- 35,4 mlrd so‘m Qashqadaryo viloyati;
- 21,4 mlrd so‘m Jizzax viloyati;
- 25,7 mlrd so‘m Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
- 75,1 mlrd so‘m Surxondaryo viloyati;
- 3,1 mlrd so‘m Buxoro viloyati;
- 10,4 mlrd so‘m Navoiy viloyati hududiy kompensatsiya jamg‘armalariga o‘tkazilgan.

Hisobot davrida **2,2 mingta** obyekt mulkdoriga 1,9 trln so‘m miqdorida kompensatsiya to‘lovlari to‘lab berilgan. Jumladan, **838 ta obyekt** uchun 791,1 mlrd so‘m respublika kompensatsiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan va **1 332 ta obyekt** uchun 1,1 trln so‘m miqdoridagi mablag‘lar respublika budjetidan olingan ssuda mablag‘lari, mahalliy budjet mablag‘lari, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari va boshqa manbalar hisobidan hududiy kompensatsiya jamg‘armalari orqali to‘langan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **2 411,9 mlrd so‘mni** tashkil etgan.


2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **57 926,4 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **56 528,3 mlrd so‘m** (97,6 foiz)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ijtimoiy soliq tushumlari **54 454,8 mlrd so‘m**;
- boshqa tushumlar **2 073,6 mlrd so‘m**.

Shu bilan birga, jamg‘armaga Davlat budjetidan **20 246,0 mlrd so‘m** miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

58-rasm

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining yillik ijrosi dinamikasi (trln so‘m)



2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **76 641,3 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **76 702,3 mlrd so'm** (100,1 foiz)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari uchun to'lovlar, shuningdek pensiya va nafaqalarni yetkazib berish xarajatlari uchun **76 698,7 mlrd so'm;**

- boshqa xarajatlar uchun **3,6 mlrd so'm.**

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **2 619,4 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

I. Pensiya jamg'armasining umumiy ko'rsatkichlari.

1.1. Pensiya jamg'armasining 2025-yil uchun daromadlar prognozi 56 528,3 mlrd so'm yoki 97,6 foizga bajarildi. Natijada, 2026-yil 1-yanvar holatiga 2 483,9 mlrd so'm yoki 11 kunlik to'lov uchun yetarli erkin qoldiq mablag'lari saqlanishiga erishildi.

1.2. Jamg'armaning 2025-yil uchun pensiya va boshqa to'lovlarga xarajatlari 76 702,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Har oyda pensiya va boshqa to'lovlar uchun talab etilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda moliyalashtirilishi hamda to'lanishi ta'minlandi. To'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida Davlat budjetidan 20 246,0 mlrd so'm miqdorida transfertlar ajratildi.

1.3. 2025-yilda Pensiya jamg'armasi tomonidan 316,5 ming nafar fuqarolarga yangi pensiyalar tayinlandi. 2026-yil 1-yanvar holatiga pensiya oluvchilarning umumiy soni **4 282,5 ming nafarga** yetib, aholi sonidagi ulushi **11,2 foizni** tashkil qildi.

1.4. 2026-yil 1-yanvar holatiga pensiyalarning bir oylik o'rtacha miqdori **1 575,7 ming so'mni** tashkil qilib, 2025-yil 1-yanvar holatiga nisbatan **144,1 ming so'mga** yoki **10,0 foizga** ko'paydi.

II. Tizimni avtomatlashtirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish.

2.1. **2025-yil 1-martdan** boshlab fuqarolarga "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda **proaktiv shaklda** yoshga doir pensiya tayinlash tartibi joriy etildi.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-maydagi "Nogironlik pensiyalari va kompensatsiyalarni tayinlashda proaktiv xizmatlarni joriy etish to'g'risida"gi PQ-194-son qaroriga asosan **2025-yil 1-iyuldan** boshlab:

– **I yoki II guruh nogironlik pensiyalarni** proaktiv shaklda tayinlash hamda nogironlik pensiyasi tayinlangandan so‘ng kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lganda fuqaroning pensiya miqdorini har ikki yilda proaktiv shaklda qayta hisoblash tartibi joriy etildi;

– ko‘rish qobiliyati bo‘yicha I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga hamda yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan shaxslarga kompensatsiyalarni elektron ma’lumotlar almashinuvi asosida proaktiv shaklda tayinlash;

– nogironlik pensiyasi tayinlangandan so‘ng kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lganda fuqaroning pensiya miqdorini har ikki yilda proaktiv shaklda qayta hisoblash tartiblari joriy qilindi.

2.3. Pensiya jamg‘armasi tomonidan 2025-yilda fuqarolarga 3 mln 882 ming interaktiv va proaktiv xizmatlar ko‘rsatildi. Jumladan:

– 91,3 ming nafar fuqarolarga alohida murojaat talab etmagan (proaktiv) holda yoshga doir pensiyalar tayinlandi;

– 21,1 ming nafar fuqarolarga alohida murojaat talab etmagan (proaktiv) holda nogironlik pensiyalar tayinlandi;

– 7,9 ming nafar fuqarolarning nogironlik pensiyalari proaktiv shaklda qayta hisoblandi;

– 241,9 ming nafar fuqarolarga pensiya oluvchilar ro‘yxatida mavjudligi to‘g‘risida Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali murojaat etish asosida elektron ma’lumotnomalar taqdim etildi;

– 142,5 ming nafar fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini asosida murojaat etish orqali tayinlandi;

– 56,9 ming nafar fuqarolar tomonidan Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlarining manzil ma’lumotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida mavjud xizmatdan foydalanildi;

– 14,9 mingdan ortiq fuqarolar tomonidan pensiyalarni vaqtincha to‘xtatib turish uchun Pensiya jamg‘armasiga tashrif buyurmasdan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali ariza berish orqali avtomatik tarzda to‘xtatilgan;

– 312,9 mingdan ortiq fuqarolar tomonidan o‘zlarining to‘langan pensiyalari miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni Pensiya jamg‘armasiga tashrif buyurmasdan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali olishgan;

– 9,3 ming nafar fuqarolar “SMS-Pensiya” xizmatiga ulanish yoki ulangan telefon raqamni o‘zgartirish yuzasidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat qilgan holda xizmatdan foydalangan;

– 312 ta yuridik tashkilotlar tomonidan Pensiya Qonunining moddalari bo‘yicha hisobotlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali shakllantirdi.

– 2 236,7 ming nafar fuqarolarning yangi bank plastik kartalarini ochish yoki muddati uzaytirganlik ma’lumotlari elektron qabul qilindi;

– 398 nafar fuqarolarga kompensatsiyalar proaktiv shaklda tayinlandi;

– 656,7 ming nafar fuqarolarning pasport ma’lumotlari “Pensiya” dasturiy majmuasida avtomatik tarzda yangilandi;

– 89,2 ming nafar fuqarolarning nogironlik muddatlari avtomatik tarzda uzaytirildi.

III. Pensiya jamg‘armasi moliyaviy faoliyati va mablag‘larini maqsadli sarflanishi ustidan nazorat.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida Pensiya jamg‘armasining 9 650,0 mlrd so‘m miqdoridagi vaqtincha bo‘sh mablag‘larini tijorat banklarining qisqa muddatli depozitlariga joylashtirilishi natijasida 75,4 mlrd so‘m hamda Rivojlantirish jamg‘armasidagi 85,0 mlrd so‘m qoldiq mablag‘larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirilishi natijasida 14,1 mlrd so‘m qo‘shimcha daromad olindi.

IV. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish.

4.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-iyundagi “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi **PF-105-son** Farmonga muvofiq Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limlaridagi **486 ta shtat** birligi qisqartirilishi belgilandi. Jumladan:

– 2025-yil 1-sentabrdan boshlab yoshga doir va nogironlik pensiyalarini proaktiv usulda tayinlash evaziga 241 ta;

– 2026-yil 1-dekabrdan pensiyalarni to‘lashda elektron imzo va biometrik identifikatsiya qilish (Face-ID) tizimini yo‘lga qo‘yish evaziga 104 ta hamda “Call-markaz” faoliyatiga sun‘iy intellektni joriy etish hamda ma’lumotlarni to‘liq raqamlashtirish evaziga 141 ta.

4.2. 2025 yilning avgust oyida **3 tadan shtat** birligidan iborat Raqamli rivojlanish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha loyiha ofisi tashkil etildi.

4.3. 2025-yilning 1-sentabrdan Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida **241 nafar** xodimlar shtat birligi qisqartirildi.

4. Bandlikka ko'maklashish davlat maqsadli jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.


Jamg'armaning 2025-yil boshiga jami qoldiq mablag'lari **10,1 mlrd so'mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **216,3 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **209,1 mlrd so'm (96,7 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Ijtimoiy soliq tushumlari **150,5 mlrd so'm;**
 - Qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni buzganlik uchun belgilangan tartibda qo'llaniladigan ma'muriy jazolardan undiriladigan jarimalar **10,7 mlrd so'm;**
 - boshqa daromadlar **47,9 mlrd so'mni** tashkil etgan (*Budjetdan tashqari jamg'armalar 36,4 mlrd so'm miqdoridagi tushumlarini inobatga olgan holda*).
- Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **226,2 mlrd so'm** tashkil etadi.

59-rasm

Bandlikka ko'maklashish davlat maqsadli jamg'armasi daromadlari va xarajatlarning yillik ijrosi dinamikasi (mlrd so'm)



2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **466,4 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **425,7 mlrd so'm (91,3 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ish qidirayotgan va ishsiz maqomiga ega shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun **250,5 mlrd so'm;**
- ishsizlarga muddatidan oldin pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan Pensiya jamg'armasining xarajatlarini qoplash uchun **12,4 mlrd so'm;**

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va boshqa to'lovlarni to'lash uchun **16,3 mlrd so'm**;

- bandlikka ko'maklashish markazlari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish mintaqaviy markazlari, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazlarining ayrim bo'linmalarini moddiy-texnik ta'minlash va saqlab turish uchun **72,6 mlrd so'm**;

- ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, vakansiyalar hamda band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kompyuter tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik qo'llab-quvvatlash, shu jumladan dasturiy ta'minot ishlab chiqish va texnik vositalarni xarid qilish uchun **12,5 mlrd so'm**;

- subsidiyalar to'lash uchun **8,6 mlrd so'm**;

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga ajratmalar **12,0 mlrd so'm**;

- boshqa xarajatlar uchun **40,8 mlrd so'm** miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan (*Budjetdan tashqari jamg'armalarning 37,2 mlrd so'm miqdoridagi xarajatlarini inobatga olgan holda*).

Bandlikka ko'maklashish davlat maqsadli jamg'armasining hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **19,7 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Hisobot davrida **319 098 nafar** ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilib, ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun 217,6 mlrd so'm mablag' ajratildi.

Ishsiz aholini, shu jumladan, ustuvor ravishda kambag'al oilalar a'zolarini kasb-hunarga o'qitish xarajatlarini qoplab berish bo'yicha **vaucher tizimi** Respublika bo'yicha barcha hududlarda joriy qilindi. O'z navbatida, ushbu tizim orqali **32 830 nafar** fuqarolar jalb qilingan, shundan **23 736 nafar** fuqarolar bilan 27,1 mlrd so'mlik shartnomalar o'quv muassasalari tomonidan rasmiylashtirilgan va mablag'lar ajratilgan.

Ishsizlarga muddatidan oldin pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan **955 nafar** fuqaroga muddatidan oldin pensiya to'lovlari uchun 12,4 mlrd so'm ajratilgan.

Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va boshqa to'lovlarni to'lash uchun **16,3 mlrd so'm** miqdordagi mablag'lar quyidagilarga yo'naltirilgan:

– **1 412 nafar** fuqaroga ishsizlik nafaqasi tayinlanib, ushbu to‘lovlar uchun 6,1 mlrd so‘m;

– **6 353 nafar** nogironligi bo‘lgan shaxslarga, shuningdek, muddati uch oydan ortiq davom etadigan kurslarda ta‘lim olayotgan Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a‘zolariga va doimiy yashash joyidan boshqa hududga qatnab ta‘lim olayotgan shaxslarga stipendiya to‘lovlari uchun 10,2 mlrd so‘m.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ish beruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, bandlik organlari yo‘llanmasi orqali ishga qabul qilingan xodimlarni malakasini oshirish, ayniqsa nogironligi bo‘lgan shaxslarga ish o‘rinlarini moslashtirish maqsadida **320 ta** tadbirkorlik subyektiga **1 105 nafar** ishsiz fuqaroni ishga qabul qilganligi uchun 8,6 mlrd so‘m subsidiyalar to‘langan.

5. Migratsiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **162,1 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **108,5 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **126,9 mlrd so‘m (117 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ruxsatnoma (ish beruvchiga xorijdan ishchi kuchini jalb qilish huquqini beradigan hujjat) va tasdiqnoma (chet el fuqarosiga mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan hujjat) berilganligi uchun yig‘imlardan tushumlar **98,8 mlrd so‘m;**

- boshqa daromadlar **28,1 mlrd so‘m.**

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **50,0 mlrd so‘m** tashkil etadi.

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **232,2 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, ijrosi **214,0 mlrd so‘m (92,1 foiz)**ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatish, shuningdek ularni olib kelish va tibbiy yordam ko‘rsatish uchun **16,2 mlrd so‘m;**

- subsidiyalar to‘lash uchun **3,6 mlrd so‘m;**

- xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketayotgan fuqarolarni ketish oldidan moslashtirish, chet tillariga o‘qitish, kasbga tayyorlash, shuningdek ketish oldidan moslashtirish, chet tillariga o‘qitish, kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish va saqlash uchun **70,8 mlrd so‘m;**

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligining xorijiy vakolatxonalarini tashkil etish, jihozlash va saqlab turish uchun **39,5 mlrd so‘m;**

- Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chiqib ketayotgan fuqarolarga mikrokreditlar ajratish uchun **25,0** mlrd so‘m;

- boshqa xarajatlar uchun **58,7** mlrd so‘m (*Bunda, xususiyl bandlik agentliklarining 30,2 mlrd so‘m miqdoridagi zaxira mablag‘larini qaytarilishi va Kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish uchun 15,3 mlrd so‘m miqdorida amalga oshirilgan xarajatlar inobatga olingan*).

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **141,0** mlrd so‘mni tashkil etdi.

Jamg‘arma faoliyati bilan bog‘liql bo‘lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

2025-yilning hisobot davrida jamg‘arma tomonidan:

3 440 nafar fuqarolarni vataniga qaytarish va moddiy yordam berish, **37 nafar** fuqarolarga xostellar va sutkalik mehmonxonalar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlariga haql to‘lash, **23 nafar** fuqarolarga tibbiyl xizmatlar haqqini to‘lab berish, **406 nafar** vafot etgan mehnat migrantlari jasadlarini vataniga qaytarish maqsadida 16,2 mlrd so‘m;

4 495 nafar xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarni hayoti va sog‘ligini sug‘urtalash maqsadida 1,2 mlrd so‘m;

2 099 nafar xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan mehnat migrantlariga ishchi viza, yo‘l chiptasi va imtihon xarajatlari uchun kompensatsiya berish maqsadida 2,4 mlrd so‘m;

1 543 nafar xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarga chet tillari va kasbga o‘qitish maqsadida 12,5 mlrd so‘m mablag‘lar moliyalashtirilgan.

6. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **247,4** mlrd so‘mni tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **1 777,3** mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, ijrosi **1 625,6** mlrd so‘m (*91,4 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lovdan tushumlar **1 215,2** mlrd so‘m;

- telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berilganligi uchun davlat bojidan tushumlar **121,9** mlrd so‘m;

- Respublikada o‘rnatilgan avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarimalardan tushumlar **263,0** mlrd so‘m;

- boshqa daromadlar **25,1** mlrd so‘m.

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **1 899,1** mlrd so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, ijrosi **1 742,3** mlrd so‘m (*91,7 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga oid vazifalarni hamda loyihalarni amalga oshirish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini takomillashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha ustuvor loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borish, elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot tizimlarini shakllantirish, rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borish uchun **277,3** mlrd so‘m;

- Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash, uning o‘qituvchilari va xodimlarini qo‘shimcha rag‘batlantirish uchun xarajatlar uchun **10,0** mlrd so‘m;

- “Kiberxavfsizlik markazi” DUK faoliyatini moliyalashtirish uchun **75,0** mlrd so‘m;

- O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **451,5** mlrd so‘m;

- “Xavfsiz shahar” yagona integratsiyalashgan tizimlarini yaratish va rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **318,3** mlrd so‘m;

- Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish hamda ta‘lim yo‘nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **254,3** mlrd so‘m;

- boshqa xarajatlar uchun **355,8** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **130,3** mlrd so‘mni tashkil etdi.

7. Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **144,1** mlrd so‘mni tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **280,0** mlrd so‘m belgilangan bo‘lib, ijrosi **328,1** mlrd so‘m (*117,2 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Joylashtirish vositalaridan undiriladigan turistik (mehmonxona) yig‘imdan tushumlar **317,1** mlrd so‘m;

- boshqa tushumlar **11,0** mlrd so‘m.

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **97,0** mlrd so‘m tashkil etadi.

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **520,1** mlrd so‘mga rejalashtirilgan bo‘lib, ijrosi **528,3** mlrd so‘m (*101,6 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- turizm sohasidagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish uchun **79,4** mlrd so‘m;

- xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ‘ib qilish xarajatlari uchun **131,8** mlrd so‘m;

- Turizm qo‘mitasi, shu jumladan uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun **134,3** mlrd so‘m;

- Subsidiyalar to‘lash uchun **101,8** mlrd so‘m, shu jumladan:

• *Yangi mehmonxonalar qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarining hamda dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan foydalanuvchi O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan tashkilotlar royalti xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar to‘lash uchun **101,8** mlrd so‘m;*

- Turistik (mehmonxona) yig‘imdan kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Xavfsiz turizmni ta‘minlash jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar **35,0** mlrd so‘m;

- Teatrlashtirilgan tomosha va konsert dasturlarini tashkil etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar **2,0** mlrd so‘m;

- “Yulduz bilan sayohat” loyihasini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘lar **4,0** mlrd so‘m;

- Atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik stansiyalar xarid qilish xarajatlari uchun **40,0** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **40,9** mlrd so‘mni tashkil etdi.

Jamg‘arma faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi turizmini rivojlantirish maqsadida **22 ta** xorijiy davlatlarda tashkil etilgan **29 ta** xalqaro yarmarkalarida milliy turizm stendi bilan ishtirok etildi.



20 ta xorijiy davlatlarda “Road show”, turizm forumlari va taqdimot tadbirlari hamda Buyuk Britaniyaning “Potters Fields” bog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniyadagi elchixonasi bilan birgalikda **II O‘zbekiston turizmi, madaniyati va gastronomiya festivali** tashkil etildi.

Xorijiy OAV vakillari va blogerlar uchun mamlakatimiz bo‘ylab 28 ta press-turlar tashkil etildi hamda O‘zbekistonning turistik salohiyatiga oid videoroliklar Moskva, Frankfurt, Myunxen, London, Minsk va Boku xalqaro aeroportlarida keng targ‘ib qilindi.

8. Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **1 887,5 mlrd so‘m**ni tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **1 047,0 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **755,1 mlrd so‘m (72,1 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jalb etiladigan kreditlar (qarzar) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat kafolatlari berilganligi uchun undiriladigan mukofot puli tushumlari **36,9 mlrd so‘m;**

- vaqtincha bo‘sh mablag‘larni tijorat banklariga depozitlarga joylashtirishdan va yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan tushumlar **283,0 mlrd so‘m;**

- Xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag‘larni depozitga joylashtirishdan, kredit liniyalari ochishdan va budjet ssudalarini ajratishdan foiz tarzida to‘lanadigan daromadlardan olingan foyda solig‘i miqdorida respublika budjetidan ajratmalar **33,1 mlrd so‘m;**

- Xalqaro moliya institutlaridan, xorijiy davlatlar va tashkilotlardan jalb qilingan qarz mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari depozitiga joylashtirishdan olinadigan daromadlar **74,4 mlrd so‘m;**

- boshqa daromadlar **327,6 mlrd so‘m.**

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **1 559,1 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **378,8 mlrd so‘m (24,3 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- qarzdor tashkilotlar davlat qarzi bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirmagan holatlarda qarzdor tashkilotlar tomonidan qayta qoplash sharti bilan qarz to‘lovlarini amalga oshirish uchun **373,7 mlrd so‘m;**

- boshqa xarajatlar (xalqaro obligatsiyalar bo‘yicha foiz xarajatlar) uchun **5,2 mlrd so‘m.**

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **2 263,7 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Jamg'arma tomonidan hisobot davrida qarzdor tashkilotlar davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirmagan holatlar bo'yicha **47 ta shartnomalarning jami 1 539,7 mlrd so'm** (*yillik rejalashtirilgan xarajatlarning 98,8 foizi*) mablag'lar to'langan bo'lib, qarzdor tashkilotlar tomonidan hisobot davrining o'zida jamg'arma tomonidan to'langan mablag'larning **1 166,1 mlrd so'mi** jamg'armaga qaytarilgan va buning natijasida jamg'armaning xarajatlari yillik rejaga nisbatan **24,3 foizni** tashkil etgan.

9. Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **257,8 mlrd so'mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **13 228,0 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, ijrosi **10 301,4 mlrd so'm** (*77,9 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- davlat aktivlarini (korxonalar, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi aksiyalar, yer uchastkalariga bo'lgan huquq va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mol-mulklarni) sotishdan tushgan mablag'lar **10 262,3 mlrd so'm;**

- boshqa daromadlar **39,1 mlrd so'm;**

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **13 228,0 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **10 456,7 mlrd so'm** (*79,1 foiz*)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Davlat budjetiga o'tkazilgan transfertlar **8 502,0 mlrd so'm**, shu jumladan:

- *O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga* **6 292,8 mlrd so'm;**
- *Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlariga* **2 209,1 mlrd so'm;**

- Jamg'arma tasarrufida qoladigan mablag'lar **223,4 mlrd so'm;**

- boshqa xarajatlar **1 731,3 mlrd so'm**, shundan:

- *O'zbekiston Respublikasining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan amalga oshirilgan xarajatlar* **1 572,9 mlrd so'm;**

- *Davlat aktivlarini baholash va sotish bilan bog'liq professional tashkilotlar hamda konsultantlar xarajatlari* **88,3 mlrd so'm;**

- *O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzuridagi Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga* **70,0 mlrd so'm.**

Jamgʻarmaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablagʻlari **102,5 mlrd soʻmni** tashkil etdi.

10. Davlat tibbiy sugʻurtasi jamgʻarmasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamgʻarmaning 2025-yil boshiga qoldiq mablagʻlari **50,2 mlrd soʻmni** tashkil etgan.

Jamgʻarmaga hisobot davrida Davlat budjetidan **22 924,8 mlrd soʻm** (100,5 foiz) miqdorida **transfertlar** ajratilgan, **shu jumladan:**

- respublika budjetidan **1 322,9 mlrd soʻm;**
- mahalliy budjetlardan **21 601,9 mlrd soʻm.**

2025-yilda jamgʻarmaning **xarajatlari** rejasi **22 800,9 mlrd soʻmga** rejalashtirilgan boʻlib, hisobot davrida ijrosi **22 708,3 mlrd soʻm** (99,6 foiz)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xarid qilish uchun **22 619,7 mlrd soʻm;**
- Jamgʻarmaning ijro etuvchi apparatini saqlash bilan bogʻliq xarajatlar uchun **87,8 mlrd soʻm;**
- Boshqa xarajatlar uchun **0,8 mlrd soʻm** xarajatlar amalga oshirilgan.

Davlat tibbiy sugʻurtasi jamgʻarmasining hududiy jamgʻarmalariga mahalliy budjetlardan jami **21 601,9 mlrd soʻm** miqdorida transfertlar ajratilgan boʻlib, ushbu mablagʻlar hisobidan hududiy jamgʻarmalar tomonidan hisobot davrida **21 387,9 mlrd soʻm** miqdorida Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlar xarid qilingan.

26-jadval

№	Hudud nomi	Mahalliy budjetlar transfertlari mlrd soʻm	Xarajatlar mlrd soʻm
Jami:		21 601,9	21 387,9
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2 027,6	2 007,1
2	Andijon viloyati	1 075,5	1 060,8
3	Buxoro viloyati	2 122,7	2 101,6
4	Jizzax viloyati	568,2	559,6
5	Qashqadaryo viloyati	2 628,0	2 601,6
6	Navoiy viloyati	1 398,7	1 383,3

№	Hudud nomi	Mahalliy budjetlar transfertlari mlrd so‘m	Xarajatlar mlrd so‘m
7	Namangan viloyati	940,6	927,5
8	Samarqand viloyati	3 094,5	3 060,4
9	Surxondaryo viloyati	850,5	836,1
10	Sirdaryo viloyati	988,7	984,9
11	Toshkent viloyati	711,3	700,6
12	Farg‘ona viloyati	1 128,1	1 112,2
13	Xorazm viloyati	1 751,0	1 735,9
14	Toshkent shahar	2 316,5	2 316,2

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **271,1 mlrd so‘mni** tashkil etdi.

11. Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **5 880,0 mlrd so‘mni** tashkil etgan bo‘lib, shundan, **5 713,0 mlrd so‘mi** ta’lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga joylashtirilgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **550,0 mlrd so‘m** bo‘lib, ijrosi **497,8 mlrd so‘m (90,5 foiz)**ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, jamg‘armaga Davlat budjetidan **1 718,0 mlrd so‘m** miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **600,0 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, ijrosi **613,8 mlrd so‘m (102,3 foiz)**ni tashkil etgan.

Jamg‘arma tomonidan amalga oshirilgan **613,8 mlrd so‘m** miqdoridagi xarajatlar **xotin-qizlarning ta’lim kreditlari bo‘yicha hisoblangan foizlarini** kompensatsiya qilish uchun yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga, jamg‘arma tomonidan hisobot davrida ta’lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga **1 245,2 mlrd so‘m** miqdorida mablag‘lar joylashtirilgan.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **7 481,9 mlrd so‘mni** tashkil etadi, shundan, **6 958,2 mlrd so‘mi** ta’lim kreditini moliyalashtirish uchun tijorat banklari depozitlariga joylashtirilgan.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

2025-yilda jamg'arma bilan hamkorlik qilayotgan **12 ta** tijorat banklaridan **11 tasi** tomonidan **85 ming** nafar talabalar uchun qariyb **1,4 trln** so'm kreditlar ajratildi. Mazkur kreditlarni **84 foizi** xotin-qizlar tomonidan olingan.

Jamg'arma tomonidan amalga oshirilgan **613,8 mlrd so'm** miqdoridagi xarajatlar **470** ming nafardan ortiq **xotin-qizlarning ta'lim kreditlari bo'yicha hisoblangan foizlarini** kompensatsiya qilish uchun yo'naltirilgan.

2025-yilda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Jahon banki hamkorligida ta'lim krediti tizimini isloh qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

2025-yil 25-iyunda Grant Facility for Project Preparation doirasida TF0C8875-sonli grant kelishuvi imzolanib, talabalar krediti tizimini rivojlantirish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish uchun **2 mln** AQSH dollari miqdorida grant ajratildi;

Jahon bankining Program-for-Results (PforR) instrumenti asosida umumiy qiymati **250 mln** AQSH dollari bo'lgan "EduImkon: Redesigning Opportunity, Delivering Educational Equity" dasturi tayyorlandi. Ushbu dastur doirasida ta'lim krediti oluvchilar sonini oshirish, jumladan qo'shimcha **17,5 ming** nafar ayol talabani va **6,25 ming** nafar kam ta'minlangan oila farzandlarini qamrab olish, shuningdek talabalar krediti bo'yicha raqamli boshqaruv platformasini joriy etish uchun **30 mln** dollargacha mablag' ajratish ko'zda tutilgan. Mazkur ishlar ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni manzilli qilish va talabalar kredit tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

12. Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.



Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **580,4 mlrd so'mni** tashkil etgan.

Hisobot davrida jamg'arma **daromadlari 12,1 mlrd so'mga** ijro etilgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga hisobot davrida Davlat budjetidan **7 859,1 mlrd so'm** miqdorida **transfertlar** ajratilgan.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **7 912,1 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **8 110,7 mlrd so'm (102,5 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga muvofiq avtomobil yo'llarini, ko'priklarni va yo'l

o'tkazgichlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, shuningdek obyektlarni jihozlash va texnika xarid qilish uchun **3 616,1** mlrd so'm;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq xarajatlar uchun **3 833,2** mlrd so'm;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun **479,8** mlrd so'm;

- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasidagi loyihalarni amalga oshirish guruhlarini saqlash xarajatlari uchun **6,3** mlrd so'm;

- Boshqa xarajatlar (mahalliy hokimliklar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan joriy xarajatlar) uchun **175,3** mlrd so'm.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **340,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Jamg'arma tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan xarajatlar hisobidan quyidagilar amalga oshirildi:

- **1 780 km** umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi;
- harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida **41 km** umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 1-toifadagi yo'l to'siqlari o'rnatildi;
- **195 km** piyodalar yo'lakchalari ta'mirlandi;
- **128 km** umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini va ulardagi sun'iy inshootlar qurilishi va qayta qurilishi amalga oshirildi.

13. Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **194,0** mlrd so'mni tashkil etgan.



2025-yilda jamg'arma daromadlari **7,1** mlrd so'mga ijro etilgan.

Shu bilan birga, jamg'armaga 2025-yilda Davlat budjetidan **2 116,0** mlrd so'm miqdorida transfertlar ajratilgan.

2025-yilda jamg'armaning xarajatlari rejasi **2 298,6** mlrd so'mga rejalashtirilgan bo'lib, ijrosi **1 893,1** mlrd so'm (82,4 foiz)ni tashkil etgan, shu jumladan:

- ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish dasturiga muvofiq ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek loyiha-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun **1 893,1 mlrd so'm**.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **424,0 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

Jamg'armaning 2025-yilda Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida respublika aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va oqova suv tizimlarini yaxshilash maqsadida Respublika budjetidan "Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish" jamg'armasiga **97 ta** obyektlarning to'lovlarni moliyalashtirish uchun **2 103,3 mlrd so'm** transfert mablag'lari yo'naltirildi.

2025-yilda **1 208 ming km** ichimlik va **347 km** oqova suv tarmoqlarini qurish hamda **73 ta** ichimlik va **31 ta** oqova suv inshootlarini barpo etish ishlarini amalga oshirildi.

Natijada, 2025-yil yakuni bilan respublika bo'yicha markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasini **83 foizgacha** hamda oqova suv xizmatlari bilan qamrab olish darajasini **22 foizgacha** oshirilishiga erishildi.

14. Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **200,9 mlrd so'mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **98,6 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **70,9 mlrd so'm (71,9 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga patent bojlaridan, yig'imlardan va soliq toifasiga kirmaydigan boshqa to'lovlardan kelib tushadigan mablag'lardan tushumlar **55,1 mlrd so'm**;

- boshqa daromadlar **15,8 mlrd so'm**.



Shu bilan birga, jamg'armaga 2025-yilning hisobot davrida Davlat budjetidan **558,1 mlrd so'm** miqdorida transfertlar ajratilgan.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **816,1 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **746,8 mlrd so'm (91,5 foiz)**ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun xarajatlar **557,7** mlrd so‘m;

- yangi va zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan ilmiy laboratoriyalarni tashkil qilish va qo‘shimcha jihozlash uchun **51,3** mlrd so‘m;

- Yosh olimlarning qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish uchun **10,8** mlrd so‘m;

- jamg‘armaning Ijro etuvchi direksiyasini saqlash xarajatlari uchun **11,7** mlrd so‘m;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan dasturlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **115,2** mlrd so‘m.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **83,2** mlrd so‘mni tashkil etadi.

Jamg‘arma faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

1. Davlat ilmiy dasturlari doirasida loyihalarni moliyalashtirish.

Jamg‘arma tomonidan davlat ilmiy dasturlari doirasida **592,7** mlrd so‘mlik **1 208 ta** loyihalar moliyalashtirildi. **Jumladan:**

– davlat buyurtmasi asosida **770 ta** ilmiy-tadqiqot loyihalariga 468,1 mlrd so‘m;

– innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishga tayyorlashga qaratilgan **2 ta** loyihalarga 841 mln so‘m;

– moliyalashtirishga tavsiya etilgan **53 ta** startap loyihalarga 7,4 mlrd so‘m;

– shartnomaviy majburiyatlari yakunlangan hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomalari rasmiylashtirilgan **265 ta** ilmiy-tadqiqot loyihalarga 16,9 mlrd so‘m yo‘naltirildi.

2. Ilmiy tashkilotlar moddiy-texnik bazasini yangilash.

Ilmiy ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalarini zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash (qo‘shimcha jihozlash) uchun **51,3** mlrd so‘mlik xarajatlar amalga oshirildi.

Jumladan, respublikamizdagi **11 ta** ilmiy ta’lim muassasalari ilmiy laboratoriyalarini **87 turdagi 150 ta** zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 50,7 mlrd so‘m moliyalashtirildi.

Shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirish (*ekspertiza, bojxona yig‘imlari, akkreditiv va bank komissiyasi*) bilan bog‘liq boshqa xarajatlar uchun **615,2** mln so‘m sarflandi.

3. Yosh olimlarni qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish.

Yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish uchun **10,83 mlrd so‘m** sarflandi.

Natijada respublikamizdagi **83 ta** oliy va ilmiy ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi **145 nafar** yosh olimlarni **13 ta** xorijiy davlatlardagi (*AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Vengriya, Turkiya, Xitoy va boshqalar*) **32 ta** nufuzli ilmiy-tadqiqot muassasalariga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini moliyalashtirish ta’minlandi.

15. Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **2 156,9 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **2 050,7 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **2 144,2 mlrd so‘m (104,6 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- jarimalar, dividendlar va boshqa majburiy to‘lovlardan ajratmalar **155,5 mlrd so‘m;**

- boshqa tushumlar **1 753,9 mlrd so‘mni** tashkil etgan;

- bo‘sh turgan pul mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar **234,8 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘armaning **xarajatlari** rejasi **2 797,4 mlrd so‘mga** rejalashtirilgan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **2 813,8 mlrd so‘m (100,6 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- ijtimoiy xarajatlar uchun **656,8 mlrd so‘m;**

- boshqa xarajatlar uchun **2 157,0 mlrd so‘m** miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan.

Jamg‘armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag‘lari **1 487,3 mlrd so‘mni** tashkil etadi.

16. Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg‘armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag‘lari **77,4 mlrd so‘mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg‘arma **daromadlari** prognoz ko‘rsatkichi **130,0 mlrd so‘m** belgilangan bo‘lib, hisobot davrida ijrosi **103,3 mlrd so‘m (79,4 foiz)**ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **600,0 mlrd so‘mni** tashkil etadi.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **801,1 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **772,1 mlrd so'm** (96,4 foiz)ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- "Spinal mushak atrofiyasi" tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish uchun xarajatlar **200,0 mlrd so'm;**

- iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun xarajatlar **29,6 mlrd so'm;**

- Sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlarni, planshetlarni, multimedia va tarmoq qurilmalarini, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlar **50,0 mlrd so'm;**

- Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar **412,6 mlrd so'm;**

- Aholining to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash, jismoniy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun ajratiladigan mablag'lar **80,0 mlrd so'm.**

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **8,6 mlrd so'mni** tashkil etadi.

Jamg'arma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi davlat tibbiyot muassasalarining **361 nafar** xodimlarini xorijda tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, **75 nafar** fuqarolarni oliy ta'limning o'quv dasturlari – ordinatura dasturlari bo'yicha o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasida seminar-trening va master klasslarni o'tkazish uchun **50 nafar** xorijiy mutaxassislar jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun 29,6 mlrd so'm moliyalashtirilgan.

185 nafar "Spinal mushak atrofiyasi" tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va **2 250 dona Risdiplam (Evrisidi)** dori vositalarini bepul yetkazib berish xarajatlari uchun 200 mlrd so'm moliyalashtirilgan.

25 689 nafar bemorlarni yurak qon-tomir kasalliklarni ilk bosqichda erta aniqlash, bemorlarni zamonaviy (yuqori texnologik kam invazivlik) davo muolajalarini amalga oshirish orqali sog'lomlashtirilgan bemorlarni dori vositalari, tibbiy buyumlar, laboratoriya reaktivlari va boshqa sarflash vositalarini xarid qilish,

kadrlar salohiyatini mustahkamlash, o'qitish, malaka oshirish va tajriba almashishni respublikada tashkil etish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb etish, shuningdek **200 ta** yurak qon-tomir tizimi kasalliklari aniqlangan bemorlarga yuqori texnologik jarrohlik usullari bilan davolash (*stentlash amaliyoti*) bilan bog'liq xarajatlar uchun 71,9 mlrd so'm moliyalashtirilgan.

Onkogematologik kasalliklarga chalingan **1 320 nafar bemorda** pozitron-emission tomografiya tekshiruvlari o'tkazishga yuqori texnologik tashxis qo'yish va tibbiy yordam ko'rsatish xizmatlarini xarid qilish xarajatlarini qoplashga 5,2 mlrd so'm mablag'lar ajratilgan.

40 287 nafar Respublika tez tibbiy yordam markazi va hududiy filiallari xodimlarini maxsus kiyim-bosh (formasi) bilan ta'minlash xarajatlariga 64,5 mlrd so'm mablag'lar ajratilgan.

17. Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **126,9 mlrd so'mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **164,6 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **169,5 mlrd so'm (103,0 foiz)**ni tashkil etgan, **shu jumladan:**

- Ijtimoiy soliq tushumlari **150,5 mlrd so'm;**
- boshqa daromadlar **19,0 mlrd so'm;**

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **123,9 mlrd so'mni** tashkil etadi.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **485,6 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **309,8 mlrd so'm (63,8 foiz)**ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- subsidiyalar to'lash bilan bog'liq xarajatlar **99,8 mlrd so'm;**
- ssuda ajratish xarajatlari **103,5 mlrd so'm;**
- Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarga muayyan muddatga tekin foydalanishga topshirish uchun mevali bog' va issiqxonalar barpo qilish xarajatlari **59,9 mlrd so'm;**
- Jamg'armani saqlash bilan bog'liq xarajatlar **26,6 mlrd so'm;**
- boshqa xarajatlar **20,0 mlrd so'm;**

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **110,5 mlrd so'mni** tashkil etadi.

18. Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

Jamg'armaning 2025-yil boshiga qoldiq mablag'lari **14,0 mlrd so'mni** tashkil etgan.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **391,5 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **108,5 mlrd so'm (27,7 foiz)**ni tashkil etgan. Bunda, Davlat budjetidan ajratilishi rejalashtirilgan **300 mlrd so'm** miqdoridagi ssuda mablag'lariga talab bo'lmaganligi sababli daromadlarning rejaga nisbatan ijrosi **27,8 foizni** tashkil etgan.

Shu bilan birga, hisobot davrida Davlat budjetidan ajratilgan **transfertlar** miqdori **142,8 mlrd so'mni** tashkil etadi.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **555,5 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **248,7 mlrd so'm (44,8 foiz)**ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- Respublika hududida yangi bog' va tokzorlar yaratish loyihalarini moliyalashtirish uchun **133,9 mlrd so'm;**

- Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar **67,0 mlrd so'm;**

- subsidiyalar to'lash bilan bog'liq xarajatlar **47,8 mlrd so'm.**

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **16,5 mlrd so'mni** tashkil etadi.

19. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ijrosi.

2025-yilda jamg'arma **daromadlari** prognoz ko'rsatkichi **1 063,4 mlrd so'm** belgilangan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **848,4 mlrd so'm (79,8 foiz)**ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan o'tkaziladigan qoldiq mablag'lar **596,4 mlrd so'm;**

- Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit va qarz mablag'larining qaytishi **24,8 mlrd so'm;**

- Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit va qarz mablag'lari bo'yicha olinadigan foizli daromadlar **16,8 mlrd so'm;**

- Vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olinadigan foizli daromadlar **10,4 mlrd so'm;**

- Boshqa daromadlar (2024-yilda Davlat budjetidan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar) **200,0 mlrd so'm**.

2025-yilda jamg'armaning **xarajatlari** rejasi **515,5 mlrd so'mga** rejalashtirilgan bo'lib, hisobot davrida ijrosi **265,6 mlrd so'm** (*51,6 foiz*)ni tashkil etgan. **Jumladan:**

- Yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan kredit va qarz mablag'lari **120,7 mlrd so'm**;

- Surxondaryo viloyati yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar **9,4 mlrd so'm**;

- Yoshlarning istiqbolli startap-loyihalarini moliyalashtirish uchun venchur jamg'armaga ajratiladigan mablag'lar **128,8 mlrd so'm**;

- jamg'armaning ijro etuvchi apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlar **6,7 mlrd so'm**.

Jamg'armaning hisobot davri yakuniga jami qoldiq mablag'lari **582,8 mlrd so'mni** tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2025-yil yakunlari bilan Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari **425,3 trln so'mni** va xarajatlari **447,8 trln so'mni** tashkil etgan holda Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining taqchilligi **22,5 trln so'mni** yoki YIMga nisbatan **1,2 foizni** tashkil etdi.

VIII. Vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari

I. Davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini uslubiy rivojlantirish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va 2025-yil 29-apreldagi 279-son qarori bilan tasdiqlandi. Unda **respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida moliyaviy va boshqa xavflarni barvaqt aniqlash, baholash va boshqarishning yaxlit tizimi joriy etildi.**

Shuningdek, ushbu qaror bilan Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda Xavflarni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Mazkur qaror asosida **42 ta** davlat organlari va tashkilotlarida birinchi rahbar boshchiligida **xavflarni boshqarish qo‘mitalari tuzildi.**

2. Vazirlar Mahkamasining “2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarori bilan tasdiqlandi. Uning tarkibidan 2025–2027-yillarda davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish “Yo‘l xaritasi” o‘rin oldi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan amaldagi ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid **Hukumat qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi:**

ichki audit xizmatlari **eng kam shtat birliklari sonini aniqlash metodikasi va ichki audit xizmati rahbarlarini lavozimdan ozod etishni Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish** tartibi belgilandi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashda foydalaniladigan savolnomaga baholash amaliyoti hamda qonunchilikdagi o‘zgarishlardan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi;

ichki audit milliy malaka sertifikatini berish va sertifikat egalarining malakasini oshirish jarayoniga amaliyotdan kelib chiqib, tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-apreldagi “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 210-son qarori bilan **“2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi”** tasdiqlandi.

Mazkur strategiyada davlat ichki nazorati va ichki auditini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish belgilandi:

Davlat ichki nazorati va ichki audit to'g'risidagi **qonun loyihasini ishlab chiqish;**

Xalqaro standartlar asosida ichki audit xizmatlari xodimlarini **sertifikatlash va malakasini oshirish** tizimlarini takomillashtirish;

Ichki audit xizmatlari faoliyatida **samaradorlik audit** va **axborot texnologiyalari auditini** joriy etish tartibini ishlab chiqish;

Davlat organlari va tashkilotlarida **ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish;**

Davlat organlari va tashkilotlarida **ichki audit xizmatini outsorsing asosida amalga oshirish** tartibini belgilash.

4. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-apreldagi 210-son qaroriga muvofiq, shuningdek, ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini raqamlashtirish orqali davlat budjeti mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **“Davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.**

Hozirda, Ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini **raqamlashtirishga ko'maklashish bo'yicha ekspert yollash** ishlari amalga oshirilmoqda.

5. Davlat organlari va tashkilotlari **ichki audit xizmatlari xodimlarini tayyorlash va sertifikatlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish maqsadida** Jahon banki ishtirokida “Institutsional salohiyatni oshirish loyihasi” doirasida xorijiy maslahatchi bilan shartnoma imzolaniib, belgilangan texnik topshiriq asosida xorijiy davlatlar ilg'or tajribalari va mamlakatimizdagi amaliyot o'rganildi.

Ilg'or xalqaro amaliyotni O'zbekistonda tatbiq etish hamda sertifikatlash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **“Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari va moliyaviy nazorat xodimlari malakasini sertifikatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.**

6. Ichki auditga oid yangi qabul qilingan normativ hujjatlardan kelib chiqib, **Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida** Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 10-dekabrda 309-son **buyrug'i qabul qilindi** va u belgilangan tartibda Adliya vazirligida 2025- yil 18-dekabrda 3406-2-son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

7. Yangi qabul qilingan normativ hujjatlardan kelib chiqib **Ichki audit milliy standartlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 22-dekabrda 315-son **buyrug'i qabul qilindi** va u belgilangan tartibda Adliya vazirligida 2025-yil 30-dekabrda 3394- 1- son bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

II. Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash va malakasini oshirish.

1. O'zbekiston Auditorlar palatasi bilan birgalikda ichki audit milliy malaka sertifikatini olishga talabgorlar uchun har oy malaka imtihonlari tashkil etildi. Shuningdek, imtihon komissiyasi va apellyatsiya komissiyasi tarkibida **boshqarma xodimlari komissiya a'zolari sifatida ishtirok etdi.**

Ma'lumot uchun. 2025-yil davomida 702 nafar talabgorlarning 253 nafari ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'ldi. Bugungi kunda 970 nafar shaxslar ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega.

Shuningdek, belgilangan tartibda **malaka oshirish kursini o'tamagan** ichki audit milliy malaka sertifikati egalari **sertifikatlarining amal qilish muddati tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar** Iqtisodiyot va moliya vazirligining **sertifikatlar reestrda** aks ettirilib borilmoqda.

Ma'lumot uchun. 2025-yil davomida 123 nafar sertifikat egalarining sertifikatlari amal qilish muddati tugatildi.

Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit shtat birliklarida ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'lmagan xodimlarning faoliyat olib borishi taqiqlanganligi sababli, Ichki audit milliy malaka sertifikatlari reestri "Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahlil tizimi" dasturiy-apparat kompleksining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilindi.

2. Ichki audit tuzilmalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash hamda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'quv markazida boshqarma xodimlari ishtirokida malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Mazkur malaka oshirish kurslarida hisobot davrida **34 ta** vazirlik va idoralarning **149 nafar** ichki audit xodimlari, **166 nafar** Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi xodimlari hamda **41 ta** vazirlik va idoralarning **165 nafar** xavflarni boshqarish sohasidagi mas'ul xodimlari malakasi oshirildi.

3. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki audit xizmatlari, moliya-iqtisod (buxgalteriya) tuzilmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari uchun ichki nazorat va ichki audit faoliyatini tashkil etishning ilg'or xorijiy tajribalari, shuningdek, tegishli qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazishga bag'ishlangan **10 ga yaqin** seminar va treninglar o'tkazildi.

Shu bilan birga, bevosita vazirlik va idoralarda seminarlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Tog'-kon va geologiya

vazirliklarida ichki nazorat tizimiga mas'ul rahbar va xodimlarga “Davlat sektorida ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimi”ni joriy etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan seminarlar o'tkazildi.

Mazkur seminar va treninglarda **200 dan ortiq** rahbar o'rinbosarlari, ichki audit, moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlari ishtirok etdi.

III. Davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish va takomillashtirish.

1. Jahon banki ko'magida tashkil etilgan “Institutsional salohiyatni oshirish” loyihasi doirasida PricewaterhouseCoopers xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlik doirasida ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan belgilangan ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida PWC xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ichki nazorat qo'llanmasining tajriba-sinovi o'tkazildi.

2. Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda budjet intizomini yanada mustahkamlash maqsadida **56 ta** davlat organlari va tashkilotlarda **hisob siyosatining ishlab chiqilishi va tasdiqlanishiga erishildi.**

Moliya-iqtisod va buxgalteriya xizmatlari xodimlari malakasini baholash maqsadida **55 ta** davlat organlari va tashkilotlarining **moliya-iqtisod va buxgalteriya tuzilmalarida** faoliyat olib borayotgan **17,7 ming nafar** xodimlarning **40 ta ko'rsatkich bo'yicha tahlili amalga oshirildi** hamda tahlil natijalaridan kelib chiqib 2026–2027-yillarda davlat ichki moliyaviy nazorati tizimini joriy etish orqali dastlabki va joriy nazoratni yanada kuchaytirish yuzasidan **chora-tadbirlar rejasi loyihasi ishlab chiqildi.**

Davlat organlari va tashkilotlarining quyi tizim tashkilotlari moliyaviy ma'lumotlarini masofaviy nazorat qilish maqsadida **markaziy apparat** hamda **viloyat darajasidagi moliya-iqtisod va buxgalteriya xizmatlari xodimlariga** “Uzasbo” dasturiy majmuasining **“kameral” modulidan foydalanishi** tashkil etildi hamda login va parollar berish boshlandi.

IV. Ichki audit tuzilmalari faoliyatini baholash natijalari.

Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 377-sonli qarori talablari asosida amalga oshirildi.

2025-yilda **5 turdagi** xavf omillarining tahlili asosida tanlab olingan **11 ta** vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlarida (jami ichki audit xizmatlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarning **22 foizi**) **baholash o'tkazildi.**

Baholash natijasiga ko'ra, jumladan, **Transport vazirligi** (62,2%), **Ekologiya vazirligi** (64,3%), **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** (66,7%), ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat darajasi **“past”**, Kadastr agentligi (72,3%), Yoshlar ishlari agentligi (75,7%), Madaniyat vazirligi (81,3%), Fanlar akademiyasi (82,3%), Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (86,1%), O'zarxiv agentligi (88,7%) ichki audit xizmatining sifat darajasi **“o'rta”** hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi (91,6%), Adliya vazirligi (92,4%) ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi **“yuqori”** darajada baholandi.

Ma'lumot uchun, 2025-yilda baholash o'tkazilgan 11 ta vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlarining baholash natijalari bo'yicha yillik hisobot Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilindi (<https://imv.uz>).

Baholash natijasi asosida, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan **vazirlik bo'yicha chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, uning birinchi rahbarlari tomonidan tasdiqlandi.**

Shu bilan birga, baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, ichki auditga oid qabul qilingan qonunchilik hujjatlari hamda baholash amaliyotidan kelib chiqib, Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash bo'yicha **namunaviy savolnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar** kiritish loyihasi tayyorlandi.

V. Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning reytingi.

“Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizom”ga (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-dekabrda 3583-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) muvofiq davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil choraklar bo'yicha faoliyati samaradorligi reytingi tuzildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilindi (<https://imv.uz>).

Ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil IV chorak faoliyati samaradorligi reytingi natijalariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarining 232 nafar ichki audit xizmati xodimlaridan 171 nafari (74 foizi) “a'lo”, 38 nafari (16 foizi) “yaxshi”, 13 nafari (6 foizi) “qoniqarli” hamda 10 nafari (4 foizi) “qoniqarsiz” deb baholandi.


O'z navbatida, 2025-yilning IV-chorak reyting ko'rsatkichlari o'tgan III-chorak faoliyat samaradorligi natijalariga nisbatan yaxshilanib, “a'lo” reyting ko'rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 129 nafardan 171 nafarga, shuningdek, “qoniqarli” reyting ko'rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 31 nafardan 13 nafarga hamda “qoniqarsiz” reyting ko'rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 17 nafardan 10 nafarga kamayishiga erishilgan.

Ma'lumot uchun, Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligi (KPI) amaldagi normativ hujjatga asosan oldi olingan moliyaviy xato va

kamchiliklar(1), masofaviy audit natijalari(2), yillik rejaning bajarilishi(3) hamda takliflarning ijro etilishi(4) ko'rsatkichlari natijalari asosida 56 foizgacha – “qoniqarsiz”, 56 foizdan 71 foizgacha – “qoniqarli”, 71 foizdan 86 foizgacha – “yaxshi”, 86 foizdan yuqori – “a'lo” baholanadi.

60-rasm

**Ichki audit xizmatlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash
bo'yicha reyting natijalari
(2025-yilning choraklari bo'yicha)**



VI. Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyati natijalari.

1. 2025-yilda jami **62 ta** jumladan, **17 ta vazirlik**, **8 ta qo'mita**, **15 ta agentlik**, **14 ta hokimlik** va **8 ta boshqa tashkilotlarda** ichki audit xizmatlari faoliyat olib bordi. Ular faoliyatining natijalari sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tish mumkin:

- hisobot davrida o'tkazilgan audit tadbirlari natijasida jami **827,3 mlrd so'mlik maqsadsiz va samarasiz xarajatlar oldi olindi;**


- budjet hisobi va hisobotlari yuritilishiga ko'maklashish natijasida **1 030,5 mlrd so'mlik** asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarning o'rnatilgan tartibda **buxgalteriya balansida to'g'ri aks ettirilishiga** erishildi;

- hisobot davrida ichki audit xizmatlari tomonidan ishlab chiqilgan **4 088 ta taklif va tavsiyalarning ijrosi ta'minlandi;**

- hisobot davrida ichki audit xizmatlari tomonidan ularning 2025-yil rejalariga kiritilgan **1 036 ta** ichki audit tadbirlarining **994 tasi** yoki **96 foizi** o'tkazildi.


Ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan profilaktika tadbirlari natijalari

(2024 va 2025-yillar bo'yicha, mlrd so'mda)




Ichki audit xizmatlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi

(2024 va 2025-yillar bo'yicha)



Ichki audit xizmatlari tomonidan yillik rejasining bajarilishi

(2024 va 2025-yillar bo'yicha)



- hisobot davrida 44 ta vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tomonidan 162,3 trln so'm miqdoridagi budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 152 ta dasturlarining 715 ta maqsadli indikatorlari ijrosi yuzasidan hisobotlar tahlil qilindi.

Ichki audit xizmatlarining faoliyati natijalari bo'yicha choraklik va yillik hisobotlar jamlanib, tahlil qilingan holda ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishi va takomillashtirilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilib borilmoqda.

Shu bilan birga, tajriba – sinov tariqasida ichki audit faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2025–2026-yillar davomida **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida "Namunali ichki audit xizmati" loyihasini amalga oshirish** bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi hamda unga muvofiq vazirlikning ichki audit xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

VII. Ichki audit tuzilmalari faoliyati ochiqligini ta'minlash hamda masofaviy auditni yanada rivojlantirish.

1. Davlat organlari va tashkilotlari ichki audit tuzilmalari faoliyati natijalarini ochiqligini ta'minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida ochilgan "Davlat ichki auditi" maxsus sahifasiga quyidagi ma'lumotlar joylashtirilib (yangilanib) borilmoqda.

- davlat ichki auditi sohasidagi qonunchilik hujjatlari;
- ichki audit milliy malaka sertifikatlari reyestri;

- ichki audit xizmati xodimlar faoliyati samaradorligining reytingi;
- malaka oshirishga oid ma'lumotlar;
- ichki audit tuzilmasi mavjud vazirlik va idoralar;
- ichki audit tuzilmalari faoliyatini baholash;
- xalqaro hamkorlik, seminar va treninglar;
- xalqaro foydalanishdagi qo'llanmalar.

2. Masofaviy audit qamrovi va sifatini oshirish hamda ichki auditorlarning moliyaviy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida ichki audit xizmati xodimlariga "UzASBO" dasturiy majmuasida **"kameral" modulidan** foydalanish bo'yicha **login va parollar taqdim etish** davom ettirilmoqda.

Bugungi kunda, **194 nafar (83%)** ichki audit xizmati xodimlariga **"kameral" modulidan** foydalanish bo'yicha **login va parollar taqdim etilgan**.

VIII. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

1. "Global ichki audit standartlari" (GIAS) hamda unga muvofiq Jahon bankining Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlik ta'lim dasturi (PEMPAL) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki audit tadbirlarini o'tkazish namunaviy qo'llanmasi asosida **yangi tahrirdagi Ichki audit milliy standartlari loyihasi ishlab chiqildi**.

PEMPAL hamjamiyatining samaradorlik auditini o'rganish bo'yicha ishchi guruhi faoliyatida boshqarma xodimlari ishtirok etishmoqda va ishchi guruh bilan birgalikda **"Samaradorlik audit bo'yicha qo'llanma" loyihasi tayyorlandi**.

Shuningdek, mamlakatimizda ichki audit va ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha PEMPAL hamjamiyati bilan doimiy ravishda hamkorlik qilib kelinmoqda hamda mazkur sohaga oid tashkil etilgan xalqaro seminarlarda ishtirok etib kelinmoqda.

IX. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonunida belgilangan budjet parametrlari doirasida Davlat budjetida ko‘zda tutilgan xarajatlar va daromadlarning kassa ijrosi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – G‘aznachilik organlari) tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq o‘z vaqtida amalga oshirildi.

2025-yilda G‘aznachilik organlari tomonidan jami **8 mingdan** ziyod budjet tashkilotlariga xizmat ko‘rsatilib, ular tomonidan taqdim etilgan yuridik va moliyaviy majburiyatlar amaldagi qonunchilik talablari doirasida ro‘yxatga olinishi ta‘minlandi (*markazlashgan buxgalteriya tashkilotlari 1 ta tashkilot sifatida olingan*).

Shu bilan birga, hisobot davrida budjet tizimi budjetlarining umumiy qiymati **1 079,7 trln so‘mlik 21,8 milliondan** ortiq to‘lov hujjatlari amalga oshirilgan. Shundan, budjet mablag‘lari hisobidan **383,3 trln so‘mlik 6,5 mln** dan ziyod, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan **467,7 trln so‘mlik 11,7 mln ta** hamda Davlat maqsadli va boshqa maqsadli jamg‘armalar hisobidan **228,6 trln so‘mlik 3,5 mln** dan ortiq to‘lov hujjatlari to‘lanishi ta‘minlangan.

Budjet tashkilotlari va budjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini birinchi yarmini (avans) har oyning 20 sanasidan kechiktirmasdan hamda oylik ish haqining ikkinchi yarmini har oyning birinchi besh ish kunida to‘liq moliyalashtirib kelinmoqda.



Shuningdek, soliq idoralarining xulosalariga asosan **qo‘shilgan qiymat solig‘ining 500 mln so‘mgacha** bo‘lgan qismini tadbirkorlik subyektlariga avtomatik tarzda to‘lab berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 2025-yil davomida soliq idoralarining **3 763 ta** xulosalariga asosan **2 361 ta** ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to‘langan **ijtimoiy soliq summasini qoplab berish uchun 30,7 mlrd so‘m** mablag‘lar qaytarildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5252-sonli qaroriga asosan G‘aznachilik organlari tomonidan 2025-yilda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish


obyektlarida xaridni amalga oshirgan va xarid chekinging fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazgan **jismoniy shaxslarga xarid summasining 1 foiz (Cashback)** uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan **1 872,6 mlrd so'm** mablag' belgilangan muddatlarda jismoniy shaxslarga qaytarib berish bo'yicha ochilgan bank hisob raqamiga o'tkazib berildi.

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining taqsimlanishi to'g'risida.

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining kassa ijrosini ta'minlash uchun Hukumat qarorlarida belgilangan miqdorda soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, ma'muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalarni undirilishi natijasida Yagona g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar undiruvchi organlarning rivojlantirish jamg'armasiga hamda Davlat budjeti daromadi o'rtasida taqsimlanish choralari ko'rib, natijada majburiy to'lovlar, ma'muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalar to'lovchilardan **49,7 trln so'm** mablag' undirilgan bo'lib, shundan **14 trln so'mi** davlat budjetiga qolgan **35,7 trln so'm jamg'armalar hamda mablag' undiruvchi organlarining budjetdan tashqari jamg'armalarga** yo'naltirildi.

64-rasm

Majburiy to'lovlar, ma'muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalar to'lovchilardan undirilgan mablag'lar



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi PQ-208-sonli va 2022-yil 30-dekabrda PQ-471-sonli qarorlariga asosan soliqlar, majburiy yig'imlar, bojlar va jarimalar hisobidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralarning budjetdan tashqari jamg'armalariga kelib tushgan mablag'larning hamda mazkur jamg'armalarning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlaridan hisobot davrida **40 foiz jami 2 916,5 mlrd so'm mablag' Respublika budjeti daromadiga** undirib olishga erishildi.

**PQ-471-sonli qarorlariga asosan tijorat banklariga joylashtirishdan
olingan daromadlaridan hisobot davrida 40 foiz Respublika budjeti
daromadiga undirib olish**



Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni samarali boshqarish to'g'risida.


Budjet tashkilotlari va davlat maqsadli jamg'armalarning bo'sh turgan mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida, tijorat banklariga vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni depozitga joylashtirish uchun taqdim etilgan buyurtmanomalariga asosan **budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari hisobidan** o'tkazilgan elektron auksion natijalariga ko'ra depozit stavkasi o'rtacha **17,5 foizdan 13 054,4 mlrd so'm tijorat banklariga** muddati 1 oydan 1 yilgacha bo'lgan muddatli **depozitlarga** joylashtirildi.

Bo'sh turgan mablag'larni depozitga joylashtirish natijasida, budjet tashkilotlari tomonidan qo'shimcha **1 819,8 mlrd so'm** daromad olishiga erishildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida **Yagona g'azna hisobvarag'ida vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar hisobidan** depozit stavkasi o'rtacha **16,7 foizdan 11 925 mlrd so'm** tijorat banklari depozitlariga joylashtirilishi hisobidan **1 312 mlrd so'm** daromad olindi va belgilangan tartibda tegishli normativlarga muvofiq budjet tizimi budjetlari o'rtasida taqsimlandi.

Shuningdek, **Pensiya jamg'armasining vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari hisobidan** o'tkazilgan elektron auksion natijalariga ko'ra depozit stavkasi o'rtacha **14,4 foizdan 9 735,0 mlrd so'm** tijorat banklari depozitlariga joylashtirilib, buning natijasida pensiya jamg'armasi tomonidan qo'shimcha **89,2 mlrd so'm** daromad olindi (*depozitlar qisqa muddatli bo'lib 4 kundan 25 kungacha joylashtirilgan*).

2025-yil davomida vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni depozitga joylashtirish (mlrd so'm)



Budjet tizimi budjetlarining chet el valyutasidagi mablag'lari to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida Xalqaro suveren obligatsiyalardan kelib tushgan **499,5 mln Yevro** (6 754,4 mlrd so'm) va **962,4 mln AQSH dollari** (12 131,2 mlrd so'm), Xalqaro moliya institutlaridan kelib tushgan **430,0 mln Yevro** (6 110,4 mlrd so'm) hamda **2 097,3 mln AQSH dollari** (25 223,6 mlrd so'm) miqdoridagi mablag'lar konvertatsiya qilinib jami **50 219,2 mlrd so'm** davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun yo'naltirildi.

2025-yil davomida O'zbekiston Respublikasiga kirib kelgan gumanitar yordamlar to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasiga 2025-yil davomida **33 ta** davlatdan umumiy qiymati **65 967,6 ming AQSH dollar** miqdorida gumanitar yordam yuklari kirib kelgan bo'lib, uning asosiy salmog'i **Amerika Qo'shma Shtatlari – 50 778,5 ming AQSH dollar (77%)**, **Niderlandiya – 4 143,3 ming AQSH dollar (6%)**, **Birlashgan Qirollik – 1 858,5 ming AQSH dollar (3%)** va **Xitoy Xalq Respublikasi – 1 230,4 ming AQSH dollar (2%)** davlatlariga to'g'ri keladi (umumiy gumanitar yordamning 88 foizi yuqoridagi to'rtta davlatga tegishli).


Kirib kelgan gumanitar yordam sohalar kesimida tahlil qilinganda, **Sog'liqni saqlashga (62 930,1 ming AQSH dollar)**, **ijtimoiy sohalarga (2 243,3 ming AQSH dollar)** va **ta'limga (640,3 ming AQSH dollar)** yo'naltirilgan.

Shundan ko'rish mumkinki, kirib kelgan gumanitar yordamning eng ko'p miqdori ya'ni **95 foizi** sog'liqni saqlash sohasiga to'g'ri keladi.

Ushbu davrda kirib kelgan gumanitar yordamlarni gumanitar yordam oluvchi tashkilotlar salmog'iga nisbatan olib tahlil qilinganda, "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya fondi **72 foizni**, Sog'liqni saqlash vazirligi **7 foizni**, Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasi **4 foizni** tashkil etadi.

67-rasm

O'zbekiston Respublikasiga 2025-yil davomida Insonparvarlik yordamida import qilingan tovarlar bo'yicha davlatlar kesimida



G'aznachilik faoliyatiga oid Normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-iyundagi PF-105-sonli Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28- fevraldagi "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 21- avgustdagi 280-son hamda Soliq qo'mitasining 2025-yil 14-avgustdagi 2025- 17-son "Budjet tizimi budjetlari daromadlarining kassa ijrosi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori qabul qilindi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 18-sentabrda 2771 - 6- raqam bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 19-sentabrdagi 289-son "“Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilindi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda 2730-1 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 26-sentabrdagi 290-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti pul mablag‘larini kassali rejalashtirish va boshqarishni amalga oshirish bo‘yicha hujjat shakllari va ularni taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i qabul qilindi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 13-oktabrda 3009-3 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 8-sentabrdagi 285-son “O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g‘azna ijrosi qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i qabul qilindi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 22-oktabrda 2850-3-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 6-oktabrdagi 295-son “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini yuritish qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi hamda Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 23-oktabrda 2772-3 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining 2025-yilda xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida.



O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi tomonidan davlat moliyasini samarali boshqarishni ta‘minlash, sohada raqamli transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish hamda xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda ichki biznes jarayonlarini takomillashtirish maqsadida bir qator xalqaro moliya institutlari va hamkor davlatlar g‘aznachilik organlari bilan tizimli tarzda hamkorlik olib borilmoqda.

2025-yilda xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

I. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik doirasida

1. Jahon banki bilan hamkorlik

G‘aznachilik biznes jarayonlarini raqamlashtirish, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish maqsadida g‘aznachilik tizimida **sun’iy intellekt texnologiyalarini** joriy etish imkoniyatlarini baholash hamda moliyaviy va boshqaruv hisobotlarini **Business Intelligence (BI) texnologiyalari** asosida analitik dashboard yaratish uchun Jahon banki tomonidan taqdim etilgan texnik ko‘mak va grant mablag‘lari hisobidan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, **SIVITTA** konsultant kompaniya sifatida jalb etilgan.

Ushbu kompaniya tomonidan **oktabr-dekabr oylarida** quyidagi ishlar amalga oshirildi:

a) Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni baholash loyihasi doirasida **g'aznachilik biznes jarayonlarini qisqacha tahlili** hisoboti tayyorlandi. (Hisobot 1) Qo'mita rahbariyati tomonidan hisobot qabul qilindi.

b) G'aznachilik biznes jarayonlarida asosiy ma'lumotlar tizimlari va modullarining tizimli bahosini, boshqaruv paneli platformasini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va boshqaruv hisobotlarini **Business Intelligence (BI) texnologiyalari** asosida analitik dashboard yaratish uchun arxitekturasi va amalga oshirish yo'l xaritasini taqdim etildi.

2. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlik

Osiyo taraqqiyot banki texnik yordamida G'aznachilik xizmati qo'mitasini institutsional va strategik jihatdan rivojlantirish, mavjud biznes jarayonlarni qayta ko'rib chiqib, xalqaro tajribalarga asoslangan strategik maslahatlar berish uchun konsultant yetib davlat moliyasini boshqarish (g'aznachilik) bo'yicha **ekspert Davit Gamkrelidze** jalb etildi.

2025-yilda Konsultant tomonidan G'aznachilik qo'mitasiga **2 ta missiya** amalga oshirdi va quyidagi asosiy ishlar amalga oshirildi:

a) **25-29-avgust** kunlarida G'aznachilik qo'mitasiga amalga oshirilgan tashrif davomida konsultant tomonidan qo'mitaning **o'rta muddatli rivojlanish strategiyasi ko'rib chiqildi** va g'aznachilikda **Yagona g'azna hisobvarag' (YAG'H)** mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish imkoniyatlari o'rganildi.

Tashrif yakunida, "G'aznachilik investitsiya siyosatini shakllantirish" bo'yicha hisoboti taqdim etildi.

b) **17-21-noyabr** kunlaridagi tashrif davomida **moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, g'aznachilik tizimida biznes jarayonlarni raqamlashtirish, sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich qo'llash orqali "Raqamli g'azna" tizimini joriy etish** bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

3. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) bilan hamkorlik

G'aznachilik tizimida likvidlik boshqaruvini takomillashtirish, prognozlash tizimini mustahkamlash hamda davlat ishtirokidagi korxonalarni qamrab olish orqali davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash yo'nalishlarida faol hamkorlik olib borilmoqda.

a) **10–14-fevral** kunlari Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasi qabul qilindi. Missiya doirasida **likvidlik boshqaruvini takomillashtirish** hamda **davlat korxonalarini qamrab olish** bo'yicha XVJ ekspertlari tavsiyalari olindi va tahlil qilish vositasi o'rganildi.

b) 6-19-avgust kunlarida G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi rahbariyati va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlari bilan qator uchrashuvlar o‘tkazdi. Uchrashuvlarda qo‘mitaning **joriy faoliyati, tashkiliy tuzilmasi, olib borilayotgan islohotlar, istiqboldagi rejalar** hamda **YaG‘Hni kengaytirish** masalalari muhokama qilindi.

II. Hamkor davlatlar g‘aznachilik organlari bilan hamkorlik

2025-yil 5-mart kuni O‘zbekiston – Gruzija hukumatlararo qo‘shma iqtisodiy hamkorlik komissiyasining 10-yig‘ilishi doirasida G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hamda **Gruziyaning Davlat xaridlari agentligi** o‘rtasida davlat xaridlari sohasida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan **memorandum imzolandi**.

2025-yil aprel oyida G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi raisi va Rossiya Federal g‘aznachiligi rahbari o‘rtasida ham uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Ayni paytda Rossiya tomoni bilan **markazlashgan buxgalteriya va ish haqi hisobi** yo‘nalishida faol hamkorlik olib borilmoqda.

2025-yil 28–30-may kunlari Tbilisi shahridagi xalqaro konferensiya doirasida **Gruzija G‘aznachiligi bilan anglashuv memorandumi** imzolandi.

2025-yil 13-16-oktabr kunlari Toshkent shahrida tashkil etilgan **PEMPAL g‘aznachilik hamjamiyatining** yalpi yig‘ilishi doirasida **Ozarbayjon Davlat g‘aznachilik agentligi** hamda **Qozog‘iston G‘aznachilik qo‘mitasi** bilan **anglashuv memorandumi** imzolandi.

III. PEMPAL g‘aznachilik hamjamiyati bilan hamkorlik

2025-yil 28-30-may kunlari Gruziyaning Tbilisi shahrida tashkil etilgan yalpi yig‘ilishda O‘zbekiston delegatsiyasining ishtirok etishi ta‘minlandi va a‘zo mamlakatlar yetakchi mutaxassisarlari va xalqaro ekspertlar bilan yuqori darajada muloqotlar o‘tkazildi va hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

2025-yil 13–16-oktabr kunlari ilk bor Toshkent shahrida **PEMPAL g‘aznachilik hamjamiyatining** yalpi yig‘ilishi **“G‘aznachilik faoliyatini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish”** mavzusida tashkil etildi.

Mazkur xalqaro anjumanda davlat moliyasini boshqarishdagi yangi tendensiyalar, jumladan **sun‘iy intellektga asoslangan raqamli texnologiyalarni** g‘aznachilik operatsiyalarida qo‘llash, hamjamiyatga a‘zo mamlakatlar va rivojlangan davlatlar (Fransiya, Janubiy Koreya)ning bu boradagi ilg‘or tajribalari, shuningdek Yagona g‘azna hisobvarag‘ini kengaytirish masalalari bo‘yicha **taqdimotlar va muhokamalar tashkil etildi**.

G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan masofaviy monitoring natijalari to‘g‘risida.

G‘aznachilik operatsion risklarini baholash va monitoring qilish boshqarmasi tomonidan hududiy G‘aznachilik xizmati boshqarmasi hamda uning hududiy bo‘limlarida yuridik va moliyaviy majburiyatlarning ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda boshqa g‘aznachilik operatsiyalarning amalga oshirilganlik holati yuzasidan tanlanma tartibda masofaviy monitoring tadbirlari natijasida **jami 1 615 ta holatda 135 642,4 mln so‘mlik** yuridik va moliyaviy majburiyatlarda xato va kamchiliklar aniqlangan.

I. Shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazilishida jami 1 236 ta holatda 122 663,1 mln so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlandi, jumladan:

1. Xarid qilish tartib-taomillariga rioya qilmagan asossiz ravishda **46 ta holatda 4 278,6 mln so‘mlik** to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilgan;

2. Tender savdolarini tashkil qilmasdan xarid qiymatini qisimlarga bo‘lgan xolda eng yaxshi takliflarni tanlash orqali **7 ta holatda 8 886,0 mln so‘mlik** shartnomalar ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

3. Xo‘jalik shartnomalarini dasturda budjet tasnifiga mos bo‘lmagan holda **320 ta holatda 22 408,7 mln so‘mlik** shartnomalar ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

4. Shartnoma tuzish o‘rniga asossiz ravishda **128 ta holatda 13 647 mln so‘mlik** yuridik majburiyatlar rasmiylashtirgan holda ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

5. Tuzilgan shartnomalarda kafillangan shaxslar ishtirok etgan holda **107 ta umumiy qiymati 35 067,1 mln so‘mlik** shartnomalar tuzilgan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

6. Imzolangan shartnoma bo‘yicha xarid qilingan tovar (ish, xizmat)larni maxsus axborot portallarida boshqa tovar (ish, xizmat)larni ko‘rsatib **73 ta holatda 2 244,2 mln so‘mlik** shartnomalar ro‘yxatdan o‘tkazilgan;

7. Xarid qilish hujjatlarini va texnik topshiriqlarni, shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo‘shimcha kelishuvlar loyihalarni kompleks ekspertizadan o‘tkazmaslik maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo‘lgan holda **74 ta holatda 10 129,5 mln so‘mlik** shartnomalar ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

II. To‘lovlarni amalga oshirilishida jami 379 ta holatda 12 979,3 mln so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlandi, jumladan:



1. Hisobvara-qfakturalar elektron shaklda qabul qilinmasdan **188 ta holatda 3 007,2 mln so‘mlik**;

2. Avans to‘lovlarining moliyalashtirish tartibiga amal qilinmasdan **77 ta holatda 8 279,7 mln so‘mlik** to‘lov topshiriqnomalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Masofaviy o'rganishda aniqlangan xato va kamchiliklarning kelib chiqish sabablari atroflicha tahlil qilinib, faoliyatida nazoratni susaytirganligi hamda kamchiliklarga yo'l qo'yganligi uchun jami **255 nafar** mas'ul xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan bo'lib, shundan, 3 nafar xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 5 nafariga o'rtacha oylik ish haqining 30 foiz miqdorida jarima, 6 nafariga o'rtacha oylik ish haqining 20 foiz miqdorida jarima, 3 nafariga o'rtacha oylik ish haqining 10 foiz miqdorida jarima, 238 nafariga "Hayfsan" intizomiy jazolari qo'llanilgan.

Masofaviy o'rganishda aniqlangan barcha xato va kamchiliklarning kelib chiqish sabablari atroflicha tahlil qilinib, faoliyatida nazoratni susaytirganligi hamda kamchiliklarga yo'l qo'yganligi uchun **255 nafar** hududiy G'aznachilik xizmati **boshqarma** va **bo'lim mutaxassislariga** nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

X. Davlat-xususiy sheriklik, davlat xaridlari, xalqaro reyting va indekslar hamda boshqa ko'rsatkichlari

Davlat-xususiy sheriklik (keyingi o'rinlarda – DXSH) sohasida respublika bo'yicha 2025-yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi.

I. DXSH loyihalarini ishlab chiqish, kelishish va tahlil qilish bo'yicha

2025-yilda DXSH asosida amalga oshirilayotgan **237 ta** loyihada jami **4,4 mlrd AQSH dollar** miqdorida investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi.

Jumladan, energetika sohasidagi **32 ta** loyihada **4,3 mlrd AQSH dollar** (*shundan, 4,0 mlrd dollarlik 28 tasi DXSH tamoyillari, Investitsiya qonunchiligi asosidagi loyihalar*), ta'lim sohasidagi **53 ta** loyihada **41,8 mln dollar**, sog'liqni saqlash sohasidagi **19 ta** loyihada **8,4 mln dollar** hamda boshqa sohalardagi **133 ta** loyihada **56,2 mln dollarni** tashkil etdi.

Shuningdek, 2025-yilda DXSH tamoyillari asosida qiymati **809,3 mln dollar** miqdoridagi **1 746 ta** loyihalar bo'yicha bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2025-yil 28-fevralda ijtimoiy sohada DXSH asosida loyihalarning amalga oshirilishini samarali tashkil qilish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda berilgan 13-sonli topshiriqlar ijrosi bo'yicha 2025-yilda DXSH asosida ijtimoiy sohada **401 ta** loyihalar bo'yicha ishlar olib borilib DXSH to'g'risidagi bitimlar rasmiylashtirildi.

Shundan, maktabgacha va maktab ta'limi sohasida **292 ta**, tibbiyot sohasida **24 ta**, oliy ta'lim (*talabalar turar joylarini qurish*) yo'nalishida **17 ta**, madaniyat sohasida **35 ta** va va sport sohasida **33 ta** loyihalarni tashkil etdi.

II. DXSH asosida amalga oshiriladigan yirik loyihalar Dasturi ijrosi

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida amalga oshiriladigan yirik loyihalar Dasturi ijrosi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

– **Urganch xalqaro aeroportini** modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish loyihasi (*134 mln doll.*) bo'yicha Janubiy Koreyaning "ICN-Urganch Airport Services LLC FC" kompaniyasi bilan DXSH bitimi imzolandi;

– Yangi Toshkent **xalqaro aeroportini** barpo etish loyihasini (*2,5 mlrd doll*) Saudiya Arabistonining "Vision Invest" kompaniyasi bilan amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi;

– Samarqand viloyatidagi **elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xususiy sektor boshqaruviga** berish (*357 mln doll*) loyihasi bo'yicha Turkiyaning "Akse energy" kompaniyasi tender g'olibi etib e'lon qilindi (*ma'lumot uchun, 2026- yil yanvar oyida DXSH bitimi imzolandi*);

– Farg'ona viloyatida 800 o'rinli ko'p tarmoqli shifoxona tashkil etish loyihasi (*306 mln doll*)ning tender bosqichlari yakunlandi hamda tender takliflarini baholash ishlari olib borilmoqda;

– Toshkent shahri va Toshkent viloyatida **13 ta umumta’lim maktablarini** qurish va jihozlash (*97 mln doll*) loyihasi tender bosqichlari yakunlandi;

– Toshkent shahrida oliy ta’lim muassasalari uchun **10 ming o’ringacha bo’lgan talabalar turar joylarini qurish** loyihasi (99,6 mln doll) hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi ko‘magida Andijon va Samarqand viloyatlarida 10 000 o‘rinli 12 ta umumta’lim maktabini qurish va jihozlash loyihasi (94,7 mln doll) bo‘yicha tender jaryonlari olib borilmoqda;

– Toshkent-Andijon **pullik avtomobil yo‘llarini** qurish loyihasida **tender jarayonlari davom etmoqda**;

– Surxondaryo viloyati ichimlik suv ta’minotini yaxshilash» loyihasining birinchi bosqichi doirasida 2025-yilning 29-iyul kuni **“Xizmat ko‘rsatish” shartnomasi** “O‘zsuvta’minot” AJ hamda Suez kompaniyasi o‘rtasida imzolandi.

Loyihada ichimlik suvi quvurlariga **15 ta** oqimni nazorat qilish, **3 ta** nasos stansiyalariga oqim o‘lchagichlarni va **5 ta** quduqlarga suv sarfini hisoblash uskunalari o‘rnatish, SCADA tizimini joriy etish, **3 500 km** ichki tarmoqlar uchun Geoaxborot tizimini (GIS) joriy etish va **3 100 ta** hisoblagichlar o‘rnatish ko‘zda tutadi;

– Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida Buxoro viloyatida issiqlik ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish va xususiy boshqaruvga berish loyihasi yuzasidan loyihani baholash hujjatlari ishlab chiqildi va davlat sherigi hamda vakolatli davlat organi tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Joriy yil yakuniga qadar tender e’lon qilish rejalashtirilgan.

III. DXSH loyihalari hisobotini yuritish, muvofiqlashtirish, monitoring qilish bo‘yicha

Hisobot davrida qiymati **246,6 mln AQSH** dollari miqdoridagi DXSH to‘g‘risidagi **1 750 ta** bitimlar DXSH loyihalari reyestriga kiritildi.

DXSH qonunchiligi talablari asosida davlat sheriklaridan amaldagi DXSH loyihalari bo‘yicha qabul qilingan hisobotlar tahlil qilinib tahlil natijalari bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolar yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqilib Vazirlar Mahkamasiga yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasining DXSH to‘g‘risidagi O‘RQ-537-sonli Qonuni ijrosi yuzasidan 2025-yil davomida **498 ta** shundan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **54 ta**, Andijon viloyatida **93 ta**, Buxoro viloyatida **9 ta**, Jizzax viloyatida **28 ta**, Qashqadaryo viloyatida **81 ta**, Navoiy viloyatida **26 ta**, Namangan viloyatida **41 ta**, Samarqand viloyatida **18 ta**, Sirdaryo viloyatida **30 ta**, Surxondaryo viloyatida **7 ta**, Toshkent viloyatida **29 ta**, Farg‘ona viloyati **57 ta** va Xorazm viloyatida **25 ta** DXSH loyihalarining natijadorligi va loyihalarning borishi yuzasidan monitoring tadbirlari o‘tkazildi.

Bundan tashqari, suv xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan **315 ta** DXSH loyihalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha elektr-energiyani iqtisod qilinishi yuzasidan tahliliy o‘rganishlar o‘tkazilib aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritildi.

IV. DXSH loyihalarini amalga oshirishni raqamlashtirish

DXSH loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlarini raqamlashtirish, yagona reyestrini yuritish va ularning monitoringini tizimli tashkil etish maqsadida **“DXSH loyihalarining elektron platformasi”** raqamli hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestrda ID-2268 raqam ostida ro‘yxatdan o‘tkazildi hamda platformaning konsepsiyasi, pasporti va texnik topshirig‘i belgilangan tartibda ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu axborot tizimi orqali DXSH sohasidagi loyihalarni rejalashtirishdan tortib bitim tuzish va monitoring qilishgacha bo‘lgan jarayonlar raqamlashtiriladi.

Shuningdek, platforma Raqamli texnologiyalar vazirligining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi (IIP) orqali soliq, mulk, energetika, sud va boshqa 21 turdagi servislar bilan real vaqt rejimida avtomatik axborot almashinuvi ta‘minlanadi.

Mazkur elektron platformada hozirgi vaqtda qiymati 1 mln dollargacha bo‘lgan loyihalar kiritilib, platforma test rejimida faoliyat yuritmoqda, 2026-yil yakuniga qadar DXSH loyihalari bilan bog‘liq barcha jarayonlar ushbu axborot tizimi orqali markazlashgan tartibda olib boriladi.

V. DXSH sohasidagi huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha

Sohaga xalqaro standartlarni tatbiq etish, jozibadorlikni oshirish, investorlarni keng jalb etish va shaffoflikni oshirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni loyihasi** ishlab chiqilib Adliya vazirligiga kiritildi.

Topshiriqqa muvofiq, madaniyat va sport sohasiga DXSH mexanizmini keng joriy etish va loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida “Madaniyat va sport sohasiga tegishli ko‘chmas mulk obyektlaridan samarali foydalanishni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning **Qarori loyihasi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.

Shu bilan birga, DXSH tamoyillari asosidagi loyihalarni belgilangan muddatlarda natijador amalga oshirilishida barcha darajadagi **respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan** Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyundagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilishini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 367-sonli qarori qabul qilindi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Davlat ijtimoiy soha obyektlariga davlat-xususiy sheriklik asosida yetkazib beriladigan issiqlik energiyasi uchun Davlat budjetidan mablag‘lar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Bundan tashqari, qiymati **1 mln AQSH** dollardan ortiq bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish uchun **qo‘llanma (Handbook)** ishlab chiqildi.

2025-yilning 12-sentabr kuni Jahon banki hamkorligida Toshkent shahridagi “Frankfort” mehmonxonasida vazirlik va idoralari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida DXSH bo‘yicha mas’ul mutaxassislar uchun davlat-xususiy sheriklik (DXSH) sohasidagi loyihalarni jadallashtirish hamda sohaga mahalliy va xalqaro investorlarni keng jalb qilishga qaratilgan seminar-trening tashkil etildi.

Shu bilan birga 2025-yilning 18-19-noyabr kunlari **“Davlat xususiy sheriklik orqali xususiy kapitalni mobilizatsiya qilish”** mavzusida III - Davlat xususiy sheriklik davra suhbatlari o‘tkazildi.

Davlat xaridlari sohasida amalga oshirilgan ishlar

Bugungi kunda xarid qilish tartib - taomillarini amalga oshirishning elektron do‘kon, boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion hamda eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari kabi turlari to‘liq elektron shaklda davlat xaridlarining elektron tizimlari orqali amalga oshirilmoqda.

Davlat xaridlari raqamlarda ko‘rib chiqilganda mazkur davlat xaridlarining elektron tizimlari orqali hisobot davrida davlat buyurtmachilari tomonidan respublika bo‘yicha jami **307,9 trln so‘mlik** xaridlar amalga oshirildi.

Shundan **174,1 trln so‘mi (57 %)** raqobatli xaridlar bo‘lib, buning natijasida **15,6 trln so‘m** mablag‘lar iqtisod qilingan. Qolgan **133,8 trln so‘mi (43 %)** raqobatsiz xaridlarga to‘g‘ri keladi.

Jami xaridlarning **24,9 foizi “yashil” xaridlar** ulushiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishning raqobatli turlari kesimida taqsimoti quyidagicha:

- elektron do‘kon orqali **25,5 trln so‘mlik**;
- elektron auksion orqali **1,3 trln so‘mlik**;
- kooperatsiya portali orqali **28,8 trln so‘mlik**;
- elektron tanlov orqali **33,6 trln so‘mlik**;
- elektron tender orqali **34,9 trln so‘mlik** bitimlar tuzilgan.

Budjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlarining hududlar kesimida eng yuqori ulushlari **Toshkent shahri (36 %)**, **Qashqadaryo viloyati (7 %)**, **Farg‘ona viloyati (6 %)**, va **Samarqand viloyatida (6 %)** qayd etildi.

Vazirlik va idoralar bo'yicha xaridlarning eng yuqori ulushlari **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** (17 %), **Transport vazirligi** (12 %), **Sog'liqni saqlash vazirligi** (12 %) hamda **Suv xo'jaligi vazirligi** (10 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Amalga oshirilgan jami davlat xaridlarining **58,8 trln so'mi** (54,1 %) respublika budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga va **49,9 trln so'mi** (45,9 %) esa mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek jami xaridlarning **47,5 trln so'mi** (43,7 %) budjet mablag'lari hisobidan, **40,3 trln so'mi** (37,1 %) esa budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari hisobidan hamda **20,9 trln so'mi** (19,2 %) davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan amalga oshirilgan.

27-jadval

2025-yilda budjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining budjet tizimi budjetlari kesimida

mlrd so'm

№	Budjet tizimi budjetlari	Bitimlar	
		Bitim summasi	Foizda
Jami:		108 742,1	100%
1	respublika budjeti	58 778,2	54,1%
2	viloyat mahalliy budjeti	29 619,1	27,2%
3	tuman (shahar) mahalliy budjeti	20 344,7	18,7%
shundan:			
I	Budjet	47 530,5	43,7%
1	respublika budjeti	27 377,8	58,0%
2	viloyat mahalliy budjeti	10 994,8	23,0%
3	tuman (shahar) mahalliy budjeti	9 157,8	19,0%
II	Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamgʻarmalari	40 353,8	37,1%
1	respublika budjeti	17 864,7	44,0%
2	viloyat mahalliy budjeti	11 718,8	29,0%
3	tuman (shahar) mahalliy budjeti	10 770,4	27,0%
III	Davlat maqsadli jamgʻarmalari	20 857,7	19,2%
1	respublika budjeti	13 535,7	65,0%
2	viloyat mahalliy budjeti	6 905,5	33,0%
3	tuman (shahar) mahalliy budjeti	416,5	2,0%

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan respublikamiz uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakat o'rnini yaxshilash yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

1. 2025-yilning 17-yanvar kuni Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi. Mazkur yig'ilish yakunlari bo'yicha respublika kengashining 14-sonli bayonnomasi bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarga mas'ul etib biriktirilgan **ilmiy tashkilotlar ro'yxati**;

b) O'zbekiston Respublikasining **ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy sohaga oid** ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan amaliy **chora-tadbirlar dasturlari**;

v) ilmiy tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish bo'yicha **yillik rejalari** tasdiqlandi.

2. 2025-yil 29-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida **mamlakatimizning ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilanishi** to'g'risidagi milliy ma'ruza muhokama qilindi.

3. 2025-yil 22-sentabr kuni Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining navbatdagi yig'ilishida **Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi bo'yicha 2024-yil natijalari, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy sohalardagi ustuvor xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilash** bo'yicha 2025-yilgi ish rejaning birinchi yarim yillik ijrosi ko'rib chiqilib, Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida O'zbekiston ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

4. O'zbekiston Respublikasining **ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash** bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar dasturining ijrosi yuzasidan monitoring ishlari olib borildi.

5. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sohasiga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha **2026-yilga** mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar dasturi hamda ilmiy tashkilotlarning **ilmiy-tadqiqot loyihalarini** amalga oshirish bo'yicha yillik rejalari loyihalari shakllantirildi va tasdiqlash uchun Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashiga kiritildi.

6. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi o'rni yaxshilanishi to'g'risidagi milliy ma'ruza

loyihasi tayyorlandi va dastlabki tarzda ko‘rib chiqish uchun **Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashiga taqdim etildi.**

7. 2025-yil yakuni bo‘yicha ustuvor xalqaro reyting va indekslarda quyidagi o‘zgarishlar yuz berdi:

2025-yilning fevral oyida **“Meros” jamg‘armasining** (*“Heritage Foundation”*) **“Iqtisodiy erkinlik”** indeksi 2025 yil uchun hisoboti e‘lon qilindi. O‘zbekiston **184 ta** mamlakat orasida **58 ball** bilan **100-o‘rinni** egalladi va 2024 yilga nisbatan **3 pog‘onaga** yuqoriladi.

2025-yilning 13-iyun sanasida **“Moody’s”** xalqaro reyting agentligi O‘zbekistonning suveren kredit reyting kutilmasini **“barqaror”**dan **“ijobiy”**ga o‘zgartirdi va **“Ba3”** darajasidagi reytingini tasdiqladi.

2025-yilning 26-iyun kuni **“Fitch”** xalqaro reyting agentligi tomonidan O‘zbekiston suveren kredit reytingi bahosi 2018-yildan beri ilk bora **“BB-”** dan bir pog‘ona yuqoriga, **“BB”** darajasiga oshirildi va reyting kutilmasi **“barqaror”** darajada tasdiqlandi.

O‘z navbatida, 2025-yilning 21-noyabr kuni **“S&P”** xalqaro reyting agentligi ham respublikaning kredit reyting bahosini **“VV-”** dan bir pog‘ona yuqoriga **“BB”** darajasiga oshirib, reyting kutilmasi **“barqaror”** darajada tasdiqladi.

“Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i” xalqaro tashkiloti tomonidan 2025-yil uchun e‘lon qilingan **“Barqaror rivojlanish maqsadlari”** indeksi hisobotiga ko‘ra O‘zbekiston o‘z ko‘rsatkichini **19 pog‘onaga** yaxshilab, **167 ta** mamlakat orasida **62-o‘rinni** egalladi. Mamlakatimiz 2015-yildan buyon Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari orasida **jadal rivojlanayotgan davlat** sifatida e‘tirof etildi.

Shuningdek, mamlakatimiz **“Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi”**ning 2025-yil hisobotida **5 pog‘onaga** yuqorilab, **153 ta** mamlakat orasida **83-o‘rinni** egalladi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti tomonidan e‘lon qilingan 2025-yilgi **“Global innovatsiya indeksi”**da O‘zbekiston o‘z ko‘rsatkichlarini **4 pog‘onaga** yaxshilab, **139 ta** davlat orasida **79-o‘ringa** ko‘tarildi.

2025-yil 24-noyabrda e‘lon qilingan Jahon bankining **“Statistik samaradorlik ko‘rsatkichlari”** hisobotiga ko‘ra O‘zbekiston **81,5 ball** bilan dunyoning **217 ta** mamlakati orasida **58-o‘rinni** egalladi va 2024-yilga nisbatan **4 ta** pog‘onaga ko‘tarildi.

XI. Davlat tashqi va ichki qarzi tahlili.

2025-yilda tasdiqlangan limitlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi nomidan va davlat kafolati ostida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun **2,5 mlrd**

AQSH dollari hamda budjetni qo'llab-quvvatlash uchun **3,0 mlrd AQSH dollari** miqdoridagi tashqi qarz bitimlari imzolandi.

Qonunga ko'ra 2025-yil uchun:

O'zbekiston Respublikasi (O'zbekiston Respublikasi hukumati) nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 5,5 mlrd AQSH dollari, shundan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun - 3,0 mlrd AQSH dollari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun - 2,5 mlrd AQSH dollari.

Shuningdek, mazkur davr mobaynida **34 126 mlrd so'm** bo'lgan davlat g'aznachilik obligatsiyalari chiqarildi hamda **23 384,5 mlrd so'm** miqdoridagi asosiy qarz to'lovlari qayta moliyalashtirildi.

Ma'lumot uchun: 2025-yilda chiqarilgan va ichki moliya bozorida joylashtirilgan davlat g'aznachilik obligatsiyalaridan 1 yillik muddatga – 10 713,8 mlrd so'm (31,4%), 3 yillik – 22 946,2 mlrd so'm (67,2%), 5 yillik – 431 mlrd so'm (1,3%) va 10 yillik – 35 mlrd so'mni (0,1%) tashkil etdi. Bunda, davlat g'aznachilik obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha jami 121 ta auksion savdolari o'tkazildi.

Shu bilan birga, 2025-yil fevral oyida uch transhda jami **1,5 mlrd AQSH dollari** ekvivalentidagi (**500 mln AQSH dollari, 500 mln yevro va 6 trln so'm**) O'zbekiston Respublikasi suveren xalqaro obligatsiyalari joylashtirildi.

Bunda, suveren xalqaro obligatsiyalarning bir qismi O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish uchun ishlab chiqilgan obligatsiyalar dasturi doirasida **“Yashil”** maqomi bilan chiqarildi. **“Yashil”** obligatsiyalardan kelib tushadigan mablag'lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish hamda shu kabi boshqa loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

“Yashil” obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larning sarflanishi yuzasidan hisobot xalqaro standartlarga muvofiq shakllantiriladi va e'lon qilib boriladi.

Shuningdek, suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan kelib tushgan mablag'lar respublika aholisini uy-joy bilan ta'minlash dasturini moliyalashtirish hamda umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini qurish, ularni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun yo'naltiriladi.